



T.N.Qori Niyoziy nomidagi O'zbekiston Pedagogika  
fanlari ilmiy tadqiqot instituti

# UZLUKSIZ TA'LIM



ILMIY-USLUBIY JURNAL

2021  
maxsus son

## DJURAYEV Risbay Bosh muharrir

Jurnal 2001 yildan nashr qilina  
boshlangan.  
O'z MAAidan 2007 yil 3-yanvara  
№ 0101-tartib raqami bilan  
qayta po'yxatdan o'tgan.

Jurnalda e'lon qilingan  
maqolalardan iqtibos keltiril-  
ganda «Uzluksiz ta'lim»  
jurnalidan olinganligi ko'rsa-  
tilishi lozim.

## Tahrir hay'ati:

Sherzod	SHERMATOV
Uzoqboy	BEGIMQULOV
Alisher	UMAROV
Nargiza	RAXMANQULOVA
Xolboy	IBRAGIMOV
Shavkat	QURBONOV
Roxatoy	SAFAROVA
Islom	ZOKIROV
Dono	G'ANIYEVA
Lobar	QARAXANOVA
Dusmurod	DJURAYEV

## Tahririyat manzili:

100027, Toshkent sh.,  
Furqat ko'chasi,  
174-uy.

O'zPFITI

Tel.: (71)-245-92-34  
(93)-503-52-07

e-mail: uzluksiztalim\_jurnal@mail.ru  
liya\_2305@mail.ru

## TA'LIM MAZMUNI UZLUKSIZLIGI

### **Д.У.Джусраев, М.У.Жураева**

Преемственность как основа непрерывности в образовании (Туркестан, конец XIX – начало XX века)

### **X.I.Ibraimov, E.T.Tursunmazarov**

Uzluksiz ta'lim tizimida ingliz tilini o'qitishda mnemonika usullaridan foydalanishning ijtimoiy zarurati

### **D.S.Davronova**

Oilada sog'lom ma'navyi muhitni barqarorlashtirishda «Oila – mahalla – ta'lim muassasasi» uzluksiz hamkorligi ahamiyati

### **X.I.Ibraimov, O.I.Yadgarova**

Bo'ljak mutaxassislarни professional-kommunikativ faoliyatga tayyorlashda «Google Scholar», «Scopus», «Scenedirect» xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari

### **S.B.Sharipova**

Ma'navyi-axloqiy qadriyatlar va yoshlar dunyoqarashini tarbiyalashda oilaning roli

### **B.I.J.Moyanov**

Xalq musiqiy pedagogikasi tushunchasining mazmun va mohiyati (Qoraqalpoq xalq musiqasi asosida)

### **X.I.Ibraimov, M.Y.Egammazarov**

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalarini tatbiq etish orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish tamoyillari va mexanizmlari

### **G.Kushakova**

Uzluksiz ta'lim tizimida yoshlarda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslari

### **Dj.A.Pulatov**

Umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'navyi tarbiyanı amalga oshirishning pedagogik shart-sharoitlari

### **D.H.Narzikulova**

Oilaning yoshlar tarbiyasidagi vazifalar

### **S.S.Raximova**

Malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorlik sifatlarini rivojlantirish usullari

### **B.O.Husanov**

Yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish – dolzarb pedagogik muammo sifatida

### **N.P.Kurbanova**

Bo'ljak iqtisodchilarni o'qitishda «Just In Time» konsepsiyasidan foydalanish

### **Ж.Б.Гулимов**

Проблемы развития чувства ответственности у студентов высших учебных заведений

### **Г.И.Бердикулова**

Социолингвистический подход к обучению русскому языку местного населения Туркестана (вторая половина XIX – начало XX века)

### **E.A.Abdumannotov**

Umumta'lim maktablari o'quvchilarida ekskursiya turizmi vositasida vatanparvarlik tuyg'usini takomilashtirishning mazmuni va mohiyati

### **Sh.A.Berdiyorova**

Xotin-qizlarning ma'navyi-ma'rifiy faoliigi samaradorligini oshirish omillari

### **Sh.X.Berdiyorova**

Nofilogik talabalar uchun ingliz tilini o'qitishda «Flipped classroom» modulini qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirish

### **D.A.Nazirova**

Uzluksiz ta'lim tizimida maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda o'yin texnologiyalarining ta'siri

### **J.Y.Qob'o'tayev**

O'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi pedagogik muammo sifatida

### **Sh.K.Tatliboyev**

O'quvchilarni jamoada ishslash ko'nikmalarini rivojlantirish masalasi: tarixiy-milliy yondashuvlar va ajodolar tarjibalarli

### **M.H.Hakimova**

Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim tizimini modernizatsiyalashning afzalliklari va inkoniyatlari (Respublika uzluksiz ta'lim tizimi misoldi)

### **X.M.Xalilova**

Совершенствование механизмов формирования предмета «Воспитание» в сознании младших школьников на основе неоногологического подхода

### **H.C.Alianova**

Социально-экономическое развитие и совершенствование системы физического воспитания в высшей школе



**ПРЕЕМСТВЕННОСТЬ КАК ОСНОВА НЕПРЕРЫВНОСТИ  
В ОБРАЗОВАНИИ  
(ТУРКЕСТАН, КОНЕЦ XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА)**

**Д.У.ДЖУРАЕВ,**

зав. каф. "Педагогика и психология" УзГУМЯ, д.п.н.

**М.У.ЖУРАЕВА,**

доцент Ташкентского института инженеров  
иригации и механизации сельского хозяйства

В статье рассматриваются актуальные аспекты развития системы непрерывного образования Туркестанского края, конца XIX – начала XX века. Раскрывается место профессионального образования в крае, содержание системы непрерывного образования, перспективы и особенности развития образованности населения того времени. В статье делается анализ исторических аспектов становления концепции непрерывного образования, отражаются его цели, задачи, функции, компоненты, принципы, значение для повышения грамотности населения края.

**Ключевые слова:** образование, интеграция, местное, компетентностный подход, уровень образования, уровень грамотности, интересы.

Мақолада XIX аср охири – XX аср бошларидаги Туркестон ўлкасининг узлуксиз таълим тизими ривожланишининг долгарб жиҳатлари кўриб чиқилади. Ўлқада амалга оширилган халқ таълимининг мазмуни, мазкур даврдаги аҳоли таълимининг истиқболлари ва хусусиятлари очиб берилади. Мақолада ҳаётий таълим концепцияси шакллананинг мақсадлари, вазифалари, функциялари, таркибий қисмлари, тамоилилари минтақа аҳолисининг саводхонлигини ошириш учун аҳамиятини акс эттирувчи тарихий жиҳатлар таҳтил қилинади.

**Таянч сўзлар:** таълим, интеграция, маҳаллий, ёндашув, таълим даражаси, саводхонлик даражаси, қизиқишлар.

*The article examines the current aspects of the development of the system of continuous education in the Turkestan territory, the end of the XIX – beginning of the XX century. The place of vocational education in the region, the content of the system of continuous education, prospects and features of the development of education of the population of that time are revealed. The article analyzes the historical aspects of the formation of the concept of lifelong education, reflects its goals, objectives, functions, components, principles, significance for increasing the literacy of the population of the region.*

**Key words:** education, integration, local, competence-based approach, educational level, literacy level, interests.

Для современного общества оптимальным является применение системы непрерывности образования, как постоянного, последовательного, пожизненного пополнения каждым человеком личного объема знаний, умений, навыков. Непрерывность образования – это процесс роста образо-



вательного потенциала человека (как общего, так и профессионального) на протяжении всей его жизни, согласующийся с потребностями личности и социума. Непрерывное образование – это реализация всем известной пословицы «Век живи – век учись», и в сегодняшней реальности она имеет важнейший смысл. Полнота и удовлетворенность социальной жизнью невозможна без постоянного пополнения ресурса человека.

Основная цель непрерывного образования – развитие в личности таких свойств как самостоятельность, целеустремленность, трудолюбие, ответственность, адаптация к быстро изменяющимся условиям современного общества и качественное усвоение новой информации. Непрерывность процесса образования создает условия для более глубокого понимания человеком своих потребностей и явлений окружающего мира, более качественному раскрытию своего потенциала; становится возможным полноценно выполнять свою социальную роль в ходе трудовой деятельности и жизни в социуме.

Система непрерывного образования используется во всем мире во многих вариациях, с применением различной терминологии. Например, возобновляющееся образование, заключающееся в получении объема знаний частями на протяжении всей жизни, чередующегося с иными видами деятельности, в частности, профессиональной.

Реализация принципа непрерывности образования возможна, когда все учреждения образования представляют из себя единую сеть, характеризующуюся тесной взаимосвязью ее элементов и преемственностью учебных программ. Несомненно, информационные технологии являются большим подспорьем для перехода на непрерывное образование.

Для полного понимания состояние непрерывности современного образования следовало бы помнить исторический путь народного образования региона. Просветительство в Туркестане имеет глубокие генетические корни. Усиление философии просветительства в XIX веке связано с объективными причинами отставания среднеазиатских ханств от развития. После завоевания Туркестана Российской империей открылись возможности для проникновения демократических идей как из Европы, так и из Азии, общения с миром, что способствовало развитию освободительных идей в регионе. Это были первые шаги в формировании философии национальной свободы. Её сторонники были далеки от того, чтобы возглавлять, организовывать или поддерживать народные восстания, вспыхивавшие в разных участках региона.

Обстановка возникновения в Туркестане первых новометодных школ говорит о социальных группах, которые стояли за новыми школами и определяли их социальную принадлежность и политическую программу. Нема-



ловажное значение в концепции просвещения национальные прогрессисты придавали историко-культурному наследию народов Центральной Азии.

Изучив практику новометодных школ И. Гаспринского и азербайджанских новаторов, туркестанские джадиды уже в конце XIX века приступили к реформированию традиционной системы образования, которая не отвечала требованиям времени. Они пришли к выводу о необходимости создания новых школ исходя из собственного опыта.

Бессспорно, эти учебные заведения нельзя назвать в полном смысле слова школами европейского образца, но они были приближены к этому типу не только набором предметных занятий и устройством, но самое главное методом преподавания. В отличие от старых мактабов здесь дети осваивали грамоту за 40 дней. Поэтому за сравнительно короткий срок эти школы обрели доверие и популярность среди местного населения.

В Хивинском ханстве проблема реформы системы образования решалась гораздо легче. Это обусловлено тем, что хивинский хан Мухаммад Раҳим II (Феруз) был известным меценатом культуры, положительно относящийся к технологическим новациям. Так, в 1874 г. по его инициативе в Хиву из России был привезен литографический станок. Открытие новометодных школ в ханстве не встречало сопротивление властей, как в Бухаре. Сам Феруз поддерживал организацию школ, его примеру следовали многие высокие чиновники.

Осознав роль и место учителей в системе управления краем с 1870 года, был поднят вопрос подготовки учителей. Учебное заведение для подготовки учителей было важным элементом плана по народному образованию в Туркестанском крае, составленного в 1873 г. Открытая в 1879 г. четырехклассная мужская учительская семинария в Ташкенте являлась в течение десятилетий единственной педагогической школой для огромной территории Средней Азии. Она была единственным здесь средним профессиональным учебным заведением.

В “Основном проекте организации народного образования и учебной части в Туркестанском регионе” во главе генерал-губернатора Туркестана К.П. Кауфманом тоже былоделено особое внимание процессу подготовки учителей. В проекте было отчетливо отмечено, что слушатели будущего учебного заведения должны были избираться из числа русского населения. По мнению создателей проекта, образование граждан Империи нельзя было доверять местным кадрам. “В ТУС есть общежитие для проживания слушателей, которое содержится за счёт бюджета. Места в общежитии распределяются исключительно детям русских родителей. Потому что они в будущем будут учить местное население “грамоте” по заранее подготовленному плану и направлению. Обучение граждан Империи ни в коем случае нельзя доверять “туземцам” [1].



Социальное происхождение 415 учащихся ТУС, поступивших в семинарию в период с 1879 по 1904 г.



Как видим из рисунка основную часть выпускников гимназии (с 1879 по 1904 годы) составляли слушатели русской национальности. В частности, русских 350 человек (84,4%); казахов 52 человека (12,5%); узбеков 9 человек (2,2%); татаров 3 человека (0,7%); туркмен 1 человек (0,2%).

Семинария начала свою работу с 1879 года. По причине того, что семинария не заполнялась слушателями русской национальности, разрешили треть места заселять слушателями местной национальности. Конечно, этого было недостаточно, чтобы обеспечить потребность края учителям[2; С.110].

Начиная с первого выпуска (1883) до 1904 г. включительно, семинарию окончило 254 человека. Так как стипендианты семинарии были обязаны по окончании курса отслужить учителями 6 лет, то к 30 августа 1904 г. из 77 выпускников 1899-1904 гг. 76 состояли на педагогической работе. Из 177 окончивших семинарию в 1883-1898 гг. к указанной дате 18 умерли или не работали по болезни; а из здоровствовавших 159 человек на педагогической работе было 107, - т.е. почти третья часть выпускников семинарии, отслужив стипендию, уходили из учительства [2; С.146].

В связи с потребностью туркестанской администрации в служащих, хорошо владеющих местными языками, в 1883 г. даже стал вопрос о преобразовании учительской семинарии в школу для подготовки чиновников и переводчиков.

С начала открытия Ташкентской учительской семинарии планировалось вести там обучение по направлению миссионерства. В частности, директор семинарии Н.А. Воскресенский в своем письме одному из Московских священников указывает своё отношение по направлению обучения в семинаре: “... основной целью Ташкентской учительской семинарии является обрусение местного населения, путем пропаганды христианства среди слушателей местной национальности”[3; С.34]. Атмосфера семинарии отравлялась активностью казенного православия. За непосещение даже в каникулярное время “богослужений” в церкви православных семинаристов лишали стипендии. Религиозное воспитание в таких принудительных формах руководство семинарии рассматривало, как путь к “нравственному совершенствованию” учащихся.


Царские чиновники для назначения директора семинарии советовались с специалистами. Одним из таких специалистов являлся Н.И. Ильминский (1822-1892гг.), наставник всех директоров гимназии, пропагандировавших христианство в гимна-



зии. В должности директора гимназии в разные годы трудились такие ученики Н.И. Ильминского как, Н.П. Остроумов, М.А. Миропиев и Н.А. Воскресенский.

Местное население составляло незначительную часть слушателей Туркестанских гимназий.

### **Национальность слушателей в мужской и женской гимназиях Ташкента в 1896 году**



При открытии Туркестанской учительской семинарии правительство утвердило преподавание в ней узбекского и таджикского языков. Но генерал-губернатор края К.П. Кауфман предложил педагогическому совету семинарии заменить эти языки казахским. В январе 1881 года ходатайство Кауфмана было удовлетворено. В августе 1884 года новый генерал-губернатор Розенбах распорядился о замене в учительской семинарии казахского языка узбекским, персидским и арабским.

С 1885 до мая 1890 года преподавателем местных языков в семинарии был В. П. Наливкин. В эти годы семинария стала научным центром по изучению узбекского и таджикского языков. Наливкин до семинарии в совершенстве овладел этими языками практически. В сотрудничестве с женой он сделал первую попытку научного изучения узбекского языка по говорам Ферганской долины.

Несмотря на все эти старания колонизаторов направить деятельность семинарии для защиты и исполнения своих интересов (прежде всего обеспечить русские и русско-местные школы учителями, а русское население образованием, и этим обеспечить им привилегированность по отношению к местному населению), семинария в течение десятилетий оставалась единственным специальным учебным заведением, готовившим педагогов в Туркестанском крае. Там подготовились много хороших педагогов разной национальности, которые внесли большой и ощутимый вклад в развитие народного образования всего Туркестана.

#### **Список литературы:**

1. ЎзР МДА, 47 ф. 1/1-иш, Об устройстве учебной части по ведомству Министерства народного просвещения в Туркестанском крае, 1875.
2. Бендриков К.Е. “Очерк по истории народного образования в Туркестане (1865-1924гг.)” // М.: АПН, 1961. – Б.110.
3. Ильминский Н.И. Из переписки по вопросу о применении русского альфавита к инородческим языкам // Казань, 1883. – С.34.



## **UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA INGLIZ TILINI O'QITISHDA MNEMONIKA USULLARIDAN FOYDALANISHNING IJTIMOIY ZARURATI**

**X.I.IBRAIMOV,**

*p.f.d., professor, O'zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrasi,*

**E.T.TURSUNNAZAROVA,**

*Navoiy viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning  
malakasini oshirish hududiy markazi «Tillarni o'qitish metodikasi»  
kafedrasi katta o'qituvchisi, NaDPI mustaqil izlanuvchisi*

*Mazkur maqolada uzlusiz ta'lrimizda ingliz tilini o'qitishda mnemonika usullaridan foydalananishning ahamiyati, mnemonika usullarining semantik jihatdan turlari va nomutaxassis o'qituvchilarini tayyorlashda ularidan foydalamanish zarurati haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, mnemonika, mnemonika usullari, mnemonika turlari, nomutaxassis o'qituvchilar.

*В статье обсуждается важность использования мнемоники при обучении английскому языку в системе непрерывного образования, семантические типы методов мнемоники и необходимость их использования при подготовке учителей-неспециалистов.*

**Ключевые слова:** английский язык, мнемоника, мнемонические методы, виды мнемоники, учителя-неспециалисты.

*The article discusses the importance of using mnemonics in teaching English in the system of lifelong education, the semantic types of mnemonic methods and the need for their use in training non-specialist teachers.*

**Key words:** english, mnemonics, mnemonic methods, types of mnemonics, non-specialist teachers.

Jahonda madaniy, ta'limiylar ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning integratsiyalashuvi, dunyo sivilizatsiyasi yutuqlari hamda axborot resurslaridan keng ko'lamda foydalananishga bo'lgan talab xorijiy tillarni o'rganishga bo'lgan e'tiborni kuchayishiga olib kelmoqda. Bugungi kunda xorijiy tillarni o'rganish darajalarini aniqlashning xalqaro standartlarini (IELTS, TOEFL, DSD, DELF kabi) joriy etilishi, ochiq ta'lim tizimlari imkoniyatlarining ortib borishi, turli davlatlar o'rtasida ta'lim sohasida olib borilayotgan o'zaro hamkorlik boshqa xalqlar tillarini o'rganishning izchiilligini ta'minlashga xizmat qilmoqda [1].

Mamlakatimizda ta'lim tizimini tubdan modernizatsiyalash, uzlusiz ta'lim tizimida xorijiy tillarni faol o'rgatish uchun zarur sharoit yaratish, ularni o'rgatishning jadallashtirilgan uslublarini joriy etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish borasidagi islohotlar xorijiy tillarni birinchi sinfdan boshlab o'qitishni



yo‘lga qo‘yish, mazkur tillarda erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarini tayyorlash mexanizmlarini joriy etish imkoniyatlarini oshirdi. Shu bilan birga ingliz tilining dunyoda muloqot va axborot sohasidagi etakchiligidan kelib chiqib, talabalarning tilga bo‘lgan qiziqishlarini oshirishda intensiv til metodlaridan keng foydalanish zarurati mavjud. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “oliy ta’lim sifatini tubdan oshirish, xorijiy tillarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish” [2] kabi ustuvor vazifalar belgilanib, bu borada oliy ta’lim muassasalari talabari lingvistik kompetensiyalarini rivojlantirish yo‘llari, psixologik-pedagogik xususiyatlarini aniqlash, auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlar dasturi va tavsiyalar ishlab chiqish, xorijiy tillarni o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan, jumladan, mnemonik usullardan foydalanish muhim ahamiyat kasb yetadi.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida nomutaxassis o‘qituvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda mnemonika usullaridan foydalanish tizimi asosini standartlar, ijtimoiy buyurtma hamda mehnat bozorida mutaxassislarga qo‘ylgan ehtiyoj, metodologik yondashuv tashkil etib, uning funksional strukturasini model predmetlarining o‘zaro mantiqan bog‘liqligi, aloqadorligini yoritib berishi, modellashtirish sub’ektlari va ta’lim jarayoni ishtirokchilarining ta’lim muhitidagi bog‘liqligini taqozo qiladi.

**Mnemonika** - (yunon tilida: *mnemonika* – «xotirada saqlash san’ati») – sun’iy assotsiatsiyalarni shakllantirish orqali xotirani yodlashga va xotira koefitsientini oshirishga yordam beradigan metodlar va usullar majmui [3]. Nomutaxassis o‘qituvchilarning malakasini oshirish tizimining tahlili mazkur tayyorgarlikning tabaqalashtirilgan tarzda olib borilayotganini ko‘rsatdi. Dunyo bo‘yicha ularning bir necha turlari mavjud: tajribasiz o‘qituvchilar uchun pedagogik faoliyat boshlanishidagi sirtqi yoki masofaviy shakldagi boshlang‘ich ta’lim; tajribali (odatda muktabda katta tajribaga ega bo‘lgan), lekin malakasiz o‘qituvchilar uchun boshlang‘ich ta’lim; pedagogik tajribaga ega bo‘lmagan diplomli mutaxassislarga qo‘shimcha pedagogik ta’lim (muktabda stajirovka shaklida va qo‘shimcha kurslarda); pedagogik ma‘lumot va tajribaga ega bo‘lgan malakali o‘qituvchilarning keyingi davomiy ta’limi.

Ingliz tilini o‘qitish jarayonida mnemonika usullarini ta’lim jarayoniga tatbiq qilish til o‘rganuvchilarining ichki ehtiyoji, mayli istagi, ya’ni motivatsiyasi asosida kechadi [4].

**Mnemonika usullari**- motivatsiya bosqichida faoliyatning bir nechta bilim beruvchi muhim turlarini amalga oshirishga yo‘naltirilgan metodlarning komponenti, qismi. Birinchidan, tahsil oluvchi o‘rganilayotgan mavzu to‘g‘risida bilganlarini tiklashda faol ishtirok etadi. Bu esa, uni o‘z bilimlarini tahlil qilishga va tez orada batafsil ko‘rib chiqiladigan mavzu haqida o‘ylashga majbur etadi [5].

Bundan tashqari, insonni turli kasbiy holatlari bilan aloqador mnemonika bazalari mavjud:



**Inson madaniyatini ko'rsatuvchi mnemonika:** spill the beans-o'tlab ketish, ko'p gaphirish ma'nosida; talk turkey-yuzing-ko'zin demay gaphirish, betgachoparlik; talk big-katta gapirmoq; hot air-safsata, talk through the back of one's neck-safsata sotmoq, valdiramoq; a bag of wind-ezma, vaysaqi, maxmadona; empty the bag-ochiqchasiga aytmoq, oshkor qilmoq; valdiramoq; speak like a book-balandovalpoz nutq so'zlamoq; chew the fat- ming'ir-ming'ir qilmoq, javramoq, g'iybat qilmoq; shut up like a clam-og'ziga talqon solgandy; cut the cackle-valdirashni to'xtatmoq kabi frazeologizmlar insomning madaniyatni bilan bevosita bog'liq.

**Insonning aqly faoliyatini belgilab beruvchi mnemonika.** Bunday birliklar ko'pincha salbiy uslubiy bo'yonna ega bo'ladi: go bananas-aqlidan ozmoq; to be out of one's box; go out of one's mind-esini egan; to be soft in the head-miyasi aynigan; addle brained, addle headed - miyasiz, to 'nka; as balmy as bandyoot - tentaksimon, miyasi biroz aynigan; be of the beam-tentaksimon; crazy as bed-bug- tentak: Masalan: You're mad! You have gone out of your mind. I won't listen to you.(A.J.Cronin, "The stears look down", ch.XXI, p. 548.). You ought to be shout up, Larry. You're as crazy as a loon.Not at all I'm very sensible and very practical. (W.S.Maugham, "The razor's edge", ch. VI p.86).

**Giyohvandlik moddalari va uni qabul qilish jarayoni bilan bog'liq mnemonika:** cold tugkey-narkotik qabul qilish istagida jazvaga tushmoq, rack head druggie-giyohvand; be of smb's head-kayfi taroq; bad egg-iflos, past odam; knockout drops-giyohvandlik moddalari; coffin nail-sigareta. Masalan: He was...What we call a grouch face, a drizzle-puss, a wet blanket, a cold turkey. (E.S. Gardener "Some women won't wait", ch. XVIII, p.596).

Bulardan tashqari, ranglar va zoomomik turdag'i turli xil emotSIONallikni ifodalovchi mnemonika bazalari shular jumlasidandir.

Ingliz tilida mnemonika bazasiga taalluqli so'zlar, iboralar turli semantik sathlarda ifodalanib kelish bilan birga o'ziga xos stilistik emotSIONal semaga ham ega bo'ladi. Xususan, emotSIONal-ekspressiv semalar ularning o'ziga xosligini ta'minlab, nutq jarayonida to'g'ri voqe'lanishi uchun zamin yaratadi. Mnemonik usullarning emotSIONalligi ularning turli xil his-tuyg'ulari, shaxs-predmetlarga nisbatan sub'ektiv munosabatlarini ifodalash bilan bog'liqidir. ularning emotSIONalligi bir vaqtning o'zida ikki ma'noming reallashuvni va obrazililik natijasida yuzaga chiqqadi. Ingliz tilida mnemonika bazasiga taalluqli so'zlar, iboralar qo'rquv, shodlik azoblanish, hayrat, taajub kabi emotSIONal xususiyatlarni ifodalash imkoniyatiga ega. Masalan, "wish had never been born", "dog's life", "heart in smb's boots" FBlari dardu-alam, xafagarchilik emotSIONal bo'yog'iga ega bo'lsa, "have a field day", "jump for joy", "in seventh heaven" kabilar quvonch, sevinch emotSIONal bo'yog'iga ega.

Nomutaxassis o'qituvchining ingliz tilidagi axborot bilan ishlash ko'nikmalari nafaqat o'quv axborotini bevosita bayon qilish, balki uni olish va qayta ishlash usullari bilan ham bog'liq. Unga chop etilgan va bibliografik manbaalar bilan



ishlash, boshqa manbaalardan axborotni olish va uni ta'lim jarayoni maqsadlari va vazifalariga mos holda qayta ishlash ko'nikmalarini kiradi.

Nomutaxassis o'qituvchilarning ingliz tilini o'rganishlarida mnemonika usullari quyidagilarga yo'naltiriladi [6]:

- o'quv axborotini taqdim qilish, tushuntirish, suhbat, muammoni induktiv va deduktiv bayon qilishlarni e'tiborga olgan holda o'quv materialini uzatish jarayonini mantiqiy to'g'ri tuzish;

- savollarni tushunarli va to'g'ri ta'riflash;

- o'quv materialini o'zlashtirish darajasini va tavsifini tezkor tashxislash.

Rivojlantiruvchi ko'nikmalar quyidagilarni nazarda tutadi:

- bilish jarayonlari, hissiyotlari va idroklarini rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlarni va boshqa sharoitlarni yaratish;

- bilish mustaqilligi va ijodiy fikrplashini rag'batlantirish, mantiqiy (xususiymi umumiyya va boshqalar) va funksional (sabab-natija, maqsad-vositalar, sifatsonlar, harakat-natijalar) munosabatlarni o'mnatiш zaruriyati;

- individual xususiyatlarni rivojlantirish uchun sharoitlar yaratish, shu maqsadda individual yondoshuvni amalga oshirish.

Shunday qilib, ingliz tilini o'qitish metodikasida jahon pedagogikasining ilg'or g'oyalari, tarbiyavly, ta'limiy nazariyalari, mutaxassislar tayyorlashning boy amaliyoti, hozirgi zamondagi texnikasi va texnologiyasidan foydalanish hamda milliy, hududiy xususiyatlarni hisobga olib, ularni mahalliy sharoitlarga moslashtirish, shu negizda nomutaxassis o'qituvchilarning motivatsiyasini mnemonika usullari vositasida shakllantirish texnologiyalarini ishlab chiqish va keng ko'lamda qo'llash bosh omil sifatida qaraladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Канищева Е.М. и др. «Международный английский» в условиях глобализации //Молодежь и XXI век-2020. – 2020. – С. 307-311.

2. “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar Strategiyasi to'g'risida” 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-sonli farmoni.

3. Пермякова С. П. Мнемоника-как техника запоминания английских слов //Инновационные технологии в современном образовании. – 2016. – С. 545-549.

4. Тоджибаева К. С. Формирование мотивационной сферы нравственных качеств учащихся //Проблемы педагогики. – 2017. – №. 4 (27).

5. Ковалева Е. А., Ларионов Э. А., Чернега Ю. О. Использование методов мнемоники в преподавании английского языка // Инновационное развитие науки и образования. – 2018. – С. 162-165.

6. Арсентьева Е.Ф. Фразеология и фразеография в сопоставительном аспекте. – Казань: Казань гос.ун-т, 2006. – 172 с.



## OILADA SOG'LOM MA'NAVİY MUHİTNI BARQARORLASHTIRISHDA "OILA – MAHALLA – TA'LIM MUASSASASI" UZLUKSIZ HAMKORLIGI AHAMIYATI

**D.S.DAVRONOVA,**

O'zDJTU, "Pedagogika va psixologiya" kafedrasini  
dotsenti, p.f.b.f.d. (PhD)

*Mazkur maqolada oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishda "Oila – mahalla – ta'lim muassasasi" hamkorligi ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan. Shuningdek maqolada yangi innovatsiyalar va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda, o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasida, jumladan oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi ilmiy va amaliy jihatdan tadqiqotchi tajriba va kuzatuvlari asosida yoritib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** oila, sog'lom ma'naviy muhit, innovatsiyalar, milliy mafkura, uzluksiz ma'naviy tarbiya, uzbeklik tamoyillari, milliy qadriyat.

*В статье описывается научно-теоретическое сотрудничество "Семья – сообщество – образовательное учреждение" в стабилизации здоровой духовной среды в семье. В статье также подчеркивается важное педагогическое значение стабилизации здоровой духовной среды при внедрении инноваций и предпринимательской деятельности, воспитании подрастающего поколения, в том числе семьи, на основе научно-практического опыта исследований и наблюдений.*

**Ключевые слова:** семья, здоровая духовная среда, инновации, непрерывное духовное образование, национальная идеология.

*The article describes the scientific and theoretical cooperation "Family – community – educational institution" in the stabilization of a healthy spiritual environment in the family. The article also emphasizes the important pedagogical importance of stabilizing a healthy spiritual environment when introducing innovations and entrepreneurship, raising the younger generation, including families, on the basis of scientific and practical experience of research and observation.*

**Key words:** family, national ideology, innovations, continuous spiritual education, national values, principles of membership.

Oila tinch totuv bo'lsa unda yangi g'oyalarni, yangi innovatsiyalar va tadbirkorliklar amalga oshiriladi. SHuni ta'kidlash joizki, oilada sog'lom ma'naviy muhitni barqarorlashtirishga e'tibor milliy mafkuramizni muhofaza etishdek muhim vazifani hal etadi. O'zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-soni "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyanini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to 'g'risida"gi Qarorida "...tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzbeklik tamoyillariga tayangan holda avvalo, onaning homiladorlik davrini to 'g'ri tashkil etish, go'daklar va bolalarmi ma'naviy tarbiyalash bo'yicha asosiy yo'nalishlarni belgilash, aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini, pedagogik



madaniyatini oshirish, fuqarolarni uzlusiz ma’naviy tarbiyaning jahon tajribasida sinovdan o’tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish” [1:] vazifalari e’tirof etib o’tilgan.

Jismonan sog‘lom, ma’naviy etuk va har tomonlama rivojlangan barkamol avlodni tarbiyalashda oila instituti, ota-onalar va fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlarining ta’lim muassasalari bilan o’zaro hamkorligini mustahkamlash maqsadida O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to g‘risida”gi PF-4944-son Farmoni, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldag‘i “Xotin -qizlarni qo’llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to g‘risida” gi 5325-son Farmoni qabul qilingan. Mazkur farmonlarda mahalla va oila instituti hamkorligida ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tizimli va aniq maqsadga yo’naltirgan holda tashkil etish masalalariga alohida urg‘u berib o’tilgan[2;3:].

Yuqorida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash, ta’lim-tarbiya jarayonini o’zarо uyg‘un, uzlusiz asosda tashkil etish, odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatl, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamona viy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, bir so‘z bilan aytganda ma’naviy tarbiyani shakllantirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va boshqa ijtimoiy tuzilmalar o’tasida samarali uzlusiz hamkorlik mexanizmini yo‘lga qo‘yish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Oilaning xususiyatlari o’zbek oilasida o’zini yorqin ifodasini topadi. O’zbek xalqi shaxsiy xislatlardida ifodalangan milliy xususiyatlari oilada milliy va diniy qadriyatlar asosida shakllangan va avloddan-avlodga o’tib ta’lim-tarbiya, odat, marosimlar, qoidalar shaklida mustahkamlangan. Bunday qadriyatlarga, avvalo, o’z yurtining o’tmishiga hurmat, milliy an’analarga sodiqlik va ularni hayotga tatbiq etish kiradi. Haqiqatdan ham dunyoda noyob, o’xshashi yo‘q mahalla tizimida voyaga etmagan bolalarning ijtimoiy ongini shakllantirish uchun butun aholi qatlamlarini keng jalb qilish imkoniyati mavjud. Chunki mazkurtizim o’zining mamlakatmiqyosidagi strukturasiga, administrativ kadrlariga, ish olib borishning o’ziga xos ishlangan yo‘nalishlariga ega.

Bilamizki, har bir fuqaro va oilaning jamiyatda o’z o’rni bo‘ladi. Oilalardan tashkil topgan mahalla esa butun boslli mamlakatning boshlang‘ich bo‘g‘ini, muhim ustuni sanaladi. Mahallada oilalar bilan hamkorlikda mehnat ilg‘orlari, ilm-fan xodimlari, namunali oilalar, mehnat va urush faxriylari bilan uchrashuvlar uyuşhtirib borish, pedagog va psixologlar oilalar bilan hamkorligida turli xil tadbirlar, (“Navro‘z” ayyomi, shanbaliklar,) adabiy kechalar, sport musobaqlari o’tkazish, kinoteatr, televideniya ko’satuvlardidan, radio eshittirishlardidan foydalanish vatanimizni istiqlol va taraqqiyotini mustahkamlashga, kelgusida yosh avlodni har tomonlama etuk bilimli, ongli, tadbirkor, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi[4;].

Eng muhimi oila va mahalla, zamona viy bilim va tafakkurga, sog‘lom



dunyoqarashga ega, fikri teran, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga tayyor bo‘lgan, ko‘zi yonib turadigan navqiron yoshlarni oilasi bag‘rida kamol topib, jamiyat hayotini olg‘a suruvchi yanada yuksak bosqichlarga ko‘tarib ravnaq toptiruvchi kelajak avlodlarni tarbiyalab voyaga etkazuvchi g‘oyat muhim boshlang‘ich guruhdir.

Respublikamizning Buxoro, Navoiy, Samarcand, Jizzax, Namangan, Qo‘qon viloyatlarida o‘tkazgan tajriba va kuzatuvlarimizga tayanib aytishimiz mumkinki, oilani boshlang‘ich va doimiy tarbiya maskani sifatida olib qaraydigan bo‘lsak, ota-onalar bolalarga tarbiyaviy ta’sir etishning usullari, odat va am‘analarini bilishi, dam olish tartibini, bolalarning mehnat va o‘quv mashg‘ulotlarini belgilashi, ota-onva bolalar orasidagi o‘zaro munosabatlarning eng qulay me’yorlarini ishlab chiqish lozim. Chunki bola o‘zini qiziqtirgan masalalar bo‘yicha eng avval o‘z otanasi bilan maslahatlashadi. Bu erda oila a‘zolari orasidagi munosabatlar amalga oshadi hamda ota-onaning tarbiyaviy vazifalari amalga oshiradi.

Oilada sog‘lom ma‘naviy muhitni barqarorlashtirish jarayonida yaxlit pedagogik jarayon sifatida:

- ma‘naviy tarbiyaning tadrijiy rivojlanish va uzlusizlik tamoyillariga asoslanishi;

- bola tarbiyasida milliy va zamонавиy pedagogikaning ilg‘or yutuqlaridan samarali foydalinish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Shu o‘rinda, Hindistonning taniqli siyosat arbobi Maxatma Gandhi “Men uyimning darvoza va eshiklarini mahkam berkitib o‘tira olmayman. CHunki unga toza havo kirib turishi kerak. Va shu barobarida eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo‘lib, xonadonimni ag‘dar-to‘ntar qilib, o‘zimni yiqitib tashlashini ham xohlamayman”[5;] deganida bugungi axborot xurujlari va turli xil ma‘lumotlar haqiqatda, sir emaski, zararli g‘oyalalar turli kinofillmlar, internet tarmog‘i va boshqa yo‘nalishlarda uzlusiz ravishda tijishtirilib, mafkuraviy immunitetimizni susaytirishga, bolalarimizni soxta g‘oyalarning ta’siriga tushib qolishiga mutazam harakat qilinayotganini nazarga tutgan ehtimol.

Kuzatuv va tajribalarimizga tayanib aytish mumkinki, oila-mahalla-ta’lim muassasasi hamkorligida amalga oshiriladigan mazkur indikatorlar o‘zaro uyg‘un, uzlusiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma‘naviyatlari, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamонавиy kasb-hunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni etishtirib berishga xizmat qiladi.

Oilada sog‘lom ma‘naviy muhitni barqarorlashtirishda oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Oilada boshlangan ta’lim va tarbiya ta’lim muassasalarida, mahallada davom etadi. Ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan maqsadli va uzlusiz ta’lim-tarbiya jarayoni orqali bolaning bilish jarayonlari rivojlanadi, bola shaxsi shakllanadi.



Yuqorida qayd etilgan mas’uliyatli ishlar bir-biriga o‘zaro bog‘liq bo‘lgan uch omil, ya’ni oila - mahalla - ta’lim muassasasi hamkorligi asosida tizimli ravishda amalgal oshirib kelinmoqda. Ushbu hamkorlikning samarali yo‘lga qo‘yilishi bolalar orasida turli salbiy odatlar, huquqbuzarlik va jinoyatlar sodir etilishining, shuningdek, giyohvandlik, dimiy ekstremizm, “ommaviy madaniyat” va shunga o‘xshash illatlarning oldini olishda, ularni sportga jalb etish, bo‘s sh vaqtlarini mazmunli o’tkazishda qo‘l kelmoqda. Asosiysi, bu hamkorlik doirasida oilalarni mustahkamlash, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish orqali jamiyatda sog‘lom turmush tarzini qaror toptirishga erishilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, oilada sog‘lom ma’naviy muhitni barqarorlashtirish masalasi bilan bog‘liq barcha masalalarda mahalla faollarining oilalar va ta’lim muassasalari bilan uzbekiy hamkorlikda tizimli ish olib borishi muhim ahamiyatga ega. Tarbiya talablarining bajarilishida yoshlar ta’lim-tarbiyasiga mas’ul bo‘lgan davlat va nodavlat tashkilotlari, ta’lim muassasalari, mahalla va oilaning teng barobar ishtiropi, yoshlarda burch va mas’uliyatni anglash, o‘z harakatlarini to‘g‘ri baholash, o‘zini nazorat qilish kabi sifatlarini shakllantirishga, hamkorlik faoliyatimizning samarali, sermahsul bo‘lishiga xizmat qiladi.

### **Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr 1059-sloni “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori. [www//lex.Uz](http://www.lex.Uz).

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahalla institutini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4944–son Farmoni/. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 3 fevral.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagи “Xotin - qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5325–son Farmoni [www//lex.Uz](http://www.lex.Uz).

4. Alimova G, Kamolov J, Abdullaeva SH. Oila-mahalla –ta’lim muassasasi hamkorligi. Mahalla kutubxonasi. O‘zbekiston “Mahalla” xayriya jamoat fondi. T.:2015, -7 b.

5.Begmatov A.Globallashuv, milliy ma’naviyat va axborot tizimlari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi joriy arxivi, 2006. – 54 b.



## BO'LAJAK MUTAXASSISLARNI PROFESSIONAL-KOMMUNIKATIV FAOLIYATGA TAYYORLASHDA "GOOGLE SCHOLAR", "SCOPUS", "SCIENCECIRECT" XALQARO ILMIY MA'LUMOTLAR BAZASIDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI

**X.I.IBRAIMOV,**  
p.f.d., professor, O'zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrasи,  
**O.I.YADGAROVA,**  
Samarqand davlat chet tillar instituti 2-kurs doktoranti

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi oliy ta'im tizmida mayjud muammolar tahlil qilinadi, bo'lajak mutaxassislarni professional-kommunikativ faoliyatga tayyorlash muammosi, bunda "Google scholar", "Scopus", "Sciencedirect" xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazasidan foydalanish imkoniyatlari ochib beriladi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim, bo'lajak mutaxassilar, professional-kommunikativ faoliyat, "Google scholar", "Scopus", "Sciencedirect" xalqaro ma'lumotlar bazasi.

В статье анализируются существующие проблемы в системе высшего образования Республики Узбекистан, проблема подготовки будущих специалистов к профессиональной и коммуникативной деятельности, раскрывается возможность использования международных научных базы данных как «Google Scholar», «Scopus», «Sciencedirect».

**Ключевые слова:** высшее образование, специалисты, профессионально-коммуникативная деятельность, «Google Scholar», «Scopus», «Sciencedirect».

The article analyzes the existing problems in the higher education system of the Republic of Uzbekistan, the problem of preparing future specialists for professional and communicative activities, reveals the possibility of using the international scientific database Google scholar, Scopus, Sciencedirect.

**Key words:** higher education, future specialists, professional and communication activities, Google Scholar, Scopus, Sciencedirect.

O'zbekiston Respyblikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlaridanoq mamlakatimiz uchun eng katta muammo, by – bugungi zamон talablariga mos kadrlar yetishmasligini, barcha sohada innovasion va kreativ fikrlaydigan, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislarga ehtiyoj juda yuqori ekanini ta'kidlab keladi. Davlatimiz rahbari 2020 yil 30 sentabrda o'qituvchilar va murabbiular kuni mynosabati bilan o'tkazilgan tadbirda so'zlagan nutqida kadrlar masalasiga to'xtalar ekan "Bugun biz yashayotgan jamiyatga yangi fikr, yangi g'oya, eng myhimi, islohotlarni amalga oshirishga qodir bo'lgan yangi avlod kadrlari kerak. Har kuni seni nima qiynaydi, deb so'rashsa, hech ikkilamasdan kadrlar qiyaydi, kadrlar zaxirasi qiynaydi, deb javob beraman" deya ta'kidlaydi.



Ushby vazifalarni xal etish maqsadida 2019 yil 8 oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi imzolandi. Konsepsiyada:

1. Oliy ta'lim muassasalarini ilmiy jurnallarining Scopus, Sciencedirect va boshqa xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazalariga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash;

2. Talabalar, o'qituvchilar va yosh tadqiqotchilarining elektron ta'lim resurslari, zamonaviy ilmiy adabiyotlarning elektron kataloglari va ma'lumotlar bazalaridan bepul foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish vazifalarini muvaffaqiyatl hal etish bo'yicha tegishli tashkilotlarga topshiriqlar berildi [1].

"Kommunikatsiya" so'zi lotinch "communico" so'zidan olingan bo'lib, "umumiyl qilayapman, bog'layapman, muomala qilayapman" degan ma'nolarni anglatadi. "Kommunikatsiya" so'zi bilan o'zakdosh bo'lgan "kommunikabellik" – "muomala qilishga layoqati bor" ma'nosida, "kommunikabel" – "kirishimli, dilkash" ma'nosini bildiradi [2].

Xozirgi globallashgan zamonaviy jamiyatda inson muloqotini internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Chunki har bir mutaxassis yoki talaba albatta virtual muloqot turi bilan ham mashg'ul bo'ladiki, bu virtual muloqotning "kommunikativ", "interaktiv" va "perseptiv" tomonlarida o'ziga xoslikning namoyon bo'lishiga olib keladi. Tadqiqotchi A.A.Bodalyovning izohlashicha, "muloqotning kommunikativ tomoni insonlar orasida ma'lumotlar bilan o'rtoqlashishdan, muloqotning interfaol tomoni individlar orasida o'zaro hamkorlikni tashkillashdan, ya'ni nafaqat bilim va g'oyalar, shu bilan birga xatti-harakatlar bilan axborot almashinishdan..., muloqotning perseptiv tomoni bir-birlarini qabul qilish jarayonini muloqotdagi sherik deb qabul qilishi va shuning zaminida hamjihatlik munosabatidan iborat [3].

Bo'lajak mutaxassis xalqaro ma'lumotlar bazasidan foydalanish jarayonida yangi axborotlar bilan tanishadi (muloqotning kommunikativ tomoni), o'z yo'nalishi va mavzusiga mos boshqa yo'nalishlarda ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilar orasida akademik hamkorlik yuzaga keladi, ularning izlanishlaridan ilmiy gipotezalarini tekshirishda foydalanadi (muloqotning interaktiv tomoni), hamda ular faoliyatini bevosita idrok etib o'z-o'ziga va boshqalar mehnatga baho berish (muloqotning perseptiv tomoni) ko'nikmalarini shakllantiradi.

O'zbekistonda eng ko'p foydalaniladigan ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga "Google Scholar", "Scopus", "Sciencedirect" ma'lumotlar bazalarini misol qilib keltirish mumkin.



Google scholar o‘zining «keltirilgan» funksiyasi orqali maqola keltirilgan maqolalarning tezislariga kirishni ta’minlaydi. Aynan shy funksiya, ilgari faqat Scopus va Internetda mavjud bo‘lgan ma’lumotlarning indekslarini taqdim etadi. Google scholar o‘zining «Tegishli maqolalar» xysysiyati orqali bir-biriga chambarchas bog‘liq maqolalar ro‘yxatini taqdim etadi.

Ushbu xizmat turidan foydalanishdan avval ro‘yxatdan o‘tish va talabaning o‘z shaxsiy profilini ochish tavsiya qilinadi (1-rasm). Google scholar tizimiga kirganidan so‘ng talabada quyidagi imkoniyatlar paydo bo‘лади: – iqtiboslar sonini ko‘rish; – o‘xhash maqolalarni izlash; – maqolaning barcha ko‘rinishlarini izlash; – maqolani kutubxonada saqlash; – maqolaga iqtibos olish (turli formatlarda).

“Elsevier” kompaniyasi “Ilm-fan – 2020” milliy rivojlanish Dasturida mamlakatimiz ilmiy markazlari va oliv ta’lim muassasalari, shuningdek, olimlarning dunyo ilmiy reytingidagi o‘rnini ko‘tarish, respyblika ilmiy jurnallarini Scopus va Sciencedirect xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi tizimiga kiritish, yosh olim va doktorantlarga ilmiy maqolalar tayyorlash va ularni yuqori impakt-faktorga ega bo‘lgan ilmiy nashrlarda chop etishlariga ko‘maklashish ko‘zda tutilgan.

“Sciencedirect” to‘liq matnli ma’lumotlar bazasi Elsevierning yetakchi ma’lumotlar platformasi hisoblanib, olimlar, o‘qituvchilar, talabalar va izlanuvchilar uchun tibbiyot va sanoat sohasidagi jamiyyki ma’lumotlarning 25 % ini o‘zida jamlagan. “Sciencedirect” multiditsiplinar platformasi bo‘lajak mutaxassisiga ilm-fanning barcha sohalari bo‘yicha adapiyotlarni qamrab olish imkonini beradi va Elsevierning 25000 ortiq jurnallaridagi 14 millionga yaqin nashrlar, 37000 ga yaqin kitob va qo‘llanmalari, shuningdek boshqa nufuzli nashriyotlarning nashrlari bilan tanishish imkoniyatini yaratadi. Sciencedirectda qidiruv (ПОИСК) ning zamонавији усullari joriy qilingan va bu platformdan foydalanish juda qulay.

Scopus – dynyoning eng nufuzli ilmiy-tahlil reyting platformasi bo‘lib, u ilmiy maqolalar mualliflari, olimlar reytingi, jurnallar, tashkilotlar, mamlakatlar reytinglarini tuzish imkonini beradi. Scopusda indeksatsiya qilish butun dunyo bo‘ylab jurnallar uchun katta yutuq hisoblanadi va bu jihat ilmiy jamiyatning boshqa a’zolari uchun jurnalning sifatini tasdiqlab beradi. Scopus 5 mingga yaqin nashriyotlarning 24000 ortiq ilmiy jurnallarini indekslaydi. Scopusni egasi va ta’sis etuvchisi Elsevier nashriyot korporasiyasi hisoblanadi.

Scopus tarkibi: - 24,000 dan ortiq jurnallar; - 280 nomdaggi savdo nashrlari; - 562 kitoblar seriyasi (chop etish davom etayotgan nashrlar); - 8 milliondan ortiq konferensiya materiallari; - 60 milliondan ortiq qaydlar mavjud.



## Funksional imkoniyatlari:

- ilmiy soha va ko‘rib chiqilayotgan adabiyotlarni izlash va tahlil qilish (alohida maqola tahliliga qadar);
- barcha mumkin bo‘lgan qidiruv manbalari (ilmiy jurnallarda, patentlarda, ilmiy saytlarda) va jurnallar, mualliflar va hamkorlar, tashkilotlar, yillar, nashrlarning turlari va boshqalar;
- alohida muallif, tashkilot faoliyatini tahlil qilish (samaradorlik, taklif va h. k.);
- jurnallarni bir nechta ko‘rsatkichlar bo‘yicha qidirish, tahlil qilish va taqqoslash (3-rasm);
- istalgan mualliflar haqida to‘liq ma’lumotlarni olish (muallifning ismi, ish joyi, nashrlar mavzusi, takliflar va boshqalar).

The screenshot shows a search interface for Scopus. The search term 'Uchunayliy Citescience' is entered in the search bar. Below the search bar, there are filters for 'Публикации' (Publications) and 'Сбросить фильтры' (Reset filters). The results section displays 41,462 entries. Each entry includes a checkbox, the title 'Название источника', the Scopus ID 'СледScore', the number of citations 'Индекс цитируемости', and the percentage of cited documents '% цитировано'. The results are sorted by citation count.

Название источника	СледScore	Индекс цитируемости	% цитировано
Ca-A Cancer journal for Clinicians	435.4	99% (2/2)	94
MMWR Recommendations and Reports	152.3	99% (2/2) Health (social science)	87

3-rasm: Scopus xalqaro ma’lumotlar bazasida jurnallarni bir nechta ko‘rsatkichlar bo‘yicha qidirish oynasi

Yuqorida keltirilgan xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasida foydalanish bo‘lajak mutaxassislarining professional-kommunikativ malakalarining rivojlanishiga sabab bo‘ladi. Tadqiqotchilik ko‘nikmalari va sifatli ma’lumotlar bilan ishlash ko‘nikmalari shakllanganadi.

Bo‘lajak mutaxassislarda professional-kommunikativ malakalarining shakllanganlik me’zonlarini quyidagicha belgilash mumkin:

1. Kasbiy o‘z-o‘zini rivojlantirishga ongli munosabat;



2. O‘z burchini anglash, o‘z-o‘zini namoyon etish, kasbiy takomillashishga tayyorlik;

3. Yangiliklar va innovatsiyalarga yuqori darajadagi tolerantlik;

4. O‘z xulq-atvorini boshqarishga qobiliyatlichkeit;

5. Kasbiy faoliyatga qadriyatli munosabatning tarkib topganligi;

6. Yuqori darajadagi kommunikabellik;

7. O‘zgalar bilan muloqot qilish va fikr almashishga yuqori darajadagi tayyorlik;

8. Maqsadga yo‘naltirilgan faoliyatni amalga oshirishga tayyorlik;

9. O‘z-o‘zini, o‘z shaxsimi rivojlantirib borishga qaratilgan ongli fe'l-atvorga egalik;

10. Faoliyatning ijodiy tavsifga egaligi;

11. O‘z-o‘zini rivojlantirish bo‘yicha natijaviylikka erishish.

Xulosa sifatida, bo‘lajak mutaxassislarning professional-kommunikativ malakalarini rivojlantirish borasida quyidagi **takliflarni** bildirish o‘rinli:

1. Bo‘lajak mutaxassislarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko‘nikmalari shakllantirish jarayonida xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi imkoniyatlaridan foydalanish;

2. Kurs ishi, bitiruv malakaviy ishi, fanlar bo‘yicha mustaqil ishlar, uyga vazifalar topshiriqlarini shakllantirishda produktiv ta’lim metodlari va xalqaro ilmiy ma’lumotlar bazasi imkoniyatlaridan foydalanishga qaratilgan vazifalar va keyslar bankini shakllantirish;

3. Amaldagi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlarini mazmyn jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko‘nikmalarni, professional-kommunikativ sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirish;

3. Ixtisoslik fanlari va umumkasbiy fanlari mazmunini zamонавиy kommunikatsion texnologiyaga oid bilimlar va ko‘nikmalar bilan boyitish;

4. Oliy ta’lim muassasalarida olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar sifatini oshirish, ularni statistik, texnik va boshqa ma’lumotlar bilan ta’minlash mexanizmlarini yaratish, bu borada tegishli me’yoriy huquqiy hujjatlarni qabul qilish.

### Foydalanilgan adabiyo'tar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi <https://lex.uz/docs/4545884>

2. Бегимқұлов Ү.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаштиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. //Пед. фан. док. дисс. – Т., 2007.- 305 б.

3. Бодалёв А.А. Личность и общение. М.:1995 г. 328 с. – ISBN 5 - 87977 – 027 – 3.



## MA'NAVİY-AXLOQİY QADRIYATLAR VA YOSHLAR DUNYOQARASHINI TARBIYALASHDA OILANING ROLI

**S.B.SHARIPOVA,**  
**O'DJTU "Pedagogika va psixologiya"**  
**kafedrasi dotsenti p.f.f.d. (PhD)**

*Mazkur maqolada bugungi globallashuv va tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan murakkab va shiddatli davrda mamlakatimiz yoshlari ma'naviyatini turli tahdidlardan asrash, ularning xalqaro maydonda sodir bo'layotgan jarayonlarning tub mohiyatini anglab etishi, ushbu vogeliklar yuzasidan xolis va mustaqil fikrga ega bo'lishi, to'g'ri va maqbul xulosa chiqara olish salohiyatini shakllantirish hamda rivojlantirish masalalari ilmiy nazarli jihatdan atroflicha yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** jamiyat, oila, yoshlar, globallashuv davri, ijtimoiy talab, ma'naviyat, tarbiya, mahalla, ma'naviy sog'lom, ma'rifiy etuk.

*Данная статья посвящена защите духовности молодежи страны от различных угроз в условиях современной, сложной и стремительно меняющейся глобализации, формированию у них понимания сущности процессов, происходящих на международной арене, их способности объективно и самостоятельно делать выводы.*

**Ключевые слова:** общество, семья, молодежь, эпоха глобализации, социальная вос требованность, духовность, воспитание, духовное здоровье.

*The article is devoted to the protection of the spirituality of the country's youth from various threats in the conditions of modern, complex and rapidly changing globalization, the formation of their understanding of the essence of the processes taking place in the international arena, their ability to objectively and independently draw conclusions.*

**Key words:** society, family, youth, the era of globalization, social relevance, spirituality, upbringing, neighborhood, spiritual health, enlightened maturity.

Jamiyatimiz taraqqiyoti ma'naviy va jismoniy sog'lom avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosatiga ko'tarilgan bir paytda hayotning o'zi har bir fuqarodan, ayniqsa yoshlardan ma'naviy sog'lomlik va ma'rifiy etuklikni talab qilmoqda. Darhaqiqat, globallashuv davri ijtimoiy talablari nuqtai nazaridan qaraganda jamiyatimizni ayniqsa, yoshlarni yana bir bor sezgir, ogoh va hushyor bo'lishga chorlabgina qolmay, ularni ma'nan sog'lom, teran fikrlovchi, etuk ilmiy salohiyatga ega insonlar sifatida kamol topishida mazkur "uzviyilik" muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Albatta, oilada yoshlarning ma'naviy tarbiyasida o'sib kelayotgan yosh avlod qalbi va ongi, sog'lom tafakkuri uchun kurashmoqlik bugungi ijtimoiy hayotimizning asosiga aylanmoqda. Bu borada jamiyatimizda keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlari Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi «Mahalla va Oila» ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish



to‘g‘risida Qarorida “mahallalar va oilalarda sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlash, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni, shu jumladan oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash” masalalariga jiddiy e’tibor qaratilib milliy qadriyatlarmiz asosida yoshlarni tarbiyalash tizimi shakllantirildi[1;].

Shuning bilan bir qatorda yoshlar tarbiyasida jamiyatning har bir a’zosi o‘z mas’uliyatini oshirishga zaruriyat ham bor. Chunki, yoshlarning qalbi, ongi, tafakkuri sog‘lom g‘oyalar asosida shakllanishi uchun har bir shaxs mas’uldir. Bugungi akseleratsiya jarayoni, globallashuv davri yoshlarning bo‘sh vaqtlarini qanday o‘tkazayotganligi har bir ota-onha, mahalla ahli, o‘qituvchi-pedagogining e’tiborida bo‘lishi zarurligini ko‘rsatmoqda. Buning uchun, ayniqsa oila, mактабгача та’лим, умуми та’лим, о‘та maxsus kasb-hunar va oliv та’лим muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini “Hamkorlik strategiyasi” tamoyillari asosida tashkil etish maqsadga muvofiq. Aksariyat yoshlarning tarbiyasi oiladan, qolaversa, u tug‘ilib o‘sgan mahalladan boshlanadi. Shunday ekan, mazkur masalalarga nihoyatda jiddiy va e’tibor bilan yondashishni bugungi adolatli siyosat barchadan talab qilayotganligi tabiiy.

Tabiiy va haqli savol tug‘iladi: yoshlar muammolari bilan butun bir tizim shug‘ullanmoqda, lekin ba’zan ularning yovuz niyatlilar tuzog‘iga tushib qolayotganligiga sabab nima?

Ma’lumki, shaxsning ma’naviy olamini shakllantirishda uning dunyoqarashi markaziy o‘rinni egallaydi.U o‘z tarkibida: 1) tevarak olamni anglash (nazariy dunyoqarash); 2) olamni idrok etish (yoki his etish); 3) borliqqa bo‘lgan munosabatni ifodalovchi me’yoriy ko‘rsatmalar majmui sifatida atrof – olamga munosabat, hayot ma’nosini tushunishi kabilarni qamrab oladi[2;].

Ilk ma’naviy maskan oila hisoblanadigan bo‘lsa, tarbiya komponentlarini to‘g‘ri va oqilona tashkil etish ota-onha va oiladagi yoshi katta insonlardan mas’uliyat talab etadi. Shu ma’noda, oiladan boshlaboq, ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni asosida yoshlar dunyoqarashini tarbiyalash quyidagi aspektlar asosida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq. Mazkur aspektlar o‘z ichiga barcha tarbiya komponentlari: ekologik, aqliy, axloqiy, jismoniy,.... iqtisodiy qamrab oladi[3;].

Hozirgi zamon kishisining olamni tushunishi ko‘pincha ham ekologik, ham ijtimoiy-ekologik jihatdan barcha masalalar majmuuni anglash darajasiga qarab belgilanadi. Tabiat va jamiat o‘zaro munosabatlarining murakkab mexanizmi va qonunlarini bilish, tabiat, jamiat, texnika va texnologiyalarning o‘zaro aloqadorligini aniqlash nafaqat ma’lum dialektik tamoyillarga tayanadi, balki umum dunyoqarash uchun boy material ham beradi.

Tabiatga bo‘lgan estetik munosabat shaxsning bilish ehtiyojlarining rivojlanishi bilan tabiat hodisalari va qonunlarini ilmiy bilishning chuqurlashuviga bilan bevosita aloqada bo‘ladi. Bu ayniqsa, biosfera haqidagi hozirgi zamon ta’limiga tegishlidir. Shunday qilib, ekologik bilim nafaqat olamni tushunish bilan yaqin



dialektik o‘zaro aloqada, balki olamga munosabat va olamni idrok etish bilan ham, ya’ni shaxs dunyoqarashi tizimining barcha elementlari bilan «uning barcha ma’naviy olami bilan» ham o‘zaro aloqadadir.

Barcha tarbiya komponentlari o‘zaro bog‘liq va uzviyilikda amalga oshirilishi nuqtai nazaridan qaraganda oiladan estetik madaniyat, dunyoqarashni shakllantirish umummadaniy dunyoqarashni to‘ldirib, barkamol shaxs shakllanishida asosiy rol o‘ynaydi. Estetik madaniyat ma’naviy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida faqat san’atdagina emas, balki hayotning har qanday ko‘rinishi: mehnatda, turmushda, inson xulqida go‘zallikni xunuklikdan, yaxshilikni yomonlikdan ajratma olishi ko‘nikmasining paydo bo‘lganligiga aytildi. Estetik madaniyat go‘zallik hissini uyg‘otib, uni rivojlantiradi. Estetik madaniyatda esa inson go‘zallikni tez ilg‘ab oladi, o‘z hayotini go‘zallik qonuniyatlari asosida quradi. Estetik madaniyat axloqiy, aqliy, mehnat, jismoniy madaniyat bilan bog‘liq. Insonda estetik madaniyatni faqat san’at asarlarigina emas, balki uning yaxshi ishlari, o‘z atroflaridagilarga xushmuomalaligi, vijdanan mehnat qilishi ham kiradi. Lekin yuqori madaniyatilik ham go‘zallik tuyg‘usini rivojlantirmasdan turib amalga oshmaydi[4;].

Jismoniy madaniyatning juda ko‘p go‘zallik elementlari go‘zallik manbai sifatida muhim ahamiyatga ega: inson gavdasining rivojlanishida uyg‘unlik, yaxshi qaddi-qomat, yurish – turishi, nozik va harakatchanlik inson hayoti va xulqini, hatto uning fikrini ham bezab turadi. Texnika va texnologiyalarning rivojlanib borishi inson madaniyatiga, jumladan, inson mehnatining go‘zalligi, hozirgi sharoitda aqliy va emotsiyonal madaniyat bilan, insonning yaxlit shaxs sifatida kamol topishi bilan estetik xarakteriga ham ta’sir etmoqda.

Mehnat madaniyatni har qanday ishga ham yuksak mahorat bilan munosabatda bo‘lishni nazarda tutadi. Estetik madaniyatni shakllantirishda xulq - atvor va turmush estetikasi ham katta ahamiyatga ega. Bu borada bolalarlar ichki va tashqi madaniyat haqida tasavvurga ega bo‘lishi zarur. Ichki madaniyatga – insonning aqliy va axloqiy rivojlanganligi, dunyoqarashi va hayotiy qiziqishlarining kengligi, shuningdek, murakkab masalalarni mustaqil hal eta olish, konkret hayotiy vaziyatlarda to‘g‘ri yo‘l topa olish, axloqiy poklik, vijdanan harakat qilish, o‘zgalarni hurmatimi saqlash, o‘z sha’ni va xulqini idora qila olish, o‘z qadr – qimmatini saqlash kabilari kiradi. Tashqi madaniyat esa jamiyatda qabul qilingan axloq qoidalari, odob normalariiga rioya etishdan iborat bo‘lib, bular xushmuomalalik, kishilar bilan muomala qila olish, turmushda poklik, o‘z tashqi qiyofasiga e’tibor berish kabilarni o‘z ichiga oladi.

Aytish o‘rinlikli, o‘zida ichki va tashqi madaniyatni uyg‘unlashtira olgan kishigina haqiqiy madaniyatli bo‘ladi. Oila tarbiyasidan bolalar umummadaniy dunyoqarashini shakllantirishni rejalashtirishda uning eng muhim yo‘nalishlari hisobga olish maqsadga muvofiq.

Alohida e’tirof etib ztish lozimki, aksariyat ota onalarimizga pedagogik bilim



etishmaydi. Shu nuqtai nazaridan albatta, bu yo'nalishlar bo'yicha tarbiyaviy ishlarni tashkil etishda "oila, mahalla va ta'lim muassasalari" hamkorligini keng yo'lga qo'yish, ota onalar uchun maxsus seminar treninglar, o'quv kurslari tashkil etish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Bu borada eng muhim qadriyat hayotsevarlik bo'lib, bolalar o'rtasida o'z joniga va boshqalar hayotiga suiqasd qilish katta gunoh ekanligini tushunib etishlariga erishish muhim.

Umummadaniyatning ikkinchi tarkibiy qismi – insoniylar qadriyat bo'lib, bu erkdir. Shuningdek, hozirgi davrda axloqiy madaniyat vatanparvarlik, baynalmilallik, or-normus, burch, vijdon, tartiblilik, samimiylik,adolatlilik va boshqa fazilatlar sifatida yanada yuksak ahamiyat kasb etmoqda. Hozirgi davrda axloqiy madaniyat bolalarlarning jinsiy tarbiya, mehnatga munosabatida ham dolzarb bo'lib turibdi. Tekinxo'rlik,narkomaniya, alkogolizm, fohishalik, johillik, zolimlik bilan har kuni, har soatda to'qnash kelish mumkin. Bular axloqiy madaniyatning pastligidan dalolat beradi[5;]

Alohida e'tirof etib o'tish lozimki, oilada axloqiy madaniyatga doir tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish anche murakkab bo'lib, buni har bir bolaning individual xususiyati, hayotiy fazilatlarini hisobga olgan holda tashkil etish ijobjiy natijalarberishi mumkin. Axloqiy madaniyatga doir tarbiyaviy ishlarga inson ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismiga doir ishlarni kiritish talab etiladi.Ma'naviyatga doir tasavvurlar asosida e'tiqod muhim sanalib, ma'naviy xulq – odob hayotiy faoliyatga aylansagina axloqiy madaniyat shakllanadi.

Xulosa qilib aytganda, globallashuv davri ijtimoiy muhit talablaridan kelib chiqib oila va mahallalarda yoshlarning ma'naviy tarbiyasi va madaniyatni shakllantirish, o'sib borayotgan yosh avlodni jamiyatda mustaqil yashashga tayyorlash vazifasining dolzarbligi, jamiyat rivoji uchun yangi fuqarolar zahirasini tarbiyalab voyaga etkazish masalasining ustuvorligini ko'rsatmoqda.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi "Mahalla va Oila" ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi Qarori, Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2020 y., 09/20/367/0741).
2. Tulenov J. Qadriyatlar falsafasi. – T.: O'zbekiston, 1998. – 72 b.
3. Musurmanova O. Farzandlarimiga nasihatlar. Toshkent. Yoshlar nashriyot uyi, 2020, -186 bet.
4. Quronov M. Maktab ma'naviyati va milliy tarbiya. – T.: FAN, 1995. – 118 b.
5. Sharipova S.B. Bo'lajak chet tili o'qituvchilarida umummadaniy dunyoqarashni shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish / P.f.b.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya, Samarqand 2019.



## XALQ MUSIQIY PEDAGOGIKASI TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI (QORAQALPOQ XALQ MUSIQASI ASOSIDA)

**Ы.Ж.МОЯНОВ,**

*O'zbekiston Davlat san'at va madaniyat instituti  
Nukus filiali "Xalq ijodiyoti" kafedrasи dotsenti v.b., p.f.b.f.d. (PhD)*

*Maqolada xalq musiqiy pedagogikasi tushunchasining mazmun va mohiyati  
(qoraqalpoq xalq musiqasi asosida) ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** xalq musiqiy pedagogikasi, musiqa san'ati, musiqiy qobiliyati, milliy baxshichilik, dostonchilik, ma'naviy-ma'rifiy talab.

*В статье раскрыто содержание и сущность концепции народной музыкальной педагогики (на основе каракалпакской народной музыки) с научно-теоретической точки зрения.*

**Ключевые слова:** народная музыкальная педагогика, музыкальное искусство, народное благородство, эпическая поэзия, способности.

*The article reveals the content and essence of the concept of folk music pedagogy (based on Karakalpak folk music) from a scientific and theoretical point of view.*

**Key words:** folk music pedagogy, musical art, musical ability, folk nobility, epic poetry, spiritual and educational needs.

Jahonda har bir mamlakat musiqa san'atining shaxsiy, milliy, umumbashariy badiiy qiymatlarining birligidan iborat ma'lum xalq, jamiyat, tarixiy davrlarga xos ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob beradigan qobiliyatlari va ijodkor insonlarni jamiyat taraqqiyotiga tayyorlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan. YUNESKO tomonidan maqom san'atining gultoji bo'lgan "Shashmaqom" insoniyatning nomoddiy madaniy merosi sifatida e'tirof etilgani o'quvchilarning musiqiy qobiliyatini ro'yobga chiqarish uchun muhim ahamiyat kasb etib, yuz berayotgan globallashuv va texnogen sivilizatsiya sharoitiда o'quvchi-yoshlarning estetik madaniyatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda har bir xududning san'ati va musiqa madaniyati, urf-odatlari, marosimlari, badiiy an'analarini targ'ib qilish, xalq musiqasi mazmun mohiyatini yoshlar ongiga singdirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 noyabrdagi "Xalqaro baxshichilik san'ati festivalini o'tkazish to 'g'risida"gi Qarorida "O'zbek milliy baxshichilik va dostonchilik san'atining noyob namunalarini asrab-avaylash va rivojlantirish, uni keng targ'ib qilish, yosh avlod qalbida ushbu san'at turiga hurmat va e'tibor tuyg'ularini kuchaytirish, turli xalqlar o'rtasidagi do'stlik va birodarlik rishtalarini mustahkamlash, ijodiy hamkorlik, madaniy-ma'naviy munosabatlar doirasini xalqaro



miqyosda yanada kengaytirish”[1] vazifalari belgilandi.

O‘quvchi-yoshlar xalq musiqiy pedagogikasi mazmun mohiyatini teran anglashga erishishlari masalalari hukumatimizning yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim - tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish borasida olib borayotgan qo‘yidagi ustuvor yo‘nalishlarida o‘z aksini topganligi ayni haqiqatdir:

- yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalash bo‘yicha normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, kamol topayotgan avlodning manfaatlарини himoya qilish ularни olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirish yuzasidan olib borilayotgan chora-tadbirlarni keng yoritish;

- o‘quvchi - yoshlarga qoraqalpoq xalqining urf –odatlari, ustozdan – shogirdga o‘tib kelayotgan jirov baxshi qo‘shiqlari va dostonlari orqali ta’lim berish, ularni tarbiyalash va kamolga etkazish sifatini oshirish;

- ta’lim muassasalarida sog‘lom ma’naviy-axloqiy muhitni shakllantirish, o‘quvchi-yoshlarni tarbiyalash uchun munosib shart-sharoitlar yaratish;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlik, diniy bag‘ri kenglik va millatlararo totuvlikni mustahkamlash;

Bunday imkoniyatlarning yaratilishi, birinchidan, o‘quvchilarda xalq musiqa san’atiga muhabbat uyg‘otib, kuy-qo‘shiqqa, cholg‘uchilik, ijrochilik kabi bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, musiqa san’ati asosida o‘quvchi shaxsining ma’naviy, axloqiy madaniyatini, milliy g‘urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshiradi. Ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o‘stiradi, fikrlesh darajasini kengaytiradi. Uchinchidan, musiqa san’ati navqiron avlodimizni yuksak ma’naviyat ruhida kamol topishiga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. SHuni alohida ta’kidlash kerakki, mustaqillikning bиринчи yillardanoq mamlakatimizda Qoraqalpoq xalq musiqa san’atini keng rivojlantirishga alohida ahamiyat berildi. Ayniqsa, mumtoz musiqiy merosimizni asrab-avaylash va o‘rganish, uni yosh avlodlarga bezavol etkazishga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi.

Aytish mumkinki, Qoraqalpoq xalqi tarixida shakllangan va rivojlangan musiqa san’ati bugungi kunda sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarildi. Milliy musiqa san’ati yutuqlarini o‘rganish bo‘yicha katta imkoniyatlar ochildi. Bu soha rivojiga ko‘rsatilayotgan doimiy e’tibor natijasida yosh iste’dodlarning o‘zini namoyon etish uchun qulay shart-sharoitlar yaratildi. Shunday bo‘lsada, Qoraqalpoq xalq musiqasi asosida o‘quvchi yoshlarning ma’naviy axloqiy ma’naviyatini shakllantirish dolzarb muammolardan biriga aylanganligi sir emas. Aslida, qaraqalpoq musiqa san’ati, jumladan, xalq qo‘shiqlari millatning ma’naviy-musiqiy boyligi hisoblanishi bilan birga, uning mazmunida milliy urf-odat va an’alar, milliy mentalitet o‘z ifodasini topgan. Qaraqalpoq xalq musiqasi o‘zinig jozibadorligi, sokinligi bilan muhim didaktik vosita sanalanadi. Shuning uchun ham umumiyo‘rtta ta’lim maktablarida “Musiqa madaniyati” o‘quv fani jarayonida



Qaraqalpoq xalq musiqasi asosida o‘quvchi yoshlarning ma’naviy - axloqiy ma’naviyatini shakllantrish o‘quvchilarning san’at asarlarini his etish, ulardan ma’naviy zavq olish, go‘zallikka intilish kabi xislatlarining shakllanishida alohida ahamiyatga ega[2].

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, Sharq mutafakkirlari va Qoraqalpoq milliy musiqa san’ati namoyondalari merosi asosida xalq musiqiy pedagogikasi mazmun mohiyatini o‘rganish, xalq qo‘shiqlari, jirov baxshichilik qo‘shiqlarining tarbiyaviy ta’sirini o‘quvchi yoshlar ongiga singdirish orqali, eng yaxshi an’analalarimiz va urf-odatlarimiz orqali o‘sib kelayotgan yosh avlodni Vatanga va xalqqa muhabbat, sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lish ruhiда tarbiyalashga erishamiz[3].

Haqiqatda, Qoraqalpoq xalqining avloddan-avlodga o‘tib qon-qoniga singib ketgan san’at turi baxshichilik va jirov baxshichilik xalq ohanglari, nola qochirimlari va boshqa milliy bezaklarini tinglagan odam unga befarq bo‘la olmay bevosita unga ergashib, qo‘shilishib kuylab, ya’ni musiqa uni o‘zining sehrli olamiga etaklab ketayotganligi qalban his qildi. Bu esa, xalq qo‘shiqlari faqat estetik joziba olami bo‘libgina qolmay o‘ziga xos katta bir ta’lim-tarbiya quroli ekanligigni bildiradi. Chunki inson his-hayajoning zamirida ma’naviy-axloqiy tushunchalar, hislar, xulosalar ham yotadi.

Xalq qo‘shiqlari o‘quvchi yoshlarda eng yaxshi insoniy fazilatlar: vatanparvarlik, mehnatga muhabbat, odamlarga ishonch, do‘stlarga sadoqat tuyg‘ulari va uning o‘z-o‘ziga nisbatan talabchanligini shakllantiradi. Xalq qo‘shiqlari o‘quvchilar uchun ilk tarbiya darsligi, ma’naviy-axloqiy boyliklarning bitmas-tuganmas xazinasidir.

Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qoraqalpoq xalqida eng kuchli va tez rivojlanayotgan “xalq og‘zaki ijodi” otadan-bolaga milliy meroслar, qadriyatlar, she’rlar, hunarlar, zanjirma-zanjir yozish, o‘qish, ya’ni musiqa savodi bo‘lamani degunga qadar bir-biri bilan bog‘lanib kelmoqda. Ikkinchijihat Qoraqalpoq milliy musiqasiga qiziqish ortib bormoqda. Dunyoga kelgan har bir go‘dak, milliy musiqa bilan tarbiyalanib, voyaga etishi tabiiy hol. Birgina allaning o‘zida qanchalar chuqur ma’no, tarbiyaviy mazmun mohiyat mujassam. Shunday ekan, milliy musiqada ta’lim-tarbiyaga, aql-idrokka, insonparvarlikka yo‘rig‘lovchi, tarbiyalovchi, nasihatguy she’rlar xalqning milliyligiga xos ekanligidan dalolatdir[4].

Milliy musiqa san’ati barcha analarni o‘z ichiga qamrab, o‘zining yoqimli, ta’sirchang tuyg‘ulari bilan kimni bo‘lsa ham erkin boshqarib, o‘ziga bo‘ysindira olish qudratiga ega. Bizning tarixiy voqealarimizni ta’riflovchi kuylar bilan o‘tmishni, tarixni anglasak, ayrim qo‘shiqlar ajoyib ohangi bilan halol-insonparvarlikka, elni sevishga chaqirib turgandek tuyuladi. Insонning ma’naviy boyligiga, o‘sib-unishiga, odob-axloqiga o‘zining har xil go‘zal ohang kuylariga boy milliy musiqanining ahamiyati ham alohida bir dunyo hisoblanadi.



Qoraqalpoq xalq musiqasi –xalq ijodiyotining barcha sohalarini qamrab oladi. Xalq musiqasi ayrim hollarda “Musiqa ahli” deb ham yuritiladi. Xalq qo’shiqlari og‘izdan–og‘izga, avloddan–avlodga o’tib to’ldiriladi va sayqal topadi. Qoraqalpoq xalq musiqasining o‘ziga xos xususiyatlariidan biri, ularning g‘oyaviyligidadir.

Milliy musiqaning eng ommalashgan turi jirov baxshichilik qo’shiqlaridir. Jirov baxshichilik qo’shiqlarida voqeа–hodisalar shaxsnинг botiniy kechinmalari o‘z aksini topadi va bu holat jamoaning his tuyg‘ulari bilan uyg‘unlashgan holda ifodalananadi. Shu boisdan ham jirov baxshichilik qo’shiqlari o‘quvchi–yoshlarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda ularda insonparvarlik, mehr sadoqat, tuyg‘ularini tarbiyalashda muhim manba hisoblanadi.

Userbay Aleo‘ovning ta’lim-tarbiyaviy qarashlarida yoshlarning estetik tarbiyasi, bunda san’atning, ayniqsa musiqaning ahamiyatiga katta e’tibor berilgan. Uning ta’kidlashicha, “Musiqa san’ati insondagi abstrakt tafakkurni, go‘zallikni sezishni tarbiyalash uqviga ega, o‘ziga xos bo‘lgan hodisa. Bunda so‘z bilan ifodalab berish mumkin bo‘lmagan, ba’zan sezgi bilan tushunib oladigan bilimlar ayniqsa ko‘p”[3].

Xalq musiqasi mazmunini o‘quvchi yoshlar qalbi va tafakkurida singdirishda o‘quvchining ongigina emas, balki his-tuyg‘ularini ham o‘stira borish, unda jamiyatning shaxsga qo‘yadigan ahlloqiy talablariga muvofiq keladigan hulqiy malaka va odatlarни hosil qilish lozim. Xalq musiqasi asosida o‘quvchi–yoshlarni ma’naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishda bularning birontasi (ongi, xissiyoti, irodasi) e’tibordan chetda qolsa maqsadga erishish qiyinlashadi. Shuning uchun xalq musiqasi asosida o‘quvchi–yoshlar dunyoqarashini shakllantirish ko‘p qirrali va murakkab jarayon hisoblanadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Xalqaro baxshichilik san’ati festivalini o‘tkazish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 1 noyabrdagi qarori. [www.uza.uz](http://www.uza.uz).
2. Aleuov U. Muzыкалық estetikalық мазмуны. // Material RNTK «Rol Amir Timura v istorii культуры sentralnoy Aziy» Nukus, KGU. 2006. – 20-28 b.
3. Aleuov U. «Muzыка ham estetikalық tarbiya». Vestnik Karakalpakskogo otdeleniya AN Resp. Uzb. Nukus. 2005. 1-2 son – 174 b.
4. Allanazarov D. «Qaraqalpaq milliy alamoynaq duo‘tar sazendeshiligi sabaqlig‘ы». Bolalar musiqa maktablari uchun 1-2-3-4-5-sinflar. Toshkent. «G‘afur G‘ulom atyndag‘ы baspa-poligrafialық d?retio‘shilik uyi» 2013.



## SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH ORQALI TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI VA MEXANIZMLARI

**X.I.IBRAIMOV,**

*p.f.d., professor, O‘zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrasи,*

**M.Y.EGAMNAZAROV,**

*Jizzax davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi*

*Ushbu maqolada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muhitida OTM talabalarining kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish tamoyillari va mexanizmlari haqida so‘z boradi. Shuningdek mazkur sohada mayjud muammolar va ularning yechimi bo‘yicha muallif o‘z takliflarini bayon etadi.*

**Kalit so‘zlar:** ta’lim sifati, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, innovatsion metodlar; “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi, texnologik xarita.

*В статье обсуждаются принципы и механизмы развития коммуникативных навыков студентов вузов посредством применения личностно-ориентированных технологий. Также автор описывает существующие проблемы в этой области и способы их решения.*

**Ключевые слова:** качество образования, личностно-ориентированные технологии, инновационные методы, направление “Педагогики и психологии”, технологическая карта.

*The article discusses the principles and mechanisms of the development of communication skills of university students through the use of personality-oriented technology. The author also describes the existing problems in this area and ways to solve them.*

**Key words:** quality of education, personality-oriented technologies, innovative methods, direction «Pedagogy and psychology», technological map.

Jahonda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali sifatli ta’lim muhitini shakllantirish, innovatsion metodlar, interaktiv dasturiy vositalar, fasilitatsion modellar, refleksiv texnologiyalardan foydalanish usullari va ularning samaradorligiga oid salmoqli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlarning asosiy vazifalari qatorida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali sifatli ta’lim muhitini takomillashtirish, kelgusidagi pedagogik faoliyatga tayyorlash sifatini oshirish, tabiiy-ilmiy dunyoqarashini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlarni o‘rganish va fan xususiyatlaridan kelib chiqib, mazkur metodikalarni takomillashtirish masalalari muhim o‘rin egallaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, davlat,



jamiyat va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan uzlusiz pedagogik jarayonning natijasi ifodasidir. Shuningdek, shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini ta'lif jarayoniga tatbiq etish talabalar egallashi lozim bo'lgan moddiy olamga nisbatan ijtimoiy jihatdan muvofiqlashgan munosabatlar tizimini yaratishga zamin hozirlaydi.

Ilmiy manbalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalariga asoslangan pedagogik jarayonni tashkil etish o'qituvchining kasbiy mahoratiga ko'p jihatdan bog'liq. R.Safarova, B.R.Adizov, O.A.Abdullina, G.A.Bojovich, V.S.Ilin, E.A.Kryukova, A.N.Leontev, N.V.Kuzmina, L.M.Mitina, G.I.Shukinalarning ishlarida mazkur yondashuv o'z ifodasini topgan.

Zamonaviy auditoriya mashg'ulotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalarini tatbiq etish tamoyillari, mexanizmlari o'ta murakkab, ko'p hadli pedagogik jarayonda amalga oshadi [1].

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarining asosiy negizi-o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijaga hamkorlikda erishishlari uchun tanlagan texnologiyalariga bog'liq. O'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil etadi, talabaning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish orqali ularning mustaqil fikrplash, ijodiy izlanish, o'quv materiallarini tahlil etish, xulosa chiqarishga keng imkoniyat yaratiladi. Har bir dars, mavzu, o'quv predmetining o'ziga xos texnologiyasi bor. O'quv jarayonidagi shaxsga yo'naltirilgan texnologiya – bu aniq ketma-ketlikdagi yaxlit jarayon bo'lib, u talaba ehtiyojidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo'naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va kafolatlangan natija berishga qaratilgan pedagogik jarayondir [2].

Zamonaviy auditoriya mashg'ulotlarida shaxsga yo'naltirilgan ta'lif texnologiyalarini tatbiq etish holati o'rganilganda, respublikamizning oliy ta'lif muassasalari "Pedagogika va psixologiya" ta'lif yo'nalishida samarali texnologiyalarni amaliyotga qo'llanilayotganligi aniqlandi. Biroq, bugungi kunda OTMlarda tadqiqot doirasida bir qator muammolar ham o'z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi. Bular:

1) umumiylar maqsad va vazifalar taqsimoti (Bugungi kunda bakalavriat talim yo'nalishida asosiy o'quv hajmi 9288 soat etib belgilangan bo'lib, shulardan 4128 soati (44,5%) sof auditoriya soatlari hisoblanadi. Pedagogikaga oid fanlar uchun o'rtacha 250-350 soat (turli fakultetlarda turlichcha) ajratilgan bo'lib, shundan



200-300 soati auditoriya, o‘rtacha 90 soati mustaqil ta’lim hisoblanadi. Bundan tashqari o‘rtacha 144 soat pedagogik amaliyat belgilangan. Pedagogika fani tarmoqlariga ajratilgan o‘quv soatlari turli yo‘nalishlarda turlicha bo‘lib, mazkur belgilangan o‘quv xajmlari hech bir jihatdan (ilmiy, amaliy) asoslanmagan. Mazkur holatda ixtisoslik fanlarini o‘qitishdan ortib qolgan soatlarni teng taqsimlanganligiga e’tibor qaratilib, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va bunda bo‘lajak mutaxassislarining kommunikativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga ahamiyat berilmagan, o‘quv yuklamalarini belgilash davridayoyq pedagogik tayyorlashga nisbatan o‘ta past nazar va mas’uliyatsizlik bilan qarab kelinmoqda;

2) “Fanni o‘qitish metodikasi” pedagogika fanining maxsus tarmog‘i hisoblanishiga qaramay, uni o‘qitishda yo‘nalish bo‘yicha mutaxassisni jalg etishga katta ahamiyat qaratgan holda, pedagogik ilmiy daraja yoki ta’lim muassasalarini metodik ta’minlash malakasiga ega bo‘lganlikka ahamiyat qaratilmasligi kuzatilmoqda. Talabalarning kommunikativlik texnikasini rivojlantirish sifatini takomillashtirish zarurati mavjud;

3) Universitetlarda pedagogika faniga oid o‘quv modullari bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazilgan bitiruvchilar sonining o‘rtacha 90 % umumta’lim fanlarini o‘qitish uchun maktablar, kollejlar va akademik litseylarda mehnat faoliyatini olib borayotganliklaridan kelib chiqib, o‘rtacha 60 % bitiruvchilarning o‘qish davrida pedagogik amaliyot mobaynida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti;

3) “Umumiylpedagogika”ning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogika fani nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iborat, “Fanni o‘qitish metodikasi”da asosan o‘qitish uslublarining nazariy asoslari va o‘quv eksperimentlari turlari va uning vazifalari, masala va misollar echish uslublarini o‘rgatish nazarda tutilgan. Biroq, ushbu o‘quv modullari o‘zaro integratsiyalashtirilmaganligi, o‘quv mazmunining izchillashtirilmaganligi “Umumiylpedagogika”ga Pedagogika kafedrasini, “O‘qitish metodikasi”ga ixtisoslik bo‘yicha tegishli kafedra mas’ul bo‘lganligi sababli bu ikki tarmoq o‘zaro muvofiqlashtirilmagan) natijasida, bitiruvchilarning pedagogik ishma tayyorlanganligiga qo‘yiladigan fundamental talablar (dars berish mahorati; kommunikativlik qobiliyatini rivojlantirish; tarbiyalash mahorati; o‘quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta’minlaydigan shaxsiy sifatlar; ta’lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati) va ta’lim turiga ko‘ra



alohida talablarga to'liq javob berishi ta'minlanmay qolmoqda. "Pedagogik amaliyot" mazmuni esa ushbu fanlarning mantiqiy davomi sifatida shakllantirilmay qolmoqda;

4) o'qitishda ilg'or ta'lif texnologiyalarini qo'llash (talabalarning pedagogik faoliyatga tayyorlashda asosiy ko'sratkichlaridan biri bu pedagogik kommunikativlik mahorati hisoblanadi. Talabada pedagogik mahoratni baholash uchun juda ko'p parametrlarga murojaat qilish kerak. Biroq, zamonaviy ta'linda ushbu parametrlar ichida asosiy talab sifatida o'qituvchining zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yondashuvlarda samarali foydalana olishi turadi. Ming afsuski, o'quv mashg'ulotlari jarayonida ayrim namoyish fayllari (slaydlar)dan foydalanishni aytmasa, deyarli AKTdan foydalaniyligini ko'zga tashlanadi. Video darslar, masofaviy ta'lif elementlarini qo'llash, elektron resurslarni ishlab chiqish, pedagogik faoliyatga oid ma'lumotlar bazalarini tuzish, o'zaro pedagogik muloqotning zamonaviy turlari va shakllaridan foydalanish tizimlashtirilmagan.

Yuqoridaagi muammolar bugungi kunda quyidagi amaliy harakatlarga ahamiyat qaratilishini belgilab beradi:

1. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borish;

2. Ilmiy assoslangan holda pedagogik faoliyatga tayyorlash modelini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish;

3. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmi sifatida baholanib, shular yuzasidan tegishli huquqiy-me'yoriy hujjatlar ishlab chiqish.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga ular faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi; ta'lif beruvchining vaqtiga tejaladi; ta'lif oluvchining yakuniy bilimi baholarning soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi; yozma nutqining o'sishi kuzatiladi; yozma va og'zaki nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi; talabalarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoiqining sezilarini darajada oshadi.

"Pedagogika va psixologiya" ta'lif yo'nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning pirovard maqsadi, jamiyat tomonidan belgilangan me'yor darajasiga mosligini aniqlash, mehnat va ta'lif xizmatlapi bozopida paqobatbapdoshlilik ta'minlanganligini aks ettiruvchi umumlashtirilgan xususiyat hisoblanadi.



Ta’lim muassasalarida o‘qitish sifatini nazorat qilish va baholash asosida amalga oshirilgan pedagogik tadbirlar talabalarining bilim, malaka, ko‘nikmalari va kompetensiyalari darajalarini taqqoslash, ularni ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlash, kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish, tahsil oluvchining to‘laqonli bilim olishi uchun unga eng maqbul pedagogik, didaktik, psixologik shart-sharoitlarni yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

“Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativlikni rivojlantrish tizimi talaba bajaradigan amal (harakat), ya’ni yozishdan tortib, matnni idrok etib tushunish va o‘z fikrini bayon etishgacha bo‘lgan amalni o‘z ichiga oladi.

Rasmidan ko‘rinib turibdiki, “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativlikni rivojlantrish uchun taqdirm qilinadigan o‘quv materiali talabalarda nutq ko‘nikma va malakalarini hosil qilish yo‘lidagi amaliy faoliyatdir.

Shunday qilib, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantrish tamoyillari va mexanizmlarini chuqr tadqiq etish zarurati mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ma’murov B. B. Bo‘lajak o‘qituvchilarni shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim-tarbiya jarayonini loyihalashga tayyorlashda qo‘llaniladigan tamoyillar //Современное образование. – 2017. – №. 3.
2. Sharipov S. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosida o‘quvchi faolligini oshirish //Архив научных публикаций ЖДПИ. – 2020.
3. Kamoliddin K., Islam A. Ta’lim tizimini takomillashtirish tamoyillari // Academic research in educational sciences. – 2020. – №. 4.
4. Egamnazarov M. Y. On the question of a personality oriented approach to learning and education //International scientific review of the problems and prospects of modern science and education. – 2020. – S. 94-97.



## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA YOSHLARDO MILLATLARARO TOTUVLIK VA DINIY BAG'RIKENGLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-HUQUQIY ASOSLARI

**G. KUSHAKOVA,**

*Jizzax davlat pedagogika instituti, Maktabgacha ta'lif metodikasi  
kafedrasi dotsenti v.b.*

*Ushbu maqola yoshlarda millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni  
ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy asoslariga bag'ishlanadi.*

**Kalit so'zlar:** yoshlar; millat, diniy bag'rikenglik, taminlash, ijtimoiy, huquqiy,  
inson, tamoyillar; deklaratsiya.

*В статье рассматриваются социально-правовые основы обеспечения межнационального согласия и религиозной толерантности молодежи.*

**Ключевые слова:** молодежь, нация, обеспечение, социальное, юридическое,  
человеческое, тенденции, декларация.

*This article focuses on the socio-legal basis for ensuring interethnic harmony  
and religious tolerance at a young age.*

**Key words:** Youth, Nation, Religious Tolerance, Provision, Social, Legal, Human,  
Trends, Declaration.

O'zbekiston Respublikasining dunyoviy va demokratik jamiyat qurish maqsadi va uni amalga oshirish shart-sharoitlari mamlakat pedagogik ta'lif tizimi va uning istiqboldagi yo'nalişlarini belgilash jarayonlariga o'zining tabiiy ta'sirini o'tkazadi. Chunki, ta'lif jarayoni har doim davlatning istiqbol rivojlanish zaxirasini tashkil qiluvchi fuqarolik tarbiyasi masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Fuqarolik tarbiyasi masalasi davlatning strategik maqsadlari sirasida alohida o'rinn egallab kelgan.

Dunyoviy davlatchilik tolerantlik g'oyalariga tayanadi. Zamonaviy XXI asr takomilini tolerantlik tafakkurisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Chunki, tolerantlik tafakkuri millatlar, elatlari, xalqlari, madaniyatlar, qarashlar, mafkuralar xilma-xilligi sharoitida ularning o'zaro hamkorlik va bir-birini qabul qilish, tenglik va hurmat asosida yashash tartibi va jarayonlarini bildiradi.

Tolerantlik sog'lom aqida va g'oya sifatida insonlararo munosabatlarni tartibga soladi, ularni sog'lom muloqot qilishga o'rgatadi. Shu nuqtai nazardan, tolerantlik tushunchasi genotsid, rasizm, ksenofobiya, etnotsentrizm, ekstremizm kabi tushunchalarga qarshi bo'lib, falsafiy-ijtimoiy ong tarkibidan joy oladi va inson tafakkurida, xulqida, fe'l-atvorida namoyon bo'ladi.



Tolerantlik davlat va din, din va inson munosabatlari, insonning davlat oldidagi majburiyatlari kabi masalalarda har bir fuqaroning aniq bilimlarga ega bo‘lishini taqozo etadi. Tolerantlik inson va davlat hamda insonlar o‘rtasidagi rang-barang munosabatlarni tartibga solish tamoyillaridan iborat. SHunday ekan, tolerantlik tafakkurini yoshlar dunyoqarashining uzviy bo‘g‘iniga aylantirish, shuningdek, ularni diniy bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash dolzarb ijtimoiy-pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Tolerantlik tafakkurini shakllantirish davlatni mustahkamlash, xavfsizligini muhofaza qilish, yoshlarni turli mafkuraviy yot g‘oyalardan asrash, ularni bag‘rikenglik asosida hayotga tayyorlashda alohidao‘rin tutadi. Tolerantlik dunyoviy davlatning eng zarur xususiyatlaridan biridir.

Dunyoviy va demokratik jamiyat qurishning muhim asoslaridan biri yoshlartolerantlik tafakkurini shakllantirishdir. Shu bois, ta’lim-tarbiya tizimining barcha bosqichlarida tolerantlik nima, uning asoslari va g‘oyalari nimalardan iborat, din va davlat munosabatlari qanday bo‘lishi kerak, inson va e’tiqod, sog‘lom e’tiqod asoslari, turli konfessiyalar davlat doirasida qanday munosabatda bo‘lishlari kerak, dirlarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yib bo‘ladimi, insonlararo munosabatni qanday rivojlantrishzarur kabi o‘nlab dolzarb masalalar bo‘yicha yoshlar, xususan, talabalarda zamonaviy, ilmiy asoslangan, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayangan bilim va ko‘nikmalar majmuini shakllantirish bugungi kunning muhim ijtimoiy vazifalaridan hisoblanadi.

Hozirgi davrga xos bo‘lgan turli mafkuraviy ziddiyatlarning kuchayishi inson sog‘lom tafakkuriga, uning mafkuraviy jihatdan ogohligiga, milliy manfaatlar asosida qurilgan g‘oyalarni shakllantirishga bo‘lgan ehtiyojini kuchaytiradi. Demak, demokratik jamiyat qurish sharoitida yoshlarning tolerantlik tafakkurini shakllantirish masalasini milliy g‘oya va mafkura, milliy manfaatlar, davlat ahamiyatiga molik vazifalar qatoriga kiritish to‘g‘ri bo‘ladi.

Dunyo miqyosida e’tiqod va maslak kurashining keskinlashuvi ziylolar, yoshlar, xotin-qizlar, o‘zini fuqaro sifatida anglayotgan barcha insonlar tomonidan amalga oshirilayotgan siyosiy islohotlar, turli ichki va tashqi qarshi kuchlar orqali mamlakat mustaqilligiga qilinayotgan tajovuzlar mohiyatini to‘g‘ri anglash, fikr yuritish, muayyan xulosalarga kelish, bunyodkorlik va bag‘rikenglikka asoslangan dunyoviy tafakkur g‘oyalarini aholi o‘rtasida keng targ‘ib va tashviq qilishni talab etadi.



Har qanday murakkab voqelik qatorida mafkuraviy qarama-qarshiliklar ularning qaysi kuchlarga tayanishi, qanday g‘oyalarni targ‘ib etishi, qanday yo‘l va usullar bilan omma ongini zaharlashi, buzg‘unchilikka asoslangan yot g‘oyalarga qarshi xalq immunitetini shakllantirish choralar kabi yo‘nalishlar doirasida faoliyat olib borish, tolerantlik asosida yoshlar tafakkurini shakllantirish bo‘yicha muammolarni belgilashni dolzarb vazifaga aylantiradi. Davlat va din o‘rtasidagi munosabatlar, din va inson munosabatlari, insonning o‘z davlati oldidagi majburiyatları kabi masalalarda har bir fuqaro aniq belgilangan bilimlarga ega bo‘lishi lozim.

“Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi”ning preambulasida ta’kidlanishicha, “Biz, Birlashgan Millatlar tashkiloti xalqlari, yosh avlodni urush talofotlaridan muhofaza qilish maqsadida yana bir bor inson huquqlari, inson hayotining qadr-qimmatiga bo‘lgan e’tiborini tiklash uchun tolerantlik g‘oyalariga tayanib, insonlarning birgalikda, yaxshi qo‘shinchilik an‘analari asosida yashashlarini istaymiz”[1; B.15] deyiladi.

Respublikada mustaqillik yillarda tolerantlik g‘oyasi mazmunini jamiyat a’zolari ongiga singdirish, uning turli qirralari va xususiyatlarini tarbiyalash davlat ahamiyatiga molik vazifaga aylandi.

Ayniqsa, mustaqil davlatchilik asoslari va mamlakat taqdiriga diniy aqidaparast guruhlar tomonidan qilingan tahdidlar butun aholi, ayniqsa,yoshlar tafakkurini tolerantlik asosida shakllantirishni eng dolzarb ijtimoiy vazifaga aylantirdi. Yoshlar tafakkuriga qaratilgan turli tahdidlarning ortishi esa, aynan bolalikdan boshlab shaxsni tolerantlik asosida tarbiyalash muhim ijtimoiy-siyosiy masala ekanligini tasdiqlaydi. Demak, jamiyat taraqqiyotining kun tartibida turgan dolzarb masala – yoshlar tolerantlik tafakkurini shakllantirishning pedagogik asoslarini ilmiy tadqiq etish yangi pedagogik tadqiqotlar jarayonining muhim bosqichlaridan birimi tashkil qiladi.

Yurtimizda qadimdan diniy ta’lim tizimi shakllangan bo‘lib, Samarqand, Buxoro, Xiva, Toshkent madrasalari O‘rta asrlarning universitetlari vazifasini bajargan. O‘rta asrlardayoq Buxoro o‘zining madrasalari va ulamolari bilan shuhrat qozongan va haqli ravishda “Islom olamining quvvati” unvoniga sazovor bo‘lgan.

Musulmon Renessansi, ya’ni ma’rifiy Uyg‘onish davriga asos solgan ulug‘ ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan va hanuzgacha dunyonи hayratga solib kelayotgan ilmiy merosni o‘rganish borasida izlanishlar olib borish, ular



yaratgan yo‘nalishlar va maktablar an’alarini davom ettirish bugungi avlod oldida turgan dolzarb vazifalar sirasiga kiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi “Diniy-ma’rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5416-son Farmoni bilan olyi diniy-ma’rifiy ta’lim muassasasi shaklidagi Hadis ilmi maktabining tashkil etilishi yoshlarning mukammal diniy ta’lim olishlari imkoniyatini yaratdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 16 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi din ishlari bo‘yicha qo‘mita faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3668-sonli qarori bilan qo‘mitaning Diniy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish axborot-tahlil markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Markaz din ishlari bo‘yicha qo‘mitaning diniy mavzulariga oid adabiyotlar, internet va ommaviy axborot vositalari materiallarini chuqur tahlil qilish, diniy-ijtimoiy muhitning barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni barvaqt aniqlash va bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqish faoliyatini amalga oshiradigan axborot-tahliliy tuzilmasi sanaladi. Qo‘mita diniy-ma’rifiy ta’lim muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirib boruvchi vakolatli organ hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 19 maydagi “Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5046-son Farmoniga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Millatlararo munosabatlar va xorijiy mamlakatlar bilan do‘slik aloqalarini qo‘mitasining tashkil etilishi jamiyatda barqarorlik, tinchlik va totuvlikni ta’minlash, fuqarolar ongida katta, ko‘p millatli yagona oilaga mansublik tuyg‘usini mustahkamlash, milliy madaniy markazlar va do‘slik jamiyatlari faoliyatini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va yanada rivojlantirish, xorijiy mamlakatlar bilan madaniy-ma’rifiy aloqalarni kengaytirishga qaratilgan sa‘y-harakatlarning yaqqol namunasidir.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Islomsivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Mir Arab olyi madrasasi, Imom Buxoriy va Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, O‘zbekiston musulmonlari idorasi muassisligidagi olyi diniy-ma’rifiy ta’lim muassasasi shaklidagi Hadis ilmi maktabi (2018 y.) boy ilmiy-tarixiy merosimizni o‘rganish va targ‘ib qilishga xizmat qilmoqda. Olyi ta’lim muassasalarida yoshlarning tolerantlik tafakkurini shakllantirishning asosiy maqsadi ularning kelgusi pedagogik faoliyatida dunyoviy va diniy



bag‘rikenglik, o‘zga din va millat vakillariga ehtirom, o‘zga madaniyatlarga, milliy boyliklarga hurmat bilan qarash, sabr-toqatli bo‘lish, do‘stlik munosabatlarini o‘rnatish, oila va jamiyatda bardoshhlilik sifatlarini ko‘rsatish, birodarlik, hamdardlik, hurfikrlilik, sadoqat, boshqalarni kamsitmaslik, xatolari ustidan kulmaslik, xo‘rlamaslik, o‘z kuchiga ishonch, tinchlik va totuvlikni qadrlash, insonlarni barqarorlikka safarbar eta olish kabi ko‘nikmalarni tarbiyalashga qaratilishi bilan xarakterlanadi.

#### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. Bag‘rikenglik tamoyillari deklaratsiyasi. YUNESKO vakolatxonasi nashri. Nashr uchun mas’ullar: A.Saidov, K.Jo‘raev. – T.: YUNESKO, 1999. – B. 15.
2. Kushakova G. O‘qituvchilarda bag‘rikenglik fazilatlarni shakllantirish metodikasi. Maktab va xayot. 1-son, 2020. – B. 28-30.



## UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMIDA MA'NAVİY TARBIYANI AMALGA OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI

**D.J.A.PULATOV,**  
*O'DJTU "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи  
katta o'qituvchisi, p.f.b.f.d. (PhD)*

*Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'liz tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish pedagogik shart-sharoitlari ilmiy-nazariy jihatdan yoritilgan. Shuningdek maqolada boy milliy madaniy-tarixiy ar'analar, urs-odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqish va ta'limi insonparvarlashtirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi to'g'risida fikr bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** umumiy o'rta ta'liz, modernizatsiya, ma'naviy tarbiya, ta'liz, fan, madaniyat, axborot, ilm-ma'rifatli bo'lish, insonparvarlik.

*В статье научно и теоретически описаны педагогические условия реализации духовного воспитания в системе общего среднего образования. Также подчеркивается важное педагогическое значение разработки эффективных организационно-педагогических механизмов, основанных на богатых национальных культурно-исторических традициях, обычаях и общечеловеческих ценностях.*

**Ключевые слова:** общее среднее образование, модернизация, духовное воспитание, образование, наука, культура, информация, просвещение.

*The article scientifically and theoretically describes the pedagogical conditions for the implementation of spiritual education in the system of general secondary education. The article also emphasizes the important pedagogical importance of developing effective organizational and pedagogical mechanisms based on rich national cultural and historical traditions, customs and universal values, humanization of education.*

**Key words:** general secondary education, modernization, spiritual education, science, culture, information, enlightenment, humanities, education.

Dunyo miqyosida ta'liz, fan, madaniyat va axborot sohasidagi mintaqaviy, submintaqaviy hamkorlikni yuksaltirish masalalarining yuzaga kelishi tufayli yangi ijtimoiy ehtiyoj va zamonaviy talablarga mos jamiyat hayotining barcha sohalarini izchil va barqaror rivojlantirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu esa o'z navbatida, ilg'or xorijiy tajribalarga tayanib ma'naviy-ma'rifiy ishlar rivojini fan va umumiy o'rta ta'liz tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda umumiy o'rta ta'liz muktablarida innovatsions va texnologik g'oyalar bilan fikr almashadigan muloqot markazlarini tashkil etish xususiyatlardan kelib chiqib, ta'liz-tarbiya jarayonlarini tashkil etishning takomillashtirilgan dasturiy-metodik ta'minoti yaratildi. Natijada umumiy o'rta ta'liz tizimida ma'naviy tarbiyani amalga oshirish jarayonida boy milliy madaniy-tarixiy ar'analar, urs-



odatlar hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy-pedagogik mexanizmlari ishlab chiqildi va ta'limni insonparvarlashtirishning ustuvorligi ta'minlandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdag'i "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to 'g'risida"gi PQ-3907-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabrdagi 1059-son "Uzlusiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to 'g'risida"gi Qarorida "o'quv fanlari doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyotga joriy etish, ularni amaliyotda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlari bilan boyitish (ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar) ustuvor vazifa sifatida ko'rsatib o'tilgan[1;].

Aytish o'rinniki, ayni paytda umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyanı takomillashtirish omili sifatida ma'naviy-ma'rifiy kompetentlikni rivojlantirish texnologiyasini rivojlantirish, o'quvchilarning ijtimoiy faolligi va tashabbuskorligini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan multimedia vositalarini yaratish; o'quvchilarni ta'lim jarayonida va darsdan tashqari tarbiyaviy faoliyatlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishga tayyorlashning diagnostik tizimini takomillashtirish; o'quvchilar bilan ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil etishning neyrolingvistik dasturlashtirish texnologiyalarini takomillashtirish; ularda jahon va milliy kitobxonlik va mutolaa madaniyatini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Pedagoglar orasida ta'limda tarbiyalaymiz, tarbiyalab turib ta'limni shakllantiramiz degan tushuncha bor. Demak, o'quvchilarni ta'lim jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish uchun ham tarbiyaviy, ham ta'limiy, ham rivojlantiruvchi, ham mafkuraviy, ham kasbga yo'llash yo'nalishi bo'yicha tahlil etishimiz lozim. Zero elektron ta'lim muhitida ma'naviy - tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etish mexanizmlarini takomillashtirish tarbiyaning maqsadi, mazmuni, metodlari va shart-sharoitlarining mushtarakligiga bog'liq.

Ammo har qanday pedagogik jarayonda bo'lgani kabi umumiy o'rta ta'lim tizimida ma'naviy tarbiyanı amalga oshirish, ma'naviy - tarbiyaviy ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda juda ko'p omillarning amaliyligi o'quvchi shaxsiga, uning irodasi va xohish-istagiga, shaxs sifatida ma'naviy kamolot tushunchasini nechog'li anglab etib, o'zining turmush tarziga singdira olishiga bog'liq bo'ladi. Ma'naviy tarbiya o'zida inson mohiyatini, uning ijtimoiy biosotsial mayjudot sifatidagi olamni ifoda etuvchi tushuncha sifatida anglanadi.



Umumiy o‘rtta ta’lim tizimida ma’naviy tarbiyani amalga oshirish jarayonida o‘quv mashg‘ulotlarini innovatsion ta’lim texnologiyalari asosida loyihalashtirish, o‘zaro bir-biri bilan bog‘liq va aloqador ekanligi nuqtai nazaridan qaraganda madaniy—ma’rifiy yuksaklik, ijtimoiy – didaktik taraqqiyot, iymon-e’tiqodning butunligi, falsafiy-pedagogik o‘sish, milliy axloq -odob me’yorlariga to‘la rioya qilish, ilm – ma’rifatli bo‘lish, insonparvarlik, vatanparvarlik, xalqparvarlik, adolatparvarlik, milliy qadriyatlarga muhabbat, fidoyilik, mardlik, jasurlik, tashabbuskorlik, poklanish, islom diniga e’tiqodlik, Vatan va xalq mustaqilligini doimiy himoya qilish va unga xizmat qilish, ajdodlar va ularning merosiga chuqur hurmat va tarixiy dunyoqarashning integrallashgan tavsifi sifatida belgilanadi[2:].

Tajriba va pedagogik so‘rovnomalar tahlili asosida shu narsaga amin bo‘ldikki, o‘quvchilar o‘zлari yashab turgan hayot tarzini sog‘lom tur mush tarzi deb tan oladilar. Eng achinarlisi, milliy istiqlol g‘oyalariiga zid mafkuraga asoslangan parnografik, erotik asarlar, gazeta va jurnallarning yurtimizga kirib kelishi va yoshlar ma’naviy tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatayotganligi, internet xabarlaridan foydalanish imkonining kengligi natijasida yoshlarning milliy madaniyatiga zid bo‘lgan ma’lumotlarni olishi va ulardan noto‘g‘ri xulosa chiqarishi, (ayrim qiz bolalar o‘rtasida madaniyatimizga zid ravishda o‘z jinsini o‘zgartirishga bo‘lgan ehtiyojning kuchayganligi) ya’ni axborot olish madaniyatining etishmasligi ko‘zga tashlanayapti[3:].

Tadqiqotlarning ko‘rsatishicha, umumiy o‘rtta ta’lim tizimila ma’naviy—ma’rifiy tadbirdarni kuchaytirishga bo‘lgan talab yuzasidan yagona konsepsiyaning ishlab chiqilmaganligi, to‘garaklar faoliyatining qoniqarsizligi hamda maxsus dasturlar ishlab chiqilmaganligi, o‘quvchilar o‘rtasida zararli odatlar ta’siriga tushib qolmaslik uchun etarli darajada tushuntirish ishlari olib borilmaganligini ko‘rsatayapti. Bilamizki, ma’naviy-ma’rifiy tadbirdarning sifatini ta’minlashda tarbiya mazmuni birinchi darajali mohiyat kasb etadi. Alovida qayd etish lozimki, bugungi globallashuv, akseleratsiya va texnogen sivilizatsiya yoshlar tarbiyasiga “ijobiy” va “salbiy” ta’sirini ko‘rsatayotgani nafaqat pedagoglarimiz, balki ota-onalarimizga ham ma’lum.

Fikrimizcha, ma’naviy-ma’rifiy ishlarni samarali tashkil etish uzviyligini ta’minlashda mediatexnologiyalardan foydalanish, tarbiya vositalarini bir vaqtning o‘zida bir necha yo‘nalishlarda qo‘llash imkonini beradi. Ayni vaqtida “Apparat-matnlar” tizimidan (videokitoblar, o‘quv disklari, matnli albomlar va boshqalar) ommaviy ravishda foydalanilmoqda. Bu esa pedagoglarning o‘zaro muloqot va bahs munozara qilish imkoniyatini kengaytirishi bilan birga, tarbiya loyihalarini yaratishda pedagog-texnolog va metodistlarning kasbiy mahoratlarini oshirishga yordam beradi.



Ma’naviy tahdidlar haqida to‘xtalar ekanmiz, ochiq axborot tizimi va adabiyotlar tahlilidan ma’lumki, bugun kunda bu tahidlarning yigirmadan ortiq turlari mavjudligi hech kimga sir emas.

Multimadaniyat, polietniklik, monomadaniyat, polimadaniyat, madaniyatlararo dialog, genotsid, rasizm, ksenofobiya, ekstremizm, etnotsentrizm, fundamentalizm, radikalizm, millatchilik, separatizm, mahalliychilik, milliy va guruhli xudbinlik, diniy aqidaparastlik, Diniy riyokorlik, soxta demokratiyalar, rangli inqiloblar, preventiv revolyusiyalar, ikki xil standartlar va boshqalar[3;].

Adabiyotlar tahlili va kuzatuvlarimiz natijasida biz o‘quvchi-yoshlar ma’naviy qiyofasi potretini chizishga harakat qildik. Unga ko‘ra: bilimdonlik, mehnatsevarlik, mustaqil fikr, zukkolik, zamonaviy va dunyoviy ilmdan xabardorlik, vatanparvarlik, jamiyatda o‘z o‘mini topishga intilish, kiyinish va so‘zlashuv madaniyatiga rioya qilish.

Shuningdek biz kuzatuvlarimiz davomida o‘quvchi-yoshlar orasida starizmga ro‘ju qu‘yan, ya’ni sub‘ektiv ehtiroslarga berilgan holda, estrada artistlari, aktyorlar, sportchilar, telediktordoni ilohiylashtirish, o‘z ruhiy hissiyotlarini jilovlay olmaslik, hissiyotlarni aqlga bo‘ysunmasligi holatidagi manzaralarning ham guvohi bo‘ldi. Aynan “starizm” mavzusi yuzasidan yosh yigit – qizlar bilan suhbatda bo‘lsangiz, ular yo chet el aktyori, yo chet el qo‘sishchisi, yo chet el telediktori yoki chet el sportchisining bir necha yuzlab rasmlarini kolleksiya qilganlarini guvohi bo‘lasiz. Eng qizig‘i va achinarlisi ular bunday holatni tabiiy va to‘g‘ri qabul qilishadi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiya jarayonining eng yuksak natijasi har tomonlama va uyg‘un kamol topgan yuksak ma’naviyatlari shaxsni shakllantirishdir. Ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil qilish muddatiyilik, murakkablikni, ketma-ketlik, muntazahlilik va davomiylilik tamoyillariga rioya qilish taqozo etadi. Ma’naviy kamolotni inson tafakkuriga birdaniga singdirib bo‘lmaydi. Shunday ekan, uning shakllanish jarayoni ham bosqichma-bosqich tashkil qilinishi zarur.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagи “YOshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PQ-3907-sonli Qarori. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)).

2. Gaipnazarov R. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasida uyg‘unlik: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: O‘zDJTU, 2011.– 132 b.

3. Jo‘raev N. Ma’naviyat – inson qalbining sarchashmasi. - Toshkent: Ma’naviyat, 2015.– 30 b.



## OILANING YOSHLAR TARBIYASIDAGI VAZIFALARI

**D.H.NARZIKULOVA,**

*Navoiy davlat pedagogika instituti “Umumiy pedagogika” kafedrasи  
dotsenti p. f. b. f.d. (PhD)*

*Maqolada oilaning yoshlar tarbiyasidagi vazifalari ilmiy nazariy jihatdan tahlil qilingan. Ota-onalar o‘z farzandlarining ruhiy xususiyatlarini yaxshi bilishi, bola tarbiyasiga to‘g‘ri yondashishi oilaviy totuvlik, hamjihatlik, o‘zaro munosabatlarda mehr-oqibat va ma’naviy barqarorlikni ta’minlashi ilmiy izlanishlar asosida yoritib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** oila, yoshlar, tarbiya, ota-ona, farzand, oilaviy totuvlik, hamjihatlik, o‘zaro munosabatlar, mehr-oqibat, tarixiy meros.

В статье дается научно-теоретический анализ роли семьи в воспитании молодежи. Научные исследования показали, осведомленность об умственных особенностях своих детей, правильный подход к их воспитанию обеспечивает семейную гармонию, солидарность, доброту и духовную стабильность в отношениях членов семьи.

**Ключевые слова:** семья, молодежь, родители, дети, семейное согласие, солидарность, отношения, привязанность, историческое наследие.

*The article provides a scientific and theoretical analysis of the role of the family in the upbringing of young people. Scientific research has shown that awareness of the mental characteristics of their children, the correct approach to their upbringing ensures family harmony, solidarity, kindness and spiritual stability in the relationships of family members.*

**Key words:** family, youth, upbringing, parents, children, family harmony, solidarity, relationships, affection, historical heritage.

Mamlakatimizda boy madaniy tarixiy meros va an’anaviy oilaviy qadriyatlar asosida zamonaviy oilani rivojlantirish, oilaviy ajrimlar va konflikt(nizo)larni oldini olish, oila institutini mustahkamlash, yosh avlodda ma’naviy - axloqiy, odob qadriyatlarini shakllantirish, oilaning tarbiyaviy va madaniy ilmiy salohiyatini takomillashtirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Shuningdek, ota-onalarning farzand tarbiyasidagi vazifalarini amalga oshirishda pedagogik nuqtai nazardan yondashish, farzand tarbiyasida oilaning javobgarligini oshirish, bolalarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish, ruhiy qo’lllab quvvatlash tizim va mexanizmlar samadaroligini rivojlantirishga e’tibor kuchaytirildi[1].

Jamiyatdagi globallashuvning keskin o‘sib borishi, dunyoning turli hududlarida keskin qarama-qarshiliklar sodir bo‘layotgan bugungi tahlikalni zamonda yoshlar tarbiyasi umummilliy, umum davlat siyosati sifatida yanada dolzarblik kasb etmoqda. Shuningdek, oila institutini mustahkamlash mazmunidagi islohotlar, oila va oilada yoshlar tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratishni talab etadi. Buning uchun esa dunyo ilm-fanida oila, oilada bola tarbiyasi masalalarini



shakllantirish tizimini takomillashtirish bo'yicha pedagog, filosof, sotsiolog, psixolog, huquqshunos olimlar tomonidan ilgari surilgan ilg'or nazariy qarashlarni ilmiy o'rghanmoq zarur.

Yoshlar: O'zbekistonda yoshlar o'ziga xos ijtimoiy qatlama sifatida davlatning muntazam e'tiboridagi yo'nalish sifatida baholanadi. "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslarini to'g'risida»gi Qonunda 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan fuqarolarga taalluqli yoshlarga oid davlat siyosatining asosini negizi belgilangan va uning maqsadi yoshlarning ijtimoiy shakllanishi va kamol topishi, ijodi iqtidori jamiyat manfaatlari yo'lida imkonli boricha to'la-to'kis ro'yobga chiqishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy jihatdan shart-sharoit yaratish hamda ularni kafolatlashdan iborat[2].

Demak, yoshlar jamiyat hayotining butun bir biologik va ijtimoiy qatlamaiga teng kelar ekan, oilada yoshlar tarbiyasiga ma'suliyat bilan yondashish istiqbolli ahamiyat kasb etadi. Nazariy va metodologik adapbiyotlarning tahlili va amaliy tajribalarga tayanib aytishimiz mumkinki: - oilalar tarkibiga ko'ra: to'liq, noto'liq, katta, kichik, yosh; - ijtimoiy xususiyatiga ko'ra: tinch, notinch, ijtimoiy xatarli, ijtimoiy himoyaga muhtoj, o'ziga to'q, boquvchisni yo'qtongan; - jamiyatdagi mavqeiga ko'ra: ziyyolar, ishchi-xizmatchilar, dehqonlar, tadbirkorlar va boshqa guruhlarga bo'linadi[3].

Shundan xulosa chiqarib aytishimiz mumkinki, ota-onalarning pedagogik bilimlarini oshirish uchun pedagogik sharoit yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bilamizki, pedagogik sharoit tashqi va ichki tarzda namoyon bo'ladi. Tashqi pedagogik sharoit bolaning ijtimoiy muhit, tarbiya jarayonidagi tayyorlarligi bilan bog'liq bo'lib, ota-onsa yoki oiladagi yoshi katta kishilar bilan bola, bola bilan qo'ni-qo'shni, jamaoa munosabatlarda o'z aksini topadi. Ichki sharoit har bir yoshning ruhiy faoliyati bilan bog'liqligiga ko'ra shaxs va uning qobiliyatlarini, psixik xususiyatlarini aniq maqsadga yo'naltiradi.

Ota-onalarning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik bilimlarini oshirish uchun quyidagi pedagogik tamoyillarga amal qilishni taqozo etadi: - yoshlar tarbiyasida uzviylik va uzlusizlikni ta'minlash; - yoshlar tarbiyasida izchillik va sistemalilik; - yoshlar tarbiyasida nazariyaning amaliyot bilan aloqasi; - o'rnak namuna; - insonparvarlik, demokratlashtirish; - tarbiyada ob'ekt-sub'ekt emas, sub'ekt-sub'ektlilikni, ko'p bosqichlilikni ta'minlash; - tarbiyaviy ish shakl, metod va vositalarining bir-biriga mosligi; - yosh avlodning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish; - tarixiylik, ilmiylik; - umuminsoniy va milliy qadriyatlар mushtarakligi[4].

Haqiqatdan ham, shaxsni har tomonlama tarbiya komponentlarini uyg'unlikda tarbiyalab, voyaga etkazishning eng asosiyo bo'g'ini bu oiladir. To'g'ri shakllangan inson jamiyatga to'g'ri va adolatlil munosabatda bo'ladi, o'z xalqining milliy qadriyatlarni ham e'zozlaydi va o'zligini hech qachon unutmaydi. Oila tarbiya



tizimidagi shunday bo‘g‘inki, butun jamiyatning, millatning bugungi kuni va kelajagi uning qanday tashkil etilishi, oiladagi ijtimoiy-ma’naviy muhitga bog‘liq. Oilada bolalar shaxsini shakllantirish, eng muhim ruhiy jihatlar bilan qurollantirish ko‘pincha o‘zaro munosabatlarga bog‘liq bo‘ladi. Oilaning kamol topgan a‘zolari, birinchi navbatda ota-onalar o‘z farzandlarining ruhiy xususiyatlarni yaxshi bilishi, bola tarbiyasiga to‘g‘ri yondashishi oilaviy totuvlik, hamjihatlik, o‘zaro munosabatlarda mehr-oqibat va iliqlik, ma’naviy barqarorlikni ta’minlaydi.

Oilaviy muhitda farzandlarga nisbatan qilingan qo‘pol, noo‘rin, noxush muomala ularning shaxsi va ruhiyatiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, tasavvur hamda taassurotlari olamida ma‘lum iz qoldiradi, bola kayfiyatida tushkunlik, umidsizlik, tanholik ruhini vujudga keltiradi. Oilaning muhim vazifalaridan biri shaxsni insonparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Tajriba va kuzatuvlarimiz asosida aytishimiz mumkinki mazkur tarbiyaviy tadbirlarni amaliyotda qo‘llash uchun ota-onalarning pedagogik bilimlarini boyitish, bolalarga hayotiy misollardan, badiiy adabiyot materiallарidan, mashhur kishilar haqidagi xotira va esdaliklardan, shuningdek ularning tarjimai holidan foydalanish yaxshi natija beradi.

Ota-onalar, katta yoshdagи oila a‘zolari o‘g‘il-qizlarda xalq marosimlariga nisbatan iliq munosabati, samimiy his-tuyg‘uni tarbiyalash ham oilaning muhim vazifalariga kiradi. Jumladan, milliy bayramlar, to‘y, milliy kurash va musobaqa, sayllar va ularni o‘tkazish yo‘llari, qoidalari, mavsumi, mavridi to‘g‘risida aniq tushuncha berish zarur. Mahalla, qarindosh, qo‘ni-qo‘shnilarnikida o‘tkaziladigan tadbirlarga yoshlarni jalb etish ijobjiy samara beradi.

Milliy an‘analardan, urf-odatlardan, marosimlardan va rasm-rusumlardan kelib chiqqan holda oilada kattalarga, ota-onaga, qarindosh-urug‘larga, o‘qituvchilarga hurmat-ehtirom hissini shakllantirish, o‘tmish avlod tomonidan yaratilgan, to‘plangan milliy boyliklarga, obidalarga mehr-muhabbat ruhini singdirish oilaning muqaddas vazifasidir.

Ayniqsa, oila davrasida ota-onalar va oilaning katta a‘zolari kichik yoshdagи o‘g‘il-qizlarga atrof-muhit, tabiat muhofazasi haqida ma‘lumatlar berishlari shartdir. Oilada insonparvarlik tarbiya masalalarida eng muhim xususiyatlardan biri – shaxsni mehnatda va mehnat orqali tarbiyalashdir. Oilada mehnat taqsimotini to‘g‘ri amalga oshirish farzandlarda har xil ko‘nikma va malakalarni tarkib toptiradi, ularda mehnatsevarlik, mehnat kishisiga hurmat, uning mehnatini qadrlash tuyg‘ularini vujudga keltiradi. Mehnatning ijtimoiy turmushdagi roli, taraqqiyot, mo‘l-ko‘lchilik manbai ekanligini farzandlar ongiga singdirish yaxshi samara beradi. Mehnat tarbiyasi orqali bolalar mehnat kundalik ehtiyoj, zaruriyat ekanligini bilib boradilar, mehnat qilishni ijtimoiy va farzandlik burchi deb hisoblay boshlaydilar. Bolalarda mehr-muhabbat, nsonparvarlik tuyg‘usining namoyon bo‘lishida onalarning sehrli allasi alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun har bir qiz-juvon alla aytishni o‘rganishi kerak. O‘z navbatida oilada buvi va momolar, onalar



voyaga etayotgan farzandlariga alla aytishni o'rgatishlari zarur. Hozirgi kunda allalar mutlaqo kamayib ketgan. Ko'pgina opa-singillarimiz hatto alla aytishni ham bilmaydilar, aytganlari ham yuzaki, maroqsiz, bola qalbini to'lqinlantirmaydi. Eng yaxshi ezgu niyat bilan yana allalar olamiga qaytadan murojaat qilsalar, xayrli ish bo'ur edi. Chunki alla sehrini his qilmagan farzand insonning, atrof-muhit, tabiatning go'zalligini chuqr bilmaydi. Milliy odatimizga ko'ra beshik alla bilan o'z mohiyatimi ochadi, bo'lg'usi allomalgara nur-ziyo baxsh etadi, ularda xush kechimnalar hosil qiladi, tozalik, ozodalik qoidalariga to'la javob beradi[4].

Shuningdek, yoshlar tarbiyasida ta'sir ko'rsatadigan vositalar quyidagilardan iborat: ilmiy-nazariy, siyosiy-metodik, badiiy, ommaviy adabiyotlar; milliy va umuminsoniy qadriyatlар (xalq pedagogikasi, Sharq va G'arb mutafakkirlari merosi, xalq san'ati, an'analar, urf-odatlar, madaniy-ma'rifiy maskanlar va b.q); pedagogik va axborot texnologiyalari, texnika vositalari; radio, telemostlar; teatr; ommaviy axborot vositalari va matbuot; ta'lim-tarbiya (ta'lim muassasalari); oila; jamaot muassasalari, nodavlat va notijorat tashkilotlar; jismoniy tarbiya va sport kabi vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu vositalar orqali ta'lim-tarbiya jarayonini boshqarish yoshlarni milliy g'oya va milliy mafkura ruhida tarbiyalashda samaralar garovidir.

Xulosa qilib aytganda, oilada insonparvarlik tarbiyasi, bolaning etuk shaxs sifatida shakllanishi uchun ota-onalar va katta yoshdag'i oila a'zolari bolaning o'ziga xos sifatlarini yaxshi o'rganishlari kerak. Shaxsni o'rganishda kuzatish, suhbat, tajriba, mehnat mahsulini tahlil qilish, milliy urf-odat, qadriyatlarni singdirish kabi usullardan foydalanish yaxshi samara beradi. Demak, oilada yoshlar tarbiyasini to'g'ri yo'liga qo'yish uchun aniq reja asosida, uzluksiz ravishda tarbiyaviy ta'sir o'tkazish yo'llarini takomillashtirib borish zarur.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi huzuridagi «Mahalla va Oila» ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish to'g'risida Qarori, Qonun hujjalari ma'lumotlari milliy bazasi, 11.06.2020 y., 09/20/367/0741).

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi Qonuni// Ma'rifat gazetasi. 2016 y 17 sentyabr.

3. Gaipnazarov R. Ma'naviy-axloqiy qadriyatlар va yoshlar tarbiyasida uyg'unlik: Ped. fan. nom. diss. – T.: 2011.- 132 b.

4. Akramova SH., Salomov N. Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish omillari. – T.: Ma'naviyat, 2015. – 30 b.



## MALAKA OSHIRISH JARAYONIDA MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYACHILARINING IJODKORLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

**S.S.RAXIMOVA,**

*Maktabgacha ta'lism tashkilotlari direktor  
va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini  
oshirish instituti "Maktabgacha ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri*

*Maqolada malaka oshirish jarayonida maktabgacha ta'lim tashkiloti  
tarbiyachilarining ijodiy sifatlarini rivojlanadirish omillari va samarali usullari, shuningdek,  
ijodkorlikni rivojlanadirish o'quv-tarbiyaviy jarayonning sifat ko'rsatkichlarini oshirish  
omili ekanligi haqida bayon etilgan.*

**Tayanch so'z va tushunchalar:** *ta'lim sifati, pedagog ijodkorligi, ijodiy fikrlash,  
maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachisi, malaka oshirish jarayoni.*

*В статье описаны факторы и эффективные способы развития творческих  
качеств воспитателей дошкольного образования в процессе профессионального  
развития, а также то, что развитие творческих способностей является фак-  
тором повышения качества образовательного процесса.*

**Ключевые слова:** *качество образования, педагогическое творчество, твор-  
ческое мышление, воспитатель дошкольного образования.*

*The article describes the factors and effective ways of developing the creative qualities  
of preschool educators in the process of professional development, as well as the fact that  
the development of creative abilities is a factor in improving the quality of the educational  
process.*

**Key words:** *Quality of education, pedagogical creativity, creative thinking, preschool  
educator, professional development process.*

Hozirgi davrda yoshlarning bilim olish motivatsiyalarini shakllantiruvchi  
mexanizmlarni va o'qitishning yangi shakl, noan'anaviy metodlari orqali ularning  
bilish jarayonlarini faollashtirish tizimini takomillashtirish, ulardag'i kasbiy-pedagogik  
ijodkorligini shakllantirish hamda indikatorlar tizimi orqali ta'lim-tarbiya jarayoni  
sifatini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqib amalga joriy etish metodlari mavjud  
bo'lib, aynan mana shular maktabgacha ta'lim tizimini mazmunan  
modernizatsiyalashni, ta'lim-tarbiya samaradorligini yangi sifat bosqichiga ko'tarishga  
xizmat qiladigan ta'sirchan choralarни ko'rishni taqozo qiladi.

Bugungi kunda nutqimizda "ijodkor bola", "ijodkor pedagog" kabi  
tushunchalar tez-tez uchrab turadi. "Ijodkorlik" tushunchasi faqat pedagogga  
xos tushunchami? Bu tug'ma xususiyatmi yoki uni rivojlanadirish mumkinmi? Agar  
rivojlanadirish mumkin bo'lsa, qanday qilib? kabi savollar tug'ilishi tabiiy holdir.



Shaxsnинг ijodkorligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg‘ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo‘ladi. Ijodkorlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Ijodkorlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, ijodkorlik zehni o‘tkirlikni belgilab beradi, ta’lim jarayonida esa, tinglovchi e’tiborini ta’lim jarayoniga faol jalb etishni ta’minlaydi.

Ijodkorlik – bu insonning borliqni bilish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan ongli, maqsadli faoliyati bo‘lib, uning natijasida yangi, original, ilgari mavjud bo‘lmagan, jamiyatning moddiy va ma’naviy hayotini yaxshilashga qaratilgan buyumlar va boshqalar yaratiladi.

Shuningdek, kutilmagan vaziyatlarda, o‘zgarib turadigan sharoitlarda harakat qilish kerak bo‘lganda o‘zini namoyon qiladi. Ijodkorlik o‘z negizida ijodiy yondashuvni, ijodiy fikrlashni nazarda tutadi.

Ijodiy fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etadi. Pedagogning ijodkorligi esa, u tomonidan tashkil etiladigan kasbiy faoliyatni tashkil etishga ijodiy yondashuviga aks etadi. Sunggi yillarda ushbu holat “pedagogik kreativlik” tushunchasi bilan ifodalanmoqda.

Pedagogik kreativlik (ijodkorlik) - pedagogning an’anaviy pedagogik fikrlashdan farqli ravishda ta’lim va tarbiya jarayonining samaradorligini ta’minalashga xizmat qiluvchi yangi g‘oyalarni yaratish, shuningdek, mavjud pedagogik muammolarni ijobjiy hal qilishga bo‘lgan tayyorgarligini tavsiflovchi qobiliyatidir.

Ijodkorlik nafaqat pedagog kasbiga xos tushuncha, balki barcha soha kasb egalari uchun ham juda muhim va zarur hisoblanadi.

Biz pedagogning ijodkorligi haqida so‘z yuritar ekanmiz, ijodkorlik pedagogik faoliyatning etakchi tarkibiy qismi hisoblanib, mutaxassisni pedagogik mukamallik cho‘qqisiga ko‘taruvchi omil hisoblanadi.

Maktabgacha yoshdagি bolani hamma narsani bilishni, hamma narsani tushunishni va anglab olishni xohlaydigan tinimsiz tadqiqotchi desak bo‘ladi. Uning atrof-muhit haqida o‘ziga xos tasavvurlari mavjud. U atrofida bo‘layotgan voqeа-hodisalarga zavq va ajablanish bilan qaraydi. Predmetlarni ko‘rish bilan cheklanib qolmasdan, qo‘llari bilan ushlab ko‘rishni, boshqa predmetga urganda chiqayotgan tovushga qulop tutishni, ta’mini bilishni va hokazolar orqali sirli va noma’lum bo‘lgan ajoyib dunyoni kashf etadi. Maktabgacha yoshdagи bolalarga zerikish hamda befarqliк umuman xos emas. U o‘zida tug‘ilgan barcha savollarga javob olishni xohlaydi va timmasdan savollar bilan murojaat etadi.

Pedagogning asosiy vazifasi esa, bolalarning qiziquvchanligi va o‘rganishga



bo‘lgan faolligini saqlash hamda rag‘batlantirish, faoliyatning turli sohalariga bo‘lgan qiziqishlarini kuchaytirish, qo‘llab-quvvatlash, bilim olishga bo‘lga ehtiyojlarini qondirish, mustaqilligini rag‘batlantirish va ularda javobgarlikni kuchaytirish, bolalar tomonidan mustaqil faoliyatni tashkil etilishi uchun imkoniyatlar yaratishdan iboratdir. Boladagi mana shunday sifatlar pedagog va ota-onalar tomonidan qo‘llab-quvvatlansa, ularda ijodkorlikning ilk ko‘rinishlari namoyon bo‘la boshlaydi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining ijodkorligi haqida fikr yuritar ekanmiz, avvalo ijodkorlikning mohiyatini mukammal tahlil qilib olish zarur. Ijodkorlik mohiyatini o‘rganish, o‘ta murakkab masala sanaladi, chunki uning zimmasiga insonni va tabiatni o‘rganishning muhim metodologik masalalarini echishdek vazifa qo‘yiladi. Ijodkorlikni rivojlantirish manbaalari, biologik va ijtimoiy, ob‘ektiv va sub’ektiv, individual va jamaoa o‘rtasidagi o‘zaro mutanosiblikni o‘z ichiga qamrab oladi. Bularning natijasida mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati va ko‘nikmalari shakllanadi, loyihalash, tajribaviy va texnologik vazifalarni ijobjiy echish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Kasbiy kompetentsiya va pedagogik ijodkorlik o‘z tuzilishi jihatdan kognetiv, tezkor-faoliyatilik, kundalik, individual shaxsiy va sababiy unsurlar yig‘indisidir.

Mazmun-mohiyatiga ko‘ra, mutaxassisning kasbiy kompetentsiyasi bilimlardan iborat: funksional, ya’ni turli fan sohalarini tashkil etish tamoyillari haqidagi bilimlar, harakat haqidagi amaliy bilimlar, ya’ni metodik va texnologik hamda shaxsnинг o‘z bilimlaridan iborat. Bularning natijasida mutaxassisning kasbiy, kommunikativlik mahorati shakllanadi va pedagogik ijodkorligi rivojlanadi, loyihalash, tajribaviy va texnologik vazifalarni ijobjiy echish imkoniyatlari paydo bo‘ladi.

Bo‘lajak mutaxassisning o‘z kasbiy faoliyatini amalgaga oshirishi uchun quyidagi shaxsiy sifatlar zarur: ijodkorlik, texnik fikr yuritish, o‘z kuchiga ishonish, o‘z kasb mahoratini timmay oshirib borish, jarayonlarni emotSIONAL-qAT’iylik bilan boshqara biliш, kasbiy kompetentsiyani yuzaga chiqishi natijalari shular jumlasidandir.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachisining kasbiy kompetentligini rivojlantirishda insonning ijodkorlik faoliyati, ijodiy fikrlashining asosiy unsurlari shakllanishi darajasi katta katta ta’sir ko‘rsatadi va tarbiyachilik faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodiy (kreativ) kompetentligini amalgaga oshirish uchun, psixologik-pedagogik shart-sharoitlar varatilishi lozim. Tarbiyachilarning ijodkorlik faoliyati pedagogik shart-sharoitlar



yaratishni tasniflash negizida shaxs faoliyatining tarkibiy komponentlari: bilish, ijodiy, kommunikativ, badiiy faoliyatlar yotishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilar faoliyati samaradorligini oshirish bir qancha omillarga bog‘liq bo‘ladi. Har bir omil o‘ziga xos samaradorlikka erishish garovidir. Tarbiyachi faoliyati samaradorligini oshirish, takomillashtirish orqali biz yosh avlodni har tomonlama etuk, barkamol, komil inson bo‘lib etishishlariga erishamiz.

Ijodkorlik qanday namoyon bo‘ladi?

Shu savolga javobni oddiy misol orqali ko‘rib chiqamiz. Ta’lim jarayonini yuksak mahorat bilan olib borayotgan, uni o‘ziga xos va qiziqarli tarzda jo‘shqinlik, zavqu shavq bilan tashkil etayotgan, mavzu mazmunini yanada yoritish uchun rang barang ko‘rgazmalar hamda tarqatmalardan foydalanayotgan, auditoriyadagi tinglovchilarни o‘ziga mahliyo etgan pedagogni tasavvur qilamiz. U, garchi, o‘zini kreativ shaxs yoki ijodkor deb bilmasada, biroq, ijodkorlikni namoyon etuvchi ta’lim jarayonini tashkil etayotganidan, unga imkon beradigan metod, usullarni qo‘llayotganidan o‘zi ham mamnun bo‘ladi, qolaversa, tinglovchilarning hurmatiga va minnatdor bo‘lishlariga erishada. Pedagog ta’lim jarayonida ijodiy metod, usullardan qancha ko‘p foydalansa, o‘ziga va o‘zining ijodiy imkoniyatlari nisbatan ishonchi shuncha ortadi.

Tinglovchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatish, ularda ijodiy tafakkurni shakllantira olish uchun avvalo o‘qituvchining o‘zi ijodkor shaxs bo‘lishni zarur. Bordi-yu, uning o‘zi ijodiy sifatlariga ega bo‘lmasa, u holda qanday qilib, tinglovchilarni ijodiy fikrlashga yo‘naltirish mumkin?

Tinglovchilarning ta’lim olishga bo‘lgan qiziqishini, ularning darslardagi faolligini pedagogning qay darajada ta’lim jarayoniga ijodkorlik bilan yondashuvi orqali aniqlash mumkin.

Pedagogning qay darajada ijodkor ekanligi ta’lim jarayonini tashkil etishidan aniqlab olinsa, auditoriyada ishtirot etayotgan tinglovchini ham qay darajada ijodkorligini aniqlash mumkin bo‘ladi.

Pedagogning ijodkorlik qobiliyati ma’lum vaqt ichida izchil o‘qib-o‘rganish, o‘z ustida ishslash, mustaqil o‘qib o‘rganish orqali shakllantiriladi va u asta-sekin takomillashib, rivojlanib boradi. Har qanday mutaxassisda bo‘lgani kabi bo‘lajak pedagoglarning ijodiy qobiliyatiga ega bo‘lishlari uchun talabalik yillarda poydevor qo‘yiladi va kasbiy faoliyatni tashkil etishda izchil rivojlantirib boriladi. Bunda pedagogning o‘zini o‘zi ijodiy faoliyatga yo‘naltirishi va bu faoliyatni samarali



tashkil eta olishi muhim ahamiyatga ega. Pedagog ijodiy faoliyatni tashkil etishda muammoli masalalarni echish, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, shuningdek, pedagogik xarakterdagi ijod mahsulotlarini yaratishga alohida e'tibor qaratishi zarur.

Pedagogik faoliyat – bu doimiy, ko‘p qirrali ijodkorlikni talab etadi. Pedagogda ijodiy qobiliyatlar va fazilatlar majmui mavjud bo‘lib, ular orasida faoliik va tashabbus, diqqat va kuzatuvchanlik, kuzatuvchanlik va fikrlash san’ati, boy tasavvur va sezgi mujassam bo‘ladi. Chaqaloq dunyoga kelganida bir necha xil qibiliyat bilan dunyoga kelar ekan. Demak, har bir inson ijodiy g‘oyalarini namoyon qilishi uchun zarur bo‘lgan qibiliyatlarga ega ekan. Ammo biz bu boradagi imkoniyatlarimizdan to‘liq foydalamanmas ekanmiz. Har bir shaxs o‘z qobiliyati va diqqati, layoqati va tafakkuri, iqtidori va ijodi hamda xarakter xususiyatlari ustida ishlasa, ularni to‘g‘ri yo‘naltira olsa, bu nafaqat shaxsning o‘zining rivojlanishi uchun, balki jamiyat rivojlanishi uchun ham xizmat qiladi.

### **Foydalanaligan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 22 dekabrdagi “Maktabgacha ta’lim va tarbiyaning davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-802-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirining 2019 yil 30 avgustdagi “Davlat maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagoglarining ish hujjatlari to‘g‘risida”gi 155-sonli buyrug‘i.
3. Turdieva M. Oliy ta’lim muassasalari talabalarida pedagogik tafakkurni shakllantirish. – T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2008. 15-b.
4. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.



## **YOSHLAR G'YOAVIY-SIYOSIY MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH DOLZARB PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

**B.Q.HUSANOV,**

*«Ma'rifat» targ'ibotchilar jamiyatni raisi*

*Mazkur maqolada yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish dolzarb pedagogik muammo sifatida ilmiy asoslab berilgan. Shuningdek maqolada yoshlarimizni jamiyatimizga keng tarqalayotgan “ommaviy madaniyat” ta'siridan himoya qilish, yon atrofsagi voqealarga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish, ongli yashashga – o'z aqli va fikriga, ezgu, insoniy mafkuraga, aniq g'oyaga suyanib yashashga o'rgatish muhim pedagogik vazifa sifatida e'tirof etib o'tilgan.*

**Kalit so'zlar:** yoshlar, g'oyaviy-siyosiy, madaniyat, ilm-fan taraqqiyoti, innovatsiya, ijtimoiy faoliy, diniy aqidaparastlik, milliy ma'naviy qadriyatlar.

*В статье представлена научная база формирования идеино-политической культуры молодежи как актуальная педагогическая проблема. Также важно защитить нашу молодежь от распространения «поп-культуры» в нашем обществе, развить чувство причастности к окружающим событиям.*

**Ключевые слова:** молодежь, культурное, научное развитие, инновации, общественная активность, религиозный фанатизм, духовные ценности.

*The article presents the scientific basis for the formation of the ideological and political culture of youth as an urgent pedagogical problem. It is also important to protect our youth from the spread of “pop culture” in our society, to develop a sense of involvement in the surrounding events.*

**Key words:** youth, ideological and political, cultural, scientific development, innovation, social activity, religious fanaticism, national spiritual values.

Jamiyatimiz hayotida demokratik jarayonlar kechayotgan bir davrda uzlusiz ta'lif tizimida ham bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. “UCHINCHI RENESSANS” – ilm-fan taraqqiyoti innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy taraqqiyot modellari va yuqori natijalari yuksak e'tirof etilayotganligi yoshlar zimmasidagi ma'suliyatni bir muncha murakkablashtirib qo'ydi. Endi yoshlarimiz mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotining, iqtisodiyot va jamiyatning, xalqqa xizmat qilish va ajodolarimiz merosini asrab avaylab, o'zlarining aqlu zakovatini, iqtidor va iste'dod quvvatini bilan yuqori marralarni zabt etishi lozim.

Jamiyatimizda demokratik tamoyillarga asoslangan boshqaruvni tashkil etish, yosh mustaqil davlatimiz ravnaqiga soya solayotgan vayronkor g'oya va mafkuralarga nisbatan aholining mafkuraviy immunitetini qaror toptirish, ayniqsa endigina shakllanib, unib-o'sib kelayotgan yoshlar ongida g'oyaviy-siyosiy



madaniyatni shakllantirish tizimini takomillashtirish, umumbashariy insonparvarlik aqidalariga xos insoniy fazilatlarni tarbiyalash jamiyatning bugungi kungi hayotida bosh va eng dolzarb masalaga aylandi.

Shuni ta'kidlash joizki, yoshlarda g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirish mustaqillikni mustahkamlashda muhim vazifani hal etadi. Chunonchi, g'oyaviy jihatdan etuk shaxs jamiyatning barqaror rivojlanishida, uning taraqqiyotini ta'minlovchi asosiy sub'ekt bo'lib xizmat qiladi. Shu nuqtai-nazardan kelib chiqib, yoshlardan g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirishga innovatsion yondashuv zaruriyati yuzaga keldi. Yoshlar g'oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish tizimini takomillashtirishga innovatsion yondashuv yaxlit pedagogik jarayon sifatida:

– birinchidan, jamiyatda mafkuraviy va g'oyaviy-siyosiy barqarorlikni ta'minlash, jamiyat va fuqarolar manfaatlarini himoya qilish asosida jamiyatdagi tinchlik va osoyishta mulhitni yaratish, yotg'oyalarga qarshi yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirish va shu asosda yagona ezgu maqsadimiz bo'lmish «ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish» uchun zamin hozirlash;

– ikkinchidan, jamiyat taraqqiyotida jiddiy to'siq bo'layotgan diniy aqidaparastlik, ekstremizm va terrorizm kabi ijtimoiy illatlarning oldini olish,unga qarshi kurashish va yoshlardan orasida keng ko'lamda tarqalmasligiga erishish;

– uchinchidan, yoshlarimizni jamiyatimizga keng tarqalayotgan “ommaviy madaniyat” ta'siridan himoya qilish, yon atrofdagi voqealarga daxldorlik tuyg'usini rivojlanirish, ongli yashashga – o'z aqli va fikriga, ezgu, insoniy mafkuraga, aniq g'oyaga suyanib yashashga o'rgatish;

– to'rtinchidan g'arb ommaviy axborot vositalaridagi axloqsizlik targ'iboti, o'zining demokratiya modelini olg'a siljitishning asl maqsad-muddaolarini tushuntirish;

– beshinchidan, jamiyat hayotida saqlanib qolayotgan eski mafkuraviy sarqitlar-ma'naviy buzuqlik, boqimandalik, mahalliychilik kabi noaxloqiy holatlarning oldini olish, yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, yoshlarning tarixiy tafakkurini boyitish, yoshlarda milliy g'ururimiz manbai bo'lgan intellektual salohiyatni shakllantirishda muhim sanaladi.

Jamiyatimizni yanada demokratlashtirish va fuqarolik jamiyati institutlarini shakllantirish, avvalo aholi ayniqsa yoshlardan siyosiy faolligini o'sishi, uning g'oyaviy-siyosiy, ijtimoiy va jamiyat hayotida nechog'li faol ishtirok etishi bilan bevosita bog'liq. G'oyaviy-siyosiy madaniyat shakllanishining milliy-ma'naviy



negizlarini, har ikkala ijtimoiy hodisalarining munosabat muammolarini pedagogik nuqtai nazaridan o‘rganishning dolzarbliqi quyidagilar bilan asoslanadi.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda yoshlar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilayotganligi, murakkab o‘tish davrida yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish va ma’naviyatining o‘sishi bilan mushtarak holda kechadi. Bu muammo jamiyatimizda ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy islohotlar amalga oshirilayotgan, yangilanish jarayoni kechayotgan hozirgi davrda, ayniqsa dolzarblik kasb etmoqda. Chunki olamshumul voqealarga boy, intellektual va axborot texnologiyalari rivoj topayotgan media ta’lim tizimi rivojlanayotgan, g‘arb ommaviy axborot vositalaridagi axloqsizlik targ‘iboti, o‘zining demokratiya modelini olg‘a siljitchishing asl maqsad-muddaolari bilan kirib kelayotgan hozirgi davrda yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirish, ulardan yuqori darajadagi siyosiy madaniyatga ega bo‘lish talab etiladi. Buni shakllantirishni esa bolalikdan boshlash maqsadga muvofiqdir.

Albatta yoshlarda g‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllantirish tizimini takomillashtirish, oilaviy tarbiya unda amalga oshirilayotgan huquqiy, estetik, axloqiy, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, ekologik, iqtisodiy tarbiya zamirida amalga oshiriladi.

“G‘oya” tushunchasining hozirgi zamon ilmiy talqiniga muvofiq, u ob‘ektiv vogelikning inson tafakkuridagi in’ikosi bo‘lib, ayni paytda, in’ikosi bo‘lib, ayni paytda, inson ongi, borliqni aks ettirish bilan birga, o‘zida bilish jarayonini yanada chuqurlashtirish va amaliy hayotni ijodiy o‘zgartirishning keng, chuqur imkoniyatlarni mujassam etadi hamda o‘z navbatida, uning o‘zi ham ularning rivoji negizida muttasil taraqqiy topib boradi. G‘oya borliqni to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri aks ettirish mumkin. Shunga qarab, u jamiyatning rivojiga yoki tanazuliga xizmat qiladi”.

G‘oyaviy-siyosiy madaniyat-huquqiy siyosiy bilimlar, milliy g‘oya va mafkura asoslarini chuqur va atroficha o‘rganish, axloqiy bilim, malaka va ko‘nikmalar, ahloqiy ishonch, axloq qoidalari yordamida yoshlarning xulq-atvori, hatti -harakatlarini boshqarish tizimidir. G‘oyaviy-siyosiy madaniyat yoshlarning ko‘p qirrali faoliyati davomida shakllanadi va takomillasha boradi.

G‘oyaviy-siyosiy madaniyatning ko‘rinishlari, uning qirralari va namoyon bo‘lish shakllari xilma-xil. Insonparvarlik, halollik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, erksevarlik, faoliik, ijodkorlik, haqiqatgo‘ylik, ma’suliyatlilik, saxiylik, kamtarlik, poklik va shu kabi qator muhim tushunchalar g‘oyaviy-siyosiy madaniyat tushunchalaridir. Bu xislatlar faoliyat jarayonida g‘oyaviy madaniyatning boshqa madaniyat qirralari bilan birgalikda yoshlar ongi va xulqiga ta’sir etadi.



G‘oyaviy-siyosiy ong siyosiy madaniyatning negizini tashkil etadi. G‘oyaviy-siyosiy madaniyat faoliyat jarayonida o‘z ifodasini topadi. Uning mezoni milliy o‘zlikni anglash, huquqiy bilim va savodxonlikka ega bo‘lish, fikr va tafakkur erkinligi hisoblanadi. Yoshlarning g‘oyaviy-siyosiy onglilik darajasi uning tabiatida vatanparvarlik,adolatparvarlik, millatiga xalqiga sadoqat, do‘stlik, baynalminallik, tolerantlik kabi axloqiy sifatlarni namoyon etadi. Shuning uchun g‘oyaviy-siyosiy madaniyatning muhim vazifalaridan biri-g‘oyaviy siyosiy ongini yuqori pog‘onaga ko‘tarishdir. Shu boisdan g‘oyaviy-siyosiy onglilik darajasini etukligiga erishish nihoyatda uzoq davom etadigan va murakkab jarayon bo‘lib, u insoniyat qo‘lga kiritgan barcha milliy siyosiy g‘oyaviy yutuqlarni o‘zlashtirish va shu bilan bir qatorda, muayyan sharoit taqozo etgan muammolarni bartaraf etish jarayonida amalga oshadi.

G‘oyaviy-siyosiy madaniyat insonning ma’naviy, madaniy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatdan kamolga etkazuvchi jarayondir. G‘oyaviy-siyosiy madaniyatni shakllanirish jarayoni bolalikdan boshlanadi. Yoshi ulg‘aygan sari g‘oyaviy-siyosiy fikrlash jarayoni kengaya boradi. G‘oyaviy-siyosiy madaniyatni kishi faqat oilada, bolalar bog‘chalarida, maktabda, kollej, litseylarda, mактабдан ташқари о‘quv jarayonida, oliv o‘quv yurtlarida emas, balki umr bo‘yi hayotdan ham oladi. Hayot o‘sib rivojlanib borganidek, g‘oyaviy-siyosiy fikrlash jarayoni ham o‘sib, yangi-yangi qirralar kasb etib boradi. G‘oyaviy-siyosiy madaniyat inson tafakkuri mahsuli bo‘lib, u insonning ma’naviy etukligini, tarbiyali ekanligini ko‘rsatadi. U ta‘lim-tarbiyaning jarayonining asl mahsulidir. Ong, fikrning suyanchig‘i bo‘lgan g‘oyaviy-siyosiy madaniyat-barcha fazilatlarning sha‘ni va hikmatidir.

G‘oyaviy-siyosiy madaniyat-Vatanga, jamiyatga, millatga, tilga, urf-odatga, tarixga, kelajakga, tabiatga, jamiyatga bo‘lgan munosabatlarda kishilarning bir-birlariga, oilaga qilgan hatti-harakatlarida, fe'l-atvorning, dunyoqarashning norma va qoidalarida namoyon bo‘ladi. Jamiyat manfaatini ko‘zlash, ma’suliyatli bo‘lish, g‘oyaviy-siyosiy mdaniyatli kishining vazifasidir. Chunki, ma’suliyat, ongli faoliyat jamiyat, oila va inson hayotining o‘ziga xos maromini belgilaydi. Kishi o‘z hayotida qanchalik g‘oyaviy-siyosiy darajasini boyitib borsa, shunchalik o‘z dunyoqarashini boyitib kamchiliklarini tuzatib anglab boradi va bu jarayon bevosita, odamniig o‘zini- o‘zi anglashi davomida, u nisbiy barqarorlikka erishguniga qadar, uni o‘rab turadigan va ko‘shincha uning «Men» ining shakllanishiga ham pozitiv, ham negativ ta’sir etadigan ijtimoiy maskan oilada amalga oshiriladi.



G‘oyaviy-siyosiy madaniyat hozirgi zamon yoshlari kundalik ma’naviy fazilat bo‘lib qolishi, ikkinchidan, yoshlarimizning ongi va faoliyati demokratik jamiyat yaratishga qaratilgan bo‘lishi, uchinchidan, huquqiy davlat yaratishga o‘z hissasini qo‘shishga tayyor bo‘lishini taqozo etadi. To‘rtinchidan esa, har bir g‘oyaviy-siyosiy jihatdan madaniyatli bola o‘z faoliyatida oshkoraliq uchun kurash olib borishi zarur. Bunday xususiyatlarni o‘z xulq-atvorida mujassam eta olgan farzandlarimiz o‘z hayotida har qanday og‘ir vaziyatda paydo bo‘lgan muammolarni muzokara, munozara, musohaba yo‘li bilan hal qilishga intildi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlar g‘oyaviy-siyosiy madaniyatini shakllantirishda ularning aqliy, axloqiy, estetik, badiiy, siyosiy, diniy va dunyoviy huquqiy va ekologik qirralari yaxlib, bir-biri bilan o‘zaro aloqada ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sirning samaradorligi esa ta’lim-tarbiya jarayonida yoshlarning ma’naviy qiziqishi, talab va ehtiyojini hisobga olish, bu xususiyatlarning jamiyat ma’naviy taraqqiyoti talablari bilan mosligi, ma’naviy-madaniy manbalardan bolalar yosh va ruhiy xususiyatlariiga mos ravishda samarali foydalanish, ta’lim-tarbiya jarayonini samarali shakl, usul va vositilari asosida tashkil etish, ta’lim tarbiya mazmunini umuminsoniy va milliy qadriyatlar negiziga qurish kabi muhim pedagogik talablarga rioya etishga bog‘liq.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

- 1.O‘zbekiston Recpublikasi Prezidentining “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonuni// Ma’rifat gazetasi. 2016 yil 17 sentyabr.
2. Mamashokirov S, A.O’tamurodov, E.R.Qodirova, M.Ortiqov, Sh.Tog‘ayev, O.Muxammadiyeva. Milliy taraqqiyotning g‘oyaviy-mafkuraviy asoslari. O‘quv qo‘llanma T.: 2010. - 42 b.
3. Muxtorov A. Globallashuv sharoitida ma’naviy tahdidlarni bartaraf etish omillari. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 31 b
4. Erkaev A. Ommaviy madaniyat va ma’naviy tarbiya. – T.: Ma’naviyat, 2015. – 30 b.



## BO'LAJAK IQTISODCHILARNI O'QITISHDA «JUST IN TIME» KONSEPSIYASIDAN FOYDALANISH

**N.P.KURBANOVA,**  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti*  
*“Ingliz tili” kafedrasи*

*There are a lot of claims about the term “Just in Time” concept and its appropriateness in teaching process. Some researchers even doubt about the target term being a concept at all. The current article demonstrates the utilization of the “Just in Time concept” in ESP teaching process and its drawbacks as well. Not a secret, the profession of Economist requires the specific skills and abilities, due to the importance of data they provide, to be correct and detailed.*

**Key words:** *ESP, Concept, drawbacks, economists, “just in time” exercises.*

*“Just in Time” konsepsiyasi va uning o‘quv jarayoniga mosligi to‘g‘risida ko‘plab da‘volar mayjud. Ba‘zi tadqiqotchilar, maqsadli atama kontseptsiya bo‘lishiga umuman shubha qilishadi. Hozirgi maqola ESP o‘qitish jarayonida “Just in Time” kontseptsiyasidan foydalanish va uning kamchiliklarini namoyish etadi. Sir emaski, iqtisodchi kasblari ma‘lumotlarning to‘g‘ri va batafsil bo‘lishi muhimligi sababli o‘ziga xos mahorat va ko‘nikmalarini talab qiladi.*

The article scientifically and theoretically highlights the problem of increasing the effectiveness of the spiritual and educational activities of woman as a socio-pedagogical problem. It also discusses the importance of implementing measures to improve morale and educate women.

**Key words:** state, women, spiritual education, morality, public consciousness, values, education, upbringing, gender, legal.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdagি PQ-5020-son “Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorida “hududiy xotin-qizlar jamoatchilik kengashlari, mahallalardagi “Ayollar maslahat kengashlari” faoliyatini muvofiqlashtirish, ularning davlat va jamoat tashkilotlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash, ularga uslubiy-amaliy ko‘maklashish” masalalariga alohida urg‘u berib o‘tilgan [1].

Ma'lumki, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan barcha qonun hujjatlari xalqaro huquqiy me'yorlarga asoslanadi. Aytish o'rinniki, O'zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyoda birinchilardan bo'lib ayollar huquqini xalqaro me'yor va huquqiy standartlarga muvofiqligini ta'minlash maqsadida “Ayollar huquqlari kamsitishining barcha shakllariga barham berish to‘g‘risida”gi (CEDAW), ayollarning siyosiy huquqlari haqidagi, onalikni muhofaza qilish haqidagi xalqaro konvensiyaga qo'shildi.

Millatning o'ziga xos ma'naviyatini shakllantirish va yuksaltirishda,



shubhasiz, oilaning, oilada esa ayolning o‘rni va ta’siri beqiyosdir. Chunki insonning eng sof va pokiza tuyg‘ulari, ilk hayotiy tushuncha va tasavvurlari bиринчи galda oila bag‘rida va ona tarbiyasi bilan shakllanadi.

Mamlakatimizda xotin-qizlarimizning jamiyatdag‘i o‘rni, ularning oilaga bo‘lgan munosabatlari, ijtimoiy hayotdagi roli g‘oyat muhim ahamiyatga egaligi bois ularning mavqeい har jihatdan yuqori baholanmoqda. Huquqiy davlat va demokratik jamiyat qurish yo‘lidan dadil odimlab borayotgan mamlakatimizda xotin-qizlarning erkaklar bilan barcha sohada tengligini ta’minlashga, ularni ulug‘lash va qadrlashga, qonuniy huquq va manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan milliy huquq tizimi yaratilayapti.

Tajriba va kuzatuvlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish rivoji jamiyat ijtimoiy hayotida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ular bilan maqsadli ishlarni tashkil etish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash va sog‘lomlashtirishning samarali mexanizmlarini yaratishga to‘sqinqlar qilayotgan bir qator tizimli muammo va kamchiliklar ham mayjudligini ko‘rsatmoqda. Quyida mazkur kamchilik va muammolarining asosli echimi beriladi:

- xotin-qizlarning ma‘naviyati va ma‘rifatini yuksaltirishga qaratilgan ma‘naviy-ma‘rifiy ishlarni, loyihalarni ijroga yo‘naltirish;
- sharqona qadriyat va an‘alar asosida xotin-qizlarning ijtimoiy pedagogik bilimlarini yanada oshirish;
- xotin-qizlarning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish;
- xotin-qizlarning bandligini ta’minalash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni olib aviyya va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama manzilli qo‘llab-quvvatlash muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi[2].

Bugungi kunda xotin-qizlarni jamiyat hayotidagi nufuzini ta’kidlash bilan birgalikda, ularni ma‘naviy-ma‘rifiy faolligi samaradorligini oshirish omillarini o‘rganish, ayniqsa, oilada ma‘naviy-axloqiy tarbiya ishini muntazam olib borish katta ahamiyatga ega bo‘lgan dolzarb masaladir. Buning uchun esa yuqorida qayd etib o‘tgan muammolar echimini xotin-qizlarning bilimini mustahkamlash, ijtimoiy-ma‘naviy muhitni sog‘lomlashtirish masalalarida mahalla fuqarolar yig‘inidagi “Ota-onalar universitetlari”ning o‘ziga xos vazifalari belgilab berilgan.

Albatta, har bir oila istiqomat qiladigan makon mahalla bo‘lib, u ayni paytda milliy qadriyatlar maskani hamdir. Bugungi kunda “Mahalla – ham ota, ham ona” degan hikmatli naql fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organi hisoblangan mahallalar misolida tobora mustahkamlanib bormoqda.

Bilamizki, har bir fuqaro va oilaning jamiyatda o‘z o‘mi bo‘ladi. Oilalardan



tashkil topgan mahalla esa butun boshli mamlakatning boshlang‘ich bo‘g‘ini, muhim ustuni sanaladi. Mahallada oilalar bilan hamkorlikda mehnat ilg‘orlari, ilm-fan xodimlari, namunalni oilalar, mehnat va urush faxriylari bilan uchrashuvlar uyuşhtirib borish, pedagog va psixologlar oilalar bilan hamkorligida turli xil tadbirlar, (“Navro‘z” ayyomi, shanbaliklar,) adabiy kechalar, sport musobaqalari o‘tkazish, kinoteatr, televideniya ko‘rsatuvlaridan, radio eshittirishlaridan foydalanish vatanimizni istiqlol va taraqqiyotini mustahkamlashga, kelgusida yosh avlodni har tomonlama etuk biliimli, ongli, tadbirkor, yuksak axloqiy fazilatlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Mahalla jamiyatimizning asosiy yachevkasi bo‘lgan oilalarning farovonligi, tinch-totuvligi va hamjihatligini ta‘minlovchi maskan ekan, bu maskanda ulg‘ayayotgan har bir oilaning farzandi uchun qayg‘urish, ma’naviy -ma’rifiy faoliigini samaradorligini oshirish ularning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy-axloqiy, ta’lim-tarbiyasi bilan shug‘ullanish masalasida ham mas’uldir[3].

Ta’kidlash joizki, jamiyatdagi ma’naviy-axloqiy muhitning sog‘lomligi ko‘p jihatdan oilaviy madaniyat hamda mahallalarda olib boriladigan tarbiyaviy ishlarga bog‘liqdir. Ilmiy-pedagogik, psixologik, falsafy asarlarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, oila bola uchun eng muhim tarbiyaviy muhit bo‘lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan xulq-atvor, iroda va dunyoqarash shakllanadi.

Adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, oilada farzand tarbiyasiga e’tibor ko‘proq ayol zimmasisiga tushadi. Demak, oila ma’naviyati xalqimizning bir necha ming yillarga tutash milliy qadriyatlarini mustahkamlash bilan bog‘liq. Ma’lumki, ta’lim va tarbiya shaxsnı kamol toptirishning asosiy usullari bo‘lib, u turli ijtimoiy institutlar, muassasa va tashkilotlar tomonidan amalga oshiriladigan, muayyan maqsadga qaratilgan ijtimoiy faoliyat va tadbirlar tizimi bo‘lib hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya kishilar, avvalo yoshlar ongi va ruhiyatiga ta’sir etish orqali inson shaxsini shakllantirishdan iborat yaxlit ijtimoiy jarayondir.

“Ma’naviyat – barcha tarbiyalarning mustahkam ildizidir” – deb bejiz aytilmagan xalqimizda. Zero, odob-axloq va ta’lim-tarbiya asli ma’naviyatdan boshlanadi. Ma’naviyat – insonning ichki dunyosi, qalbi va ongi bilan bog‘liq bo‘lib, uning butun vujudi, faoliyati, xatti-harakatlarini belgilovchi falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, diniy va shu kabi tasavvurlari majmuidir.

Ma’naviyatni shakllantiruvchi omillar xilma-xil bo‘lib, uni odam umri davomida egallab boradi. Bola, dastavval, oilada ota-onasidan eshitgan va ko‘rgan-bilganlariga amal qilsa, so‘ngra bog‘cha, maktab, kollej va litseylarda murabbiy va o‘qituvchilar ko‘magida o‘zining ma’naviy dunyosini rivojlantira boradi. Masalan, murg‘ak bolaning ma’naviy dunyoqarashi ham sodda bo‘lib, murakkab ma’naviy tushunchalarini hali anglab eta olmaydi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ma’naviyat odamga asta-sekin, yillar mobaynida singdirib boriladigan murakkab jarayon. Agar odamda yuksak ma’naviyat, aql-farosat va tafakkur shakllansa, uning barcha faoliyatiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.



Mahallada xotin-qizlar ma'naviy – ma'rifiy faoliigi samaradorligini oshirish tarbiya - ta'lim jarayonining boshqa turlari bilan chambarchas bog'liqdir:

– jismoniy tarbiya (salomatlikni mustahkamlash, jismoniy baqvват bo'lish, organizmni chiniqtirish, jismoniy mashqlar orqali organizmga ijobiy ta'sir o'tkazish);

– ma'naviy-ruhiy tarbiya (muomala va o'zini tutish madaniyati, muloqot madaniyati, o'z salomatligi va birovlar salomatligiga mas'uliyatli yoshdoshish, salomatlikning ma'naviy talablariga amal qilish);

– mehnat va estetik, gigienik tarbiya (gigiena talablariga rioya qilish, mehnat qilish, jismoniy va aqliy mehnat samaradorligiga rioya qilish, hayotdan zavq olish, estetik tafakkurni shakllantirish);

– intellektual tarbiya (turli qarashlar bilan tanishish va o'z tafakkurini shakllantirish) kabi yo'naliishlar o'z mohiyatiga ko'ra sog'lom turmush tarbiysi doirasidagi ta'lim-tarbiya turlaridan hisoblanadi[2].

Xulosa qilib aytganda, mahalla uzlusiz ta'lim va tarbiya tizimining muhim bosqichlaridan biri bo'lib, ta'lim jarayonidan tashqarida aholini ma'naviy-ma'rifiy faoliigi samaradorligini oshirishning muhim manbai hisoblanadi. Mahalla tizimi orqali xotin-qizlar ma'naviy-ma'rifiy faoliigi samaradorligini oshirish ular tafakkuri va ma'naviyatini sog'lomlashtirish, turli tadbirlar va amaliy ish faoliyatlarini olib borishda mahallalarda o'ziga xos tajriba jamlangan bo'lib, bu tajribani ilmiy o'rganish, shuningdek bu tajribani pedagogik mazmun, shakl va metodlar bilan boyitish asosida takomillashtirish, sog'lom turmush tarzining pedagogik-psixologik aspektlarini ishlab chiqish asosida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish bugungi kunning muhim vazifalaridan hisoblanadi.

### Foydalilanigan adabiyotlar:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 5 martdag'i PQ-5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. [www//lex.Uz](http://www.lex.Uz).

2. Abduraximova F.YU. Mahallada qizlarni sog'lom turmush tarzi asosida oilaga tayyorlashning pedagogik asoslari: Ped. fan. nom. ... dis. – T.: O'zPFITI, 2007. - 171 b.

3. Davronova D.S. Preparing Young People to Social Relations on the Basis of Formation ideological and Political Culture in the Family Preparing Young People to Social Relations on the Basis of Formation ideological and Political Culture in the Family Eastern European Scientific Journal. ISSN. 2199-7977 Ausgabe 3-2016 47-49.



## **NOFILOLOGIK TALABALAR UCHUN INGLIZ TILINI O‘QITISHDA «FLIPPED CLASSROOM» MODULINI QO‘LLASH ORQALI TA’LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISH**

**SH.X.BERDIYOROVA,**  
*Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Ingliz tili  
kafedrasи o‘qituvchisi,*

*O‘qituvchilar uchun talabalarning talabalarini qondirish va mashg‘ulotlarning samaradorligini oshirish uchun yangi texnologiyalardan xabardor bo‘lish juda muhimdir. “Flipped” modulini ixtiro qilish, yaratish va amalga oshirish so‘nggi pedagogik amaliyotda muhim voqeа bo‘ldi. Talabalar ko‘proq moslashuvchanlikdan foydalanadilar, chunki ular xohlagan vaqtida izlashlari mumkin. Bundan tashqari, asosiy tushunchalar o‘girilgan sinfda qo‘llanilgandan so‘ng, o‘qituvchilar seminarlarni yanada jozibali qiladi va mavzularni batafsilroq muhokama qilishga e’tibor beradi.*

**Kalit so‘zlar:** “flipped classroom”moduli, pedagogika, mashg‘ulot, motivatsiya, texnologiya.

*Учителям крайне важно оставаться в курсе новых технологий, чтобы соответствовать ожиданиям учащихся и повышать успеваемость в классе. Изобретение, создание и внедрение “flipped classroom” явилось значительным шагом вперед в педагогической практике последнего времени. Студенты извлекают выгоду из большей гибкости, поскольку они могут исследовать, когда захотят. Кроме того, после отработки основных понятий в перевернутом классе учителя сделают семинары более увлекательными и сосредоточатся на более подробном обсуждении тем.*

**Ключевые слова:** перевернутый класс, педагогика, вовлеченность, мотивация, технологии.

*It is crucial for teachers to be aware of newly developed technologies and enhance their digital literacy to meet students’ expectations and increase effectiveness of learners’ outcomes both in and out of the classroom. The main features of human beings, such as, invention, creation, and implementation of the flipped classroom has become a significant expansion in recent pedagogy. Due to the new methods of the target model students can benefit in terms of flexibility as they are able to research and obtain new knowledge whenever they want. Furthermore, after basic concepts have been practiced in a flipped class model, teachers coordinate seminars making them more interactive and focused on discussions and analyzing given topics in more details.*

**Key words:** Flipped classroom, pedagogy, engagement, motivation.

Talabalarning chet tilini o‘rganishsga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish, haqiqiy maxsus matnlardan foydalanish, talabalarning kommunikativ amaliyotining barcha turlarini kengaytirish va o‘qitishga individual yondashishni amalga oshirish ingliz



tilini aniq maqsadlar uchun (ESP) o‘qituvchisi hal qiladigan eng muhim muammolardan biridir. Boshqa tomondan, talabalar kelajakdagi kasblarida yanada muvaffaqiyatli bo‘lishlari uchun amaliy til ko‘nikmalarini yaxshilashni umid qilishadi.

Flipped sinf modelini tafbiq etish talabalar va o‘qituvchilarning o‘rganishdan umidlari va uning natijalari o‘rtasidagi farjni bartaraf etishi mumkin. Ushbu model o‘quvchilarni ma’lumot to‘plash va yangi olingan bilimlarni qo‘llashga faol jalb qilishni talab qilish orqali o‘qitish uslubini farqlashga olib keladi. Ushbu maqolada Toshkent iqtisodiyoti universiteti misoldida foydalanilgan holda Oliy ta’lim (OT) kontekstida o‘zgargan sinfnинг samaradorligi keltirilgan. Ushbu maqolaning maqsidi so‘nggi pedagogik amaliyotdagi eng so‘nggi metodlardan birining kuchli va kamchiliklarini o‘rganishdir.

“Flipped” modelli turli xil ma’nolarga ega, ammo ko‘pchilik ta’riflarga kura bu o‘quvchilarga o‘zlariga qulay vaqtida va tanlagan joylarida berilgan vazifalarini yakunlash imkoniyatini berib, o‘quv jarayonida ko‘proq moslashuvchanlik imkoniyatini beradi. Hamdan va boshqalarning fikriga ko‘ra (2013, 4-bet) «Flipped Learning» modelida o‘qituvchilar to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’limni keng jamoatchilikning ta’lim doirasidan va individual texnologiyalar maydonidan foydalaniib, ko‘plab texnologiyalardan birini qo‘llaydilar.

Bundan tashqari, Herreid (2013) ushbu g‘oyani qo‘llab-quvvatladi “Flipli sinf an’anaviy o‘qitish uslublaridan farq qilib, talabalarining mustaqil ta’lim kunikmalarini shakllantiradi, shuningdek darsdan tashqari shug‘ullanishni ta’minkaydi va uy vazifasi sinfda muhokama qilinadi. Stumpenhorst (2012), boshqa tomondan quyidagicha fikrni yuritgan “flipped modelda o‘qituvchilar talabalarni jalb qilishda o‘zlarining maxsus o‘zlarining texnikalaridan foydalishni afzal ko‘rishiadi.”

Mangan (2013) ma’lumotlariga ko‘ra bu model talabalarga uuda planshet, noutbuk yoki kompyuterda o‘qishga imkoniyat beradi, bunda videodarslar keng tarqalgan va muvaffaqiyatli usuli hisoblanadi. Boshqa bir olim Deyk (2013) bu model o‘quvchilarga o‘zlariga qulay vaqtida videooni orqaga qaytarish yoki slaydlarni ko‘rib chiqish va shu orqali mavzuni qayta ko‘rib chiqish imkoniyatini beradi degan fikrni ilgari surdi.


Acedo (2013) tomonidan tushuntirilgandek bu flipped model talabalarga o‘zlarining bush vaqtி faoliyatga asoslangan ta’lim strategiyalari orqali bilim olishga imkon beradi. Loyihaning har qanday muvaffaqiyati texnologiyalarni qo‘llashni aks ettiradi, bu darslarning o‘tkazilishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, Crouch (2014) ta’kidlaganidek, odatdagи yuzma-yuz o‘qitish natijalari bilan taqqoslaganda, talabalar faoliyati bu model orqali ko‘proq yaxshilanadi. Flipped model, shuningdek, ingliz tili o‘qituvchilarga sinfda ko‘p vaqtini mashg‘ulotlarga ko‘proq vaqt ajratish imkoniyatini berib, o‘qitish vaqtini ancha samarali qildi.

Flipped modelining foydali jihatlari va kamchiliklari. Bu modeldan sinfda foydalanganda talabalar ham, o‘qituvchilar ham turli xil imtiyozlardan



foydalanadilar. Ushbu imtiyozlarga talabalarning faolligi va o‘rganish moslashuvchanligini oshirish kiradi. Talabalar o‘zlarining tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini va mashg‘ulotlarda faolligini oshiradilar.

Talley va Scherer (2013) va Wallace (2014) so‘zlariga ko‘ra, u o‘quvchilarning diqqat markazini oshirish tufayli darslar sifatini tubdan o‘zgartirdi. Aniqrog‘i, bu o‘qituvchilarga qiynalayotgan o‘quvchilar bilan yakkama-yakka muloqot qilish imkoniyatini beradi. Ko‘chirilgan modelni qo‘llash talabalarga Bloom taksonomiyasining yuqori, murakkab bosqichlariga e’tibor qaratishga yordam beradi (Marshall va DeKapua 2013). 1-rasmga qarang.



Ko‘rinib turibdiki, bu model an’anaviy darslarga qaraganda samaraliroq ko‘rinadi, bu yerda o‘quvchilar faqat eslab qolish va tushunish ko‘nikmalariga e’tibor berishadi, flipped modelida esa ularni baholash hamda ijodiy qibiliyatlarini yaxshilashga imkon beradi.

Bundan tashqari, uning kamchiliklarini ham eslatib utish joiz. Talabalarning qatnashish uchun ilhomlantrishi, texnik muammolar, mavzuni tayyorlashdagi vaqt muammosi kabilardir. Jonson (2013) ta’kidlaganidek, bu modelning samaradorligi butunlay talabalarning topshirqlarini o‘z vaqtida bajarishga tayyor bo‘lishiga bog‘liq. Ammo, agar talabalar videoroliklarni tomosha qilmasalar yoki testlarni ko‘rsatmalarga muvofiq bajarmasalar, talabalar keyingi seminarda mavzuni batafsilroq o‘rganib chиqa olmaydilar. Bundan tashqari, bu turdagи uqitish uslubi muvaffaqiyati butunlay noutbuk, planshet yoki kompyuter kabi elektron qurilmalarga bog‘liq, agar talaba yetarli darajada ishlamasaga, ular o‘rgana olmaydi.

Burton (2013) ma‘lumotlariga ko‘ra, materialni tayyorlash uchun ziar bo‘lgan vaqt (masalan, PowerPoint slaydlari va videofilmlari) ko‘p o‘qituvchilar uchun juda ko‘p mehnat talab qiladi va og‘ir bo‘ladi, ayniqsa, agar ular ta‘lim texnologiyalaridan foydalanishda yetarli kunikmagina ega bulmasa.

To‘g‘ri, aksariyat chet tillari o‘qituvchilari (EFL) o‘qitish uslubini takomillashtirish uchun doimo innovatsion usullarni izlaydilar. O‘zbekistonidagi



EFL sinflarining aksariyatida talabalar o‘zlarining o‘qishlari uchun mas’uliyatni o‘z zimmalariga olish qobiliyatiga ega emaslar, ular faqat sinfdagi mashg‘ulotlarga ishonadilar. Biroq, ushbu model talabalarning faolligini oshirish hamda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini oshirish uchun katta imkoniyat yaratadi. Bundan tashqari, ushbu yondashuv o‘qituvchiga bog‘liq bo‘lmagan holda talabalarning avtonom ta’limini oshirishi mumkin.

Ushbu model an’anaviy usullardan sinf faoliyati jihatidan farq qiladiganligi sababli. Foyda nuqtai nazaridan qaraladigan bulsa, sinf o‘qituvchilarga darslarni qiziqarli bo‘lishini ta’minlaydi, bu esa seminarlarning yanada jozibali bo‘lishiga va o‘quvchilarning o‘zlashtira olmagan tomonlarini hal qilishga yordam beradi.

Eng muhim afzallikklardan biri bu o‘qituvch-talaba o‘zaro faol munosabatda buladi. O‘quvchilar, bu turdagi o‘qitishdan ko‘proq foyda olishadi. Buning sababi shundaki, ular endi o‘z tezligida o‘qiy olishlari va kerak bo‘lganda materiallarni ko‘rib chiqishlari mumkin - bu an’anaviy sinf sharoitida mumkin bo‘lmagan narsa. Talabalarning muvaffaqiyat darajasi va davomat darajalariga ham ta’sir qilishi mumkin.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Becker, W. E. & Watts, M. (2001a). AQSh bakalavriat iqtisodiyoti kurslarida o‘qitish usullari. Iqtisodiy ta’lim jurnali, 33, 269-79
2. Chickering, A. & Ehrmann, S. C. (1996). Yetti ta printsipni amalga oshirish: Texnologiya qo‘llanilishi. AAHE byulleteni, 3-6 oktyabr.
3. Chickering, A. & Gamson, Z. (1991). Bakalavriat ta’limida yaxshi amaliyot uchun ettita printsipni qo’llash. Ta’lim berish va o‘qitishning yangi yo‘nalishlari, 47, San-Frantsisko, Kaliforniya: Jossey-Bass.
4. Novak, G., Patterson, E., Gavrin, A. va Kristian, V. (1999). Vaqt vaqt bilan o‘qitish: Faol ta’limni veb-texnologiyalar bilan aralashtirish. Yuqori Saddle River, NJ: Prentice Hall.
5. Zigfrid, J. Saunders, P., Stinar, E., & Zhang, H. (1996). Amerikada kirish iqtisodiyoti qanday o‘qitiladi? Iqtisodiy so‘rov, 34, 182-92.



## UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA KREATIV FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN TEXNOLOGIYALARINING TA'SIRI

**D.A.NAZIROVA,**

*O'zDJTU Pedagogika va psixologiya kafedrasi o'qituvchisi*

*Maqolada ta'lismi-tarbiya, texnika va ishlab chiqarish, ya'ni inson faoliyatining barcha sohalarida axborotni kompyuter va telekommunikatsiyalar yordamida qayta ishlash, saqlash, uzatish bilan bog'liq muammolar o'rganiladi.*

**Kalit so'zlar:** ta'lismi-tarbiya, axborot texnologiyalari, kompyuter, kreativ fikrlash, yosh xususiyatlari, maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar.

*В статье исследуются проблемы, связанные с обработкой, хранением, передачей информации во всех сферах образования, технологий и производства, т.е. деятельности человека с помощью компьютеров и телекоммуникаций.*

**Ключевые слова:** образование, информационные технологии, компьютер, творческое мышление, возрастные особенности.

*The article examines the problems associated with the processing, storage, transmission of information in all spheres of education, technology and production, i.e. human activities through computers and telecommunications.*

**Key words:** education, information technology, computer, creative thinking, age characteristics, preschool children.

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan o'zgarishlarning bosh sababchisi va harakatga keltiruvchi kuchi inson, uning barkamol rivojlanishi hamda farovon turmushi, shaxs manfaatlarini amalga oshirish amaliy mexanizmlarini va sharoitlarini yaratish masalasi bo'lib hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida mavjud zamonaviy ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlarda kasbiy ta'limgamiyatning muhim ijtimoiy institutlaridan biri hisoblanib, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy vazifalarni amalga oshiradi.

Bugungi, global axborot rivojlanishi davrida er, tabiat, inson ilmiga qiziqishlar ortib bormoqda. Dunyo olamida bo'lg'usi maktabgacha ta'limga muassasalaridagi bolalarni maktabga tayyorlashda barcha fanlarlar (ona tili, tarix, matematika, informatika, axborot texnologiyalari va h.k.) asos hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari keng ma'nodagi fan bo'lib, ta'lismi-tarbiya, texnika va ishlab chiqarish, ya'ni inson faoliyatining barcha soxalarida axborotni kompyuter va telekommunikatsiyalar yordamida qayta ishlash, saqlash, uzatish bilan bog'liq bo'lgan yagona sohadir.



O‘z navbatida insonning ixtiyoriy faoliyati doirasi, shu bilan birga fanning har bir tarmog‘i, xoh tabiiy, xoh ijtimoiy bo‘lsin, undagi axborot o‘zining maxsus tomonlari bilan tavsiflanadi. Masalan, ta’lim-tarbiya haqida aytadigan bo‘lsak, bu shu soha tarbiyachilarining xizmat burchlarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun zarur bo‘lgan, doimo yangilanib turuvchi bilim va ma’lumotlar to‘plami bo‘lib hisoblanadi.

Maktabgacha ta’limning Davlat xarakteri, uning xalq ta’limi tizimida tutgan o‘rni. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’lim tizimining boshlang‘ich turi hisoblanadi.

Maktabgacha ta’lim, bola shaxsini maktabgacha yoshdagi bolalar ta’limtarbiyasiga qo‘llaydigan Davlat talablariga muvofiq jismonan sog‘lom va yetuk, aqlan ziyrak, sog‘lom fikrlaydigan mактабда о‘qishga tayyorlangan tarzda shakllantirish maqsadini ko‘zlaydi. Maktabgacha ta’lim uzluksiz ta’limning hamma turlari bilan mustaxkam aloxida olib boriladi. Maktabgacha ta’lim muassasasi oila va jamiyatning bolalarga g‘amxo‘rilik qilish, milliy va mintaqqa xususiyatlarni hisobga olgan holda har tomonlama barkamol qilib tarbiyalash va rivojlanirishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish maqsadida tashkil etiladi.

Respublikamizda 3-7 yoshgacha bo‘lgan davr bog‘cha yoshi davri hisoblanadi. Maktabgacha yoshdagi bolalar psixologiyasida juda tez sifat o‘zgarishlari bo‘lishini inobatga olgan holda 3 davrga (3-4 yosh) kichik maktabgacha davri (4-5 yosh) kichik bog‘cha yoshi o‘rtalik maktabgacha davr (o‘rtalik bog‘cha yoshi) 6-7 yosh va katta maktabgacha davr katta bog‘cha yoshilarga ajratish mumkin. Bola rivojlanish jarayonida odamlarning ilgari o‘tgan avlodlari tomonidan yaratilgan predmet va hodisalar olami bilan alohida maxsus munosabatga kirishadi. Bola insoniyat qo‘lga kiritgan barcha yutuqlarni faol ravishda o‘zlashtirib, egallab boradi. Bunda predmetlar olamini, hamda ular yordamida amalga oshiriladigan xatti – harakatlarni, tilni, odamlar orasidagi munosabatlarni egallab olishi, faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘sib borishi, katta yoshli kishilarning bevosita yordamida amalga oshirilib borilmog‘i kerak. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Bog‘cha yoshdagi bolalarga beriladigan tarbiya ularning murakkab harakatlarini takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mexnat malakalari hosil qilish, nutqini o‘stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabgi kurtaklarini yuzaga keltirish davridir.

Bog‘cha yoshdagi bolalarning ko‘zga tashlanib turuvchi xususiyatlardan biri ularning serharakatligi va taqlidchanligidir. Bola tabiatnining asosiy qonunini



shunday ifodalash mumkin: bola uzlusiz faoliyat ko'rsatishni talab qiladi, lekin u faoliyat natijasidan emas, balki faoliyatning bir xilligi va bir tomonlamaligidan charchab qoladi. Mana shu so'zlardan bog'cha yoshidagi bola tabiatning asosiy qonuni bo'lmish serxarakatligini ortiq cheklab tashlamay, balki maqsadga muvofiq ravishda uyushtirish kerakligi yaqqol ko'rinish turibdi.

Bog'cha yoshidagi bolalar ehtiyoji va qiziqishlari jadal ravishda ortib boradi. Bu avvalo keng doiraga chiqish ehtiyoji, munosobatda bo'lish, o'ynash ehtiyojlarinig mavjudligidir. Bog'cha yoshidagi bolalar nutqni bir muncha to'la o'zlashtirganlari va xaddan tashqari xarakatchanliklari tufayli ularda o'zlariga yaqin bo'lgan katta odamlar va tengdoshlari bilan munosobatda bo'lish ehtiyoji tug'iladi. Ular tor doiradan kengroq doiradagi munosobatlarga intila boshlaydilar. Ular endi qo'ni-qo'shnilarning bolalari bilan xam jamoa bo'lib o'ynaydilar. Xamma narsani bilib olishga bo'lgan ehtiyoj kuchayadi. Bog'cha yoshidagi bola tabiatiga xos bo'lgan kuchli ehtiyojlardan yana biri uning har narsani yangilik sifatida ko'rib bola uni har tomonlama bilib olishga intilishidir.

Bog'cha yoshidagi bolalar xayotida va ularning psixik jihatidan o'sishida qiziqishning roli ham kattadir. Qiziqish xuddi ehtiyoj kabi bolaning biror faoliyatga undovchi omillardan birdir. Shuning uchun ham qiziqishni bilish jarayoni bilan bog'liq bo'lgan murakkab psixik hodisa desa bo'ladi.

Bolaning kamol topishida qiziqishning ahamiyati shundaki, bola qiziqqan narsasini mumkin qadar chuqurroq bilishga intiladi va binobarin uzoq vaqt davomida qiziqqan narsasi bilan shug'ullanishdan zerikmaydi. Bu esa o'z navbatida bolaning diqqati hamda irodasi kabi muhim xislatlarni o'stirishga va mustahkamlash yordam beradi.

Mashg'ul tarbiyachi tomonidan bolalarga kerakli bilim va malakalarni umumiyl holda xabardor qilish demakdir. Mashg'ulotlar kun davomida o'tkazilib boriladi. Kuning birinchi qismiga mo'ljallangan mashg'ulotlar ancha samara beradi. Mashg'ul jarayonida bolalarda mustaqil fikrplash, ko'nikma va malakalari xosil qilinadi, tarbiyachining so'zini tinglash, o'rtoqlari bilan gaplashmaslik har bir tarbiyachi tomonidan berilgan savollarga javob berishga harakat qilish tarbiyachi tomonidan aytilgan fikrlarni takrorlashga o'rganib boriladi. Har bir yosh guruhlarda necha marta mashg'ul o'tkazish bolalar bog'chasi ta'lim-tarbiya dasturida belgilab boriladi.

O'yin faoliyati bola hayotida, uning jismoniy, ruhiy, aqliy kamolatga etishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. O'yin orqali bolalar tafakkur, tasavvur, xotira,



diqqati kabi barcha psixik jarayonlari rivojlanadi va atrof - muhit haqidagi bilmii yanada kengayib boradi. Maktabgacha ta'lif muassasasida o'yin faoliyatidan to'g'ri va unumli foydalanish, har - bir o'tkaziladigan mashg'ulotlar va sayr faoliyatining samaradorligini oshirib boradi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida o'yin faoliyati turli xil shaklda voqeaband - ijroli, harakatli, ta'limiyl, musiqiy-ta'limiyl kabi yo'nalishda olib boriladi. O'yin bolalar uchun qiziqarli, mazmunli bo'lishi uchun tarbiyachi o'yin qoidasi bilan yaqindan tanish bo'lishi kerak. Zamonaviy informatsion texnologiyaning ta'lif va tarbiya jarayonidagi tutgan o'rni va yaratilayotgan zamonaviy o'quv dasturlari yaratilish jarayonlari haqida batafsil ko'rib chiqamiz. O'rgatuvchi o'yinli elektron o'quv-uslubiy ta'minot yaratishda asosiy vazifalardan bo'lib, dasturiy vositalarni tanlash hisoblanadi. Bu albatta, tarbiyachining va dasturchining tajribasi va bilimiga bog'liq. Bundan tashqari, nazariy metodlardan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Bunday metodlar o'rgatuvchi o'yinli elektron o'quv-uslubiy ta'minot yaratishning kompleks talablarini oson hal qilishga yordam beradi.

Hozirda ekran ko'rinishi (zastavka, informatsion ekran, savollar ekranı, vazifalar ekranı) bir nechta o'yinli dasturlarni o'z ichiga olgan elektron o'quv-uslubiy ta'minot(o'quv qo'llanma)lar keng tarqalmoqda.

O'rgatuvchi o'yinli elektron o'quv-uslubiy ta'minot asosan biror-bir bo'limni, ma'lumotnomasi, topshiriqlar yoki topishmoqli mashg'ulotlarni o'z ichiga olgan bo'lishi mumkin. SHu o'rinda o'rgatuvchi o'yinli elektron o'quv-uslubiy ta'minot kitob bilan birga disketada komplekt ko'rinishida bo'lishi kerak. Kitobda ma'lumotlar tavsifi bo'lsa, disketda har xil o'yinli dasturlardan foydalanish imkoniyatlari keltirilgan bo'лади.

O'rgatuvchi o'yinli elektron o'quv-uslubiy ta'minot barcha funksiyalarga asoslangan, nazariy materiallarni namoyon qilingan bo'lishi, dastlabki olingan tushunchalarini izoxlash, o'zlashtirish darajasini nazorat qilish, qog'ozdag'i ma'lumotlar yordamisiz teskari aloqaga va shu kabilarga asoslangan bo'lishi kerak.

Maktagacha ta'lif jarayonini tashkil etishda foydalanuvchining o'quv materialini takrorlashda uni yodda saqlashi, o'z bilimini fikrashi hisobga olinishi kerak. O'rgatuvchi o'yinli elektron o'quv-uslubiy ta'minotning belgilangan o'quv materialini o'zlashtirishning samarali imkoniyatlarini, ma'lumotlarni yodda saqlash va fikr yuritishni yanada oshirishga yordam berishiga guvoh bo'lishimiz mumkin. O'rgatuvchi o'yinli elektron o'quv-uslubiy ta'minot yordamida o'quv faoliyatining bu elementini tashkil qilish o'zining ko'pgina farqli xususiyatlari



bilan ajralib turadi. Sababi ming marotaba eshitgandan, bir marta ko‘rgan avzal maqoliga amal qilishni isboti bo‘ladi.

Birinchidan, o‘yinli elektron o‘quv–uslubiy ta’minot yordamida rejadagi o‘quv mashg‘uloti topshirig‘ini bajarishda ma’lumotning ekranda kerakli tartibda joylashishi, asosiy elementlarning rang bilan belgilanishi, foydalanuvchi uchun «qulay instrumentlar»dan foydalanishni va shu kabilarni keltirishimiz mumkin.

Ikkinchidan, bolalar ba’zi bir qo‘lda bajariладиган амалларини турли xil xizmatchi funksiyalar yordamida bajaradi. Natijada topshiriq bajarilishi tezlashadi.

Shu yo‘sinda maktabagach ta’lim tizimidagi bolalarni maktabga ya’ni o‘quv jarayoniga ortiqcha qiyinchiliklarsiz olib borilishi tashkil etiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-son Farmoni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2019 yil 29 aprel.

2. Gaipnazarov R. Ma’naviy-axloqiy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasida uyg‘unlik: Ped. fan. nom. ... dis. – Toshkent: O‘zDJTU, 2011.– 132 b.



## O'QUVCHILARNING O'ZINI-O'ZI TARBIYALASHI PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA

J.Y.OQBO'TAYEV,  
Toshkent shahar 231-maktab psixologi

Maqolada o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi pedagogik muammo sifatida ilmiy nazariy jihatdan yoritib berilgan. O'zini-o'zi tarbiyalash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi ijtimoiy-pedagogik talablar hamda o'quvchilarning ichki ehtiyojlarini ekanligiga urg'u berib o'tilgan.

**Kalitso'zlar:** o'smirlik davri, o'qituvchi, o'quvchi, pedagogik mahorat, intellektual, axloqiy taraqqiyot, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar.

В статье рассматривается научное самообразование как педагогическая проблема самообразования студентов. Подчеркивалось, что движущей силой процесса самообразования являются социально-педагогические потребности и внутренние потребности студентов.

**Ключевые слова:** подростковый возраст, учитель, ученик, педагогические навыки, интеллектуальное, нравственное развитие, ценности.

The article examines scientific self-education as a pedagogical problem self-education of students. It was emphasized that the driving force of the self-education process is the socio-pedagogical needs and internal needs of students.

**Key words:** adolescence, teacher, student, pedagogical skills, intellectual, moral development, national and universal values.

Mamlakatimizda ta'lím-tarbiya tizimini tubdan isloh qilish borasidagi islohotlar, sohaning milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, insonparvarlik kabi prinsiplar asosida takomillashtirilayotganligi ta'lím jarayonida o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi mazmunini kuchaytirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi rivojlantirish konsepsiyasida "ta'lím muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonini samarali tashkil etish, muqobil yondashuvlarni o'rganishga va ilmiy asoslashsga yo'naltirilgan amaliy xarakterdagi ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, o'quvchilarda o'qishga sog'lom, kuchli va ta'sirchan motivatsiyani shakkllantirish"[1] kabi vazifalar belgilangan. Bu borada o'smirlik yoshidagi o'quvchilarda ta'lím tizimini modernizatsiyalashning amaliyotdagi holatini tahlil qilish, neonologik yondashuv asosida o'quvchilarning o'zini-o'zi tarbiyalashi mexanizmlari mazmunini, usullari, yo'llari, metodlari va vositalarini aniqlashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo'lmish ilmu ma'rifat, ta'lím va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining asosiy sharti va garovi



deb bilgan. Buyuk mutafakkir Abdulla Avloniyning “Tarbiya biz uchun yo hayot -yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir” degan purma’no fikrlari hozirgi davrga qadar dolzarbligini saqlab kelmoqda[2].

Shaxsning ma’naviy rivojlanish darajasi, o‘z-o‘zini anglashi hamda maqsadlari, qiziqishlari va intilishlarini jamiyat manfaatlariga moslashtira olishi alohida ahamiyatga ega. Har bir shaxsning o‘zini anglashi va o‘z faoliyati mohiyatini tushunishi avvalo o‘zining va qolaversa jamiyat a’zolarining ma’naviy kamolotiga muhim ta’sir ko‘rsatadi. Shuningdek, har bir shaxsning ijtimoiy tajribasi kishilik jamiyatni taraqqiyoti mahsulidir. Bu esa o‘z navbatida o‘smir yoshidagi o‘quvching dunyoqarashi, amaliy faoliyatining mezonini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Globallashuv va texnogen sivilizatsiya sharoitida o‘smir yoshidagi o‘quvchilarni jamiyat maqsad va manfaatlariga mos keluvchi intilishlari uning ma’naviy dunyosi, nuqtai nazarlari va shu asosda shakllangan ideali orqali tartibga solish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. Aslini olganda, yoshlarda yuksak axloqiy ideallarni shakllantirish bugungi kunda ma’naviy ehtiyojga aylandi. Pedagogik adabiyotlar tahlili va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, bugun yangicha fikrlaydigan, o‘z kelajagini jamiyatda demokratik qadriyatlarni mustahkamlash bilan, mamlakatimiz kelajagini jahon hamjamiatiga integratsiyalashuvi bilan bog‘liq holda ko‘radigan yangi avlod vakillari hayotga kirib kelmoqda.

Shu nuqtai nazardan ham hamma zamonlarda yoshlarning ta’lim-tarbiyasi dolzarb masala bo‘lib kelgan. Bugun bizning davrimizda ham yoshlarimizga nihoyatda yuksak e’tibor bilan qaralmoqda. Hukumatimiz tomonidan yoshlarimizga o‘qish va mehnat qilish borasida hamma shart-sharoitlar muhayyo qilingan. Bu o‘z navbatida o‘quvchilar ongingin rivojlanishi, o‘zligini anglashi, umumiy ijtimoiy va axloqiy qoidalarni o‘zlashtirishning ichki ehtiyojga aylanishiga olib keladi. O‘quvchi faoliyatini nazorat qilish va demokratik tarzda baholash, uning insoniy sha’ni, shaxsiy g‘ururi asosida tartibga solish vositalari va metodlarini tanlash ijtimoiy-pedagogik zaruriyatga aylanmoqda.

Har bir shaxs o‘zi yashayotgan jamiyat, xalq manfaatlari yo‘lida fidoiylik ko‘rsatishi, uning ideali jamiyat va ijtimoiy taraqqiyot talablariga mos kelishi shaxsiy hamda ijtimoiy ideallarning mos kelishini ta’minlaydi. Jamiyat va xalq hayotining demokratik tamoyillar asosida rivojlanishi jarayonida yoshlarni o‘zini-o‘zi tarbiyalash ko‘nikmasini shakllantirish maktabda amalga oshiriladigan tarbiyaviy ishlarning mohiyati va yo‘nalishini belgilashi lozim. Bu masalani shaxs



ichki dunyosining hayotiy ideallarga mos kelishi nuqtai nazaridan qaragan holda dialektik aloqadorlikda o'rganish maqsadga muvofiqdir. O'quvchilarning ideallarini ijtimoiy taraqqiyot talablari asosida shakllantirish, ularning ma'naviy dunyosiga yangicha yondashishni taqozo etadi.

Bunday yangicha yondashuv usullaridan biri - ularda o'zini-o'zi tarbiyalash ehtiyojlari va ko'nikmalarini tarkib toptirishdan iborat. O'zini-o'zi tarbiyalash shaxs ma'naviy madaniyatining tarkibiy qismi bo'lib, shaxs o'z hayotini murakkab vaziyatlarda ham tartibga solishi, boshqara olishi, ijtimoiy voqelikka nisbatan aniq munosabatini belgilab olishiga xizmat qiladi. SHu asosda o'quvchilarni yangicha pedagogik tafakkur asosida o'z-o'zini tarbiyalashga o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Chunki ular bugungi kunda demokratik munosabatlarga asoslangan jamiyatda yashash va faoliyat ko'rsatishga tayyor bo'lishlari lozim. O'quvchilar jamiyatdagi voqeа-hodisalar, o'zgarishlarga o'z munosabatlarini bildirishlari nahoyatda zarur.

O'quvchining hatti-harakati, axloqi va qarashlarini tizimlashtirish uchun pedagogik ta'sir vositalari bilan bir qatorda, uning o'z ichki imkoniyatlaridan birinchi navbatda o'z-o'zini tarbiyalash imkoniyatidan unumli foydalanish kerak. Buning uchun esa o'quvchining ichki imkoniyatlari bilan pedagogik imkoniyatlar bir qadar o'zaro mos kelishi lozim. Bunda birinchi navbatda inson vujudining biologik hamda ijtimoiy ta'sirlarga moslashish xususiyatidan kelib chiqiladi. O'quvchining hatti-harakatini faqat buyruq bilan boshqarish, uning erkinlik, o'rganayotgan hodisalarga ijodiy yondashish, murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'li topish, doimiy izlanish kabi imkoniyatlarini cheklab qo'yadi.

Ta'limg-tarbiya jarayonida o'quvchilarni o'zgaruvchan hayotiy vaziyatlar, jumladan, bozor iqtisodiyoti sharoitlarida faoliyat ko'rsatishga tayyorlash pedagogikaning muhim masalalaridan biridir. Ta'limg-tarbiya jarayonida o'quvchilarni ijtimoiy hayotga tayyorlash juda muhimdir. Ko'rinish turibdiki, o'quvchilarda mustaqil fikr va ijtimoiylikni tarbiyalash ta'limg-tarbiyaning muhim masalalaridan biridir.

Shaxsning faollanuvchan ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, axborot oqimining oshishi, jamiyat taraqiyotining tezlashuvi ham taqozo qilmoqda. Bugungi kunda jamiyatdagi turli oqimlar jumladan, terrorizm, axborot hujumlari, narko biznes, spid xavfining kuchayishi ham o'quvchilarni hushyorlik va o'z-o'zini tarbiyalashga da'vat etishni talab qilmoqda.

Shaxs ichki ziddiyatlarni hal qilishi rivojining asosiy mexanizmi sifatida uni



o‘rab turgan muhitni faol o‘zgartirishi jarayonida namoyon bo‘ladi. Har qanday faoliyot ham o‘zini-o‘zi tarbiyalash sifatida baholanmaydi. O‘zini-o‘zi tarbiyalash muhitga moslashish emas, balki maqsadga qaratilgan faoliyot bilan o‘zidagi sifatlarni ijobjiy tomonga, ijtimoiy mohiyatli o‘zgartirishga qaratilgan ongli faoliyatdir.

Inson hayotida o‘zini-o‘zi tarbiyalash katta ahamiyatga ega bo‘lishiga qaramay, uning mohiyati va amalga oshirish yo‘llari hali etarlicha o‘rganilmagan. Ilmiy adabiyotlarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash, o‘zini engish, yoki o‘zini majbur qilish, o‘z ustidan hukmronlik, o‘zini chegaralash[2] tarzida talqin qilingan. Bunday talqinlarda o‘zini-o‘zi tarbiyalash o‘zining shaxsiy kamchiliklarini engish, o‘zini majbur qilish tarzida tushuniladi, bunda hal qiluvchi holat insonning ongli maqsadga qaratilgan faoliyati bo‘lib, o‘z sifatlarini takomillashtirish, o‘zgartirish asosida qadriyatli yo‘nalishlarni egallashga intilishni ko‘rsatib o‘tish lozim. Shunga ko‘ra o‘zini-o‘zi tarbiyalash shaxsning ijtimoiy mohiyatli xususiyati va sifatlarini takomillashtirishiga yo‘naltirilgan faoliyati bo‘lib, uning ongi va xulqidagi kamchiliklarni o‘zi bartaraf etishiga qaratilgan faoliyatdir.

O‘quvchi ta’lim-tarbiya jarayonida jamiyat tomonidan qabul qilingan axloq me’yorlarini egallashga, o‘z xulq-atvorida mavjud bo‘lgan salbiy odatlarni ijobjiy sifatlar bilan almashtirishga intiladi.

O‘quvchi inson sifatida ijtimoiy mohiyat kasb etadi. SHuning uchun ham uning hayotiy faoliyati, hatti-harakati ijtimoiy-pedagogik vaziyat taqazosi bilan amalga oshadi. O‘quvchilar xuddi mana shu ta’lim-tarbiya jarayonida jamiyatga, xalqqa xizmat qilishga safarbar etiladilar. O‘quvchining o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayoni mazmunini ijtimoiy voqelik va shaxs taraqqiyoti talablariga tayangan holda belgilash muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. O‘quvchi o‘zida mavjud bo‘lgan sifatlar va odatlarni o‘zgartirar ekan, o‘zini-o‘zi tarbiyalash yo‘nalishini belgilaydi. Bartaraf etilishi zarur bo‘lgan sifatlarning g‘oyaviy, axloqiy asoslari, o‘zini-o‘zi tarbiyalash idealining mohiyati anglab etishi lozim. O‘quvchilarning o‘zlarini-o‘zlar tarbiyalashga intilishlari ular faoliyatining ajralmas qismi bo‘lishi zarur.

O‘quvchilarning o‘zlarini-o‘zlar tarbiyalashlari axloqiy, jismoniy xamda ijtimoiy takomillashuviga intilishlarining kuchayishi bilan izohlanadi. SHaxs shakllanishida intellektual, irodaviy, axloqiy o‘zini-o‘zi taribga solish, o‘z xatti-harakati maqsad va ideallari, shaxsiy sifatlarini o‘zgartirishi asta-sekin barqaror maylga aylanadi. O‘quvchilar o‘zlarining shaxsiy sifatlarini anglab, ularni kuzatish, tahlil qilish va tasniflashga odatlanadilar. Buning natijasida o‘quvchilar o‘zlarini



tarbiyalash, takomillashtirishga yo‘naltirilgan shaxsiy dasturlarini ishlab chiqadilar. Buning uchun o‘quvchilarning o‘zlarini-o‘zlar tarbiyalashlari ularning asosiy maqsadiga aylanishi lozim.

Amalga oshirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda shuni ta’kidlash mumkinki, o‘zini-o‘zi tarbiyalash jarayonining harakatlantiruvchi kuchi ijtimoiy-pedagogik talablar hamda o‘quvchilarning ichki ehtiyojlaridir. Biz o‘quvchilarning intellektual, axloqiy taraqqiyoti, o‘z-o‘zini tarbiyalashni jadallashtiradi. O‘quvchining o‘z oldiga qo‘ygan maqsadi, unga erishishga bo‘lgan intilishi uni o‘z-o‘zini rivojlantirishga undaydi. Bunday vaziyatda o‘quvchilarning nuqtai nazarlari, hayotiy tajribalari va yosh xususiyatlari bilan bog‘liq holda o‘zlarini-o‘zlar tarbiyalashlari o‘ziga xoslik kasb etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5712-sod Farmoni Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi ([www.lex.uz](http://www.lex.uz)), 2019 yil 29 aprel.

2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 1-jild. Toshkent.: Ma’naviyat, 1998.



## O'QUVCHILARNI JAMOADA ISHLASH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH MASALASI: TARIXIY-MILLIY YONDASHUVLAR VA AJDODLAR TAJRIBALARI

**SH.K. TATLIBOYEV,**

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika  
universiteti tayanch doktoranti*

*Mazkur maqolada o'quvchilarни jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish  
mazmun, mohiyatini ma'naviy meros yordamida tarkib toptirish masalalari O'rta Osiyo  
mutafakkirlarining ilmiy ma'naviy merosi orqali yoritib berilgan. SHuningdek maqolada,  
o'quvchilarни halollik, poklik, vatan manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatish ruhida  
tarbiyalashda, ularga o'zliklarini anglatish va jamoada ishlash ko'nikmalarini  
rivojlantirishda milliy, diniy qadriyatlar o'rni alohida kasb etishi ilmiy nazarini jihatdan  
yoritib berilgan.*

**Kalit so'zlar:** mutafakkirlar, ma'naviy meros, tarixiy yondashuvlar, halollik, poklik,  
o'zlikni anglash, jamoada ishlash, milliy, bilim.

*В статье рассматриваются вопросы развития у студентов навыков ко-  
мандной работы через научное и духовное наследие мыслителей Центральной  
Азии. В статье также научно и теоретически подчеркивается роль национальных  
и религиозных ценностей в воспитании студентов в духе честности, чистоты,  
самоотверженности, самовыражения и командной работы.*

**Ключевые слова:** мыслители, духовное наследие, исторические подходы, че-  
стность, чистота, самосознание, командная работа, знания.

*The article examines the development of students teamwork skills through the scientific  
and spiritual heritage of Central Asian Thinkers. The article also scientifically and  
theoretically emphasizes the role of national and religious values in educating students in  
the spirit of honesty, purity, dedication, self-expression and teamwork.*

**Key words:** thinkers, spiritual heritage, historical approaches, honesty, purity, identity,  
teamwork, nationality, knowledge.

Xalqimizning qadimiy tarixi, boy madaniyati, asriy an'ana va qadriyatlari  
asosida o'quvchilarни jamoada ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish muhim  
pedagogik ahamiyat kasb etadi. Insoniyat ijtimoiy taraqqiyoti uzoq davom etgan  
tarixiy jarayon bo'lib, unda kishilarning erishgan moddiy va madaniy merosi o'z  
aksini topgan.

Ilmiy adabiyotlar tahviliga ko'ra, o'quvchilarни jamoada ishlash ko'nikmalarini  
rivojlantirish masalalari jamiyatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy,  
g'oyaviy-mafkuraviy rivojlanishi bilan uzviy bog'liq holda yuz beradi. Har bir  
davlat va jamiyat rivojlanishida umumiylik, mutanosiblik bilan birga o'ziga xoslik  
ham bor.



Prezident Sh. Mirziyoev o‘z nutqlarida va chiqishlarida alohida urg‘u berib o‘tayotgan “g‘oyaviy va axborot xurujlariga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirish”, turli ekstremistik oqimlar o‘z manfaatlari yo‘lida diniy e’tiqod va qadriyatlardan qurol sifatida foydalanayotganliklarini yoshlari ongiga singdirishda Qur‘oni Karim va Hadisi Sharflarda berilgan ta’limotlardan samarali foydalanish muhim pedagogik ahamiyat kasb etidi[1].

